

Mirzo Abdulqodir Bedil

**SHAVQINGNI
YOD ETIB**




84(0)9
B46

Boqiy satrlar

Mirzo Abdulqodir Bedil

SHAVQINGNI YOD ETIB

Gʻazallar, ruboiylar va doston



Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent—2005

84(0)9
B46

Tahrir hay'ati: Aziz Qayumov, Abduqodir Hayitmetov,
Najmiddin Komilov, Abdurashid Abdug'afurov, Vahob Rahmonov

To'plab, nashrga tayyorlovchi:
Jonibek Subhon

Mas'ul muharrir: Vahob Rahmonov

B 4702620102-87
M352(04)-2005 2005

ISBN 5-635-02287-1

© G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-
matbaa ijodiy uyi, 2005-y.

DEBOCHA

Mirzo Abdulqodir Bedil — qiyosi yo'q shoir, mutafakkir va jamiyatshunos olim, o'ziga xos faylasufona qarashlar sohibi bo'lgan insondir. Asli Shahrisabzning barlos urug'idan bo'lgan shoirning otabobolari Hindistonga ko'chib borib, o'sha yerda turg'un yashab qolishgan. Hindistonning Azimobod shahri yaqinidagi Patnada 1644-yilda harbiy xizmatchi oilasida tavallud topgan Bedil 1720-yilning 5-dekabrda Dehlida vafot etadi.

Otasidan yetim qolgan Abdulqodir onasining qo'lida tarbiyalanadi. Uning bilim olishga bo'lgan chanqoqligini sezgan amakisi Mirzo Qalandar bilan tog'asi Mirzo Zarifning yaqindan yordami tufayli savodini oshiradi, arab tili grammatikasini, hind va urdu tillarini, so'fiyona qarashlarni o'zlashtiradi. Uning tinimsiz intilishlari va izlanishlari hatto o'n yoshida yozgan ilk ruboiylarida yaqqol sezilib, atrofidagilarni hayratga soladi. Oltmish yoshga borganida yozgan «Chor unsur» asarida o'zining hayotiga, tarjimai holiga va dunyoqarashiga oid fikrlarini bayon qilgan.

Yigirma yoshida birinchi marta she'rlarini jamlagan Bedil umri davomida ko'p yo'llarni bosib o'tdi. Xalq hayotini yaqindan o'rgandi, zamon evrilishlari va munofiqliklarini ko'rdi, bularni o'z ijodida aks ettirishga, insonlarni doimo yuksaklikda, ittifoqlik va mehr-muruvvatlilikda bo'lishga chaqirdi, bu tuyg'ularni goh oshkor, goh kinoyal, goh tashbehlar vositasida qalblarga yetkazishga harakat qildi...

Nihoyatda sermahsul, tinmas va izlanuvchan shoir Bedil katta meros qoldirdi. Uning «Kulliyot»iga kiritilgan asarlarining o'zi 130 ming misra she'r va 50 bosma toboqdan ortiq nasrni tashkil etadi. «Tilsimi hayrat», «Tarkibot va tarjeot», «Muhiti a'zam», «Turi ma'rifat», «Ishorat va hikoyat», «Ruqa'ot», «Chor unsur», «Irfon», «Nukot», «G'azaliyot», «Ruboiyot» kabi bir qancha asarlari mavjud.

Eng dolzarb janr hisoblangan ruboiylar yozishda ham Mirzo Bedil katta mehnat qildi. Uning 3861 ruboiy yozib qoldirganini aytadilar.

Bedil o'zining olijanob fikr va g'oyalarini, oddiy insonlarga bo'lgan mehru shafqatini va ayni paytida qabohat va istibdodning jirkanchligini, erkin orzu va xayollar oshig'i ekanligini «Komde va Mudan» dostonida mahorat bilan tasvirlab beradi. Shoir raqqosa Komdening go'zalligini va unga oshiq bo'lib qolgan qo'shiqchi va cholg'uchi Mudan sevgi-muhabbatini butun sehru jozibasi bilan tarannum etgan. Doston haqiqiy sevgi, inson qadri, iste'dodning mislsiz qudrati haqidagi go'zal asar bo'lib, u har bir avlodni shunday yuksak tuyg'ular, ishqqa sadoqat va go'zallikka tan berish sari ilhomlantiraveradi. Bedil ijodining buyuk qudrati va umrboqiyiligi siri ham shundan bo'lsa kerak.

Fors-tojik mumtoz she'riyatida Bedilning o'zigagina xos bo'lgan, zarrada olam ma'nosini berishga intilgan va bunga ko'pincha erishgan shoirning ko'pgina asarlari har o'qilganida yangi qirralarini ko'rsataveradi, yangidan kashf etilaveradi. Xalqimizning bu buyuk vatandoshimizga bo'lgan mehrini unga bergan «Abulma'oniy» — «Ma'nolar otasi» degan faxrli laqabining o'zi ham ko'rsatib turibdi. Mumtoz Sharq she'riyatining biz katta iftixor bilan ataydiganimiz — Bedil chamanidagi anvoyi gullar dunyo turgunicha o'zining tengi yo'q muattar hidini sochib turaveradi, inshoollo!

Jonibek Subhon



G'AZALLAR

* * *

Bo'libdir g'amga oshyon maskani dil,
Shu bois g'am kelur, so'rsam: qani, dil?

Ko'zim maqsudi vasling-u, qani, ko'z,
Dilim yodi g'aming, ammo qani, dil?

Adashgan korivonga qo'ng'iroqman,
Na kuylar kuylamasdan nolani dil?

Kishi yo'qdir kishiga zoru muhtoj,
Vale dil tutganidir domani dil.

Qadam qo'yganda xoki turbatimga
Bo'l ogohkim, oyog'ing bosgani dil.

Agar-chi suvratim Bedildir, ammo
Qilur boshdin-oyoq ashkim mani dil.



Zahm o'ldi yana chashmi purob o'ldi, bizim dil,
Rangin qadah ichra qon sharob o'ldi, bizim dil.

Gulbog'u chaman faslida tosh o'lsa u ko'ngil,
Dasht uzra g'ubor o'lsa-da, ob o'ldi, bizim dil.

Vasl anjumani ichra hayo jom bo'libdur,
Ob o'lsa agar bodai nob o'ldi, bizim dil.

Ne hosil, ayo nola, bul otash nafasingdan,
Qon bo'l, seni deb bo'yla kabob o'ldi, bizim dil.

Bir chashma-ku to'foni xayol ichra bu olam,
Bedil, na iloj, emdi sarob o'ldi, bizim dil.

Parishon xotirim deb g'am yaralmish,
Yana chashmim tufayli nam yaralmish.

Qilur mavj gavharu oina javhar,
Ajab, beorzu dil kam yaralmish.

Atarlar g'uncha poymolini gul deb,
Ne hol, shodlik aro motam yaralmish.

Sabo to'zg'itgudek bir kaft tuproq
Qo'shilmagach qon ila, odam yaralmish.

Qoshimga kelsa gar farmoni taslim,
Egilgum, qoshim asli xam yaralmish.

Agar xeshlik uchun paydo bu olam,
Mening ko'nglimga ko'nglim ham yaralmish.

Diling dardiga yo'qdir chora, Bedil,
Bo'lib sohibmuhr Hotam yaralmish.

* * *

Ishq dog'i kabi nurga niqobdir yuragim,
Oyina kabi dard ila sofdir yuragim.

Har lahza bir uxlab yana tez uyg'onadir,
Har dam ishi rohat va azobdir yuragim.

Mavjlanganidan kim ani sarchashma demish,
Sarchashma emas, asli sarobdir yuragim.

Paymonasi lim to'ldi bo'lib paydo shahd,
Mulkingda umrdoshi hubobdir yuragim.

Kell.. O't ber, alangamni tomosha ayla,
Lov yonmasa, umri ne hisobdir yuragim.

Sen so'rading, berdim yulib ko'ksimdan,
La'ling bu savol, unga javobdir yuragim.

Shabnam kabi suv olamidandir gohi,
Goh misli qadah ichra sharobdir yuragim.

Umrim necha dam? Tinmay urar bilmakka,
Chin kasbi sanoq, kori hisobdir yuragim.

Umrimni xayol etsam, hech yo'qdir samari,
Yong'in nafasim, shunga kabobdir yuragim.

Ko'z-ko'z qiladir daryo pufaklarni necha,
Vasl ko'zgusiman, ammo hijobdir yuragim.

Tosh oyinavu, tomchi guhar bo'ldi, biroq
Afsus, hamon xonaxarobdir yuragim.

Ming tomir ila chirmadi g'aflat, garchi,
Bedil, necha hikmatga kitobdir yuragim.

* * *

Yod etib shavqingni, singan xasta dillar shoddir,
Shisha dillarga bu chil-chillar muborakboddir.

Oh va ko'z yoshim egiz, men bir ajib mirobman,
Shu shamol, bu suv bilan dard bog'larim oboddir.

G'aflat ichra men hayotni mehribon bildim g'alat,
Har damim qo'sh tig'li xanjar, umr esa jalloddir.

Hayratim og'zi metin, yumshoqdir undan toshtuxum,
Folboqar oynam sinib, bundanki u zuryoddir.

Umr qushim parvozi tindi shisha ko'nglim ichra, oh,
Tip-tiniq ushbu qafasning sohibi sayyoddir.

Zoru muhtojmiz agar-chi, biz qanoat bir-la boy,
Tashna dil qong'aymu hech, dunyo saroboboddir.

Bo'ldi bulbul nozga tutqun, holbuki, bir ura par,
Ko'rkidanmas gul, o'zidan ham o'zi ozoddir.

Aqlu hush jomi siniq, undan salomatlik oqar,
Telbalik rohat yaratmakda ajib ustoddir.

Vasl oqshomida isfandlar ne xush charsilladi,
Ishqni madh aylab kuyibdurman, bu — bir isbotdir.

Ko'p ulug' tushlarga loqaydmiz, nechunkim, o'ngda ham
Uxlagudek damda bir dunyo, axir, bunyoddir.

Biz Xito — naqsh o'lkasin kezsak, oyoqning izlari
Mo'yqalamdir go'iyo, surgan ajib Behzoddir.

Surmalar baxtlar qarosindan nishon ki prikdagi,
Ishqni kokillar sezib to'lg'andi — jim faryoddir.

Keksa bu jonimni kovlab, baxt yo'lin ochdim, ne baxt,
Qomati yoy, chunki Bedil, teshai Farhoddir.

* * *

To tug'ildim, har qulog'imga mudom afsun kerak,
Dil tin olganicha cho'kib yotmoqni istar — xun kerak.

Ishq balosi husn baxtiga hamisha zordir,
Laylining noz bazmiga albatta bir Majnun kerak.

Ehtiyoj bor etdi yo'qlikdan jahonni, do'stlar,
Qilgali jo dilga himmat, yangragan qonun kerak.

Ketmagay dud hech yolingdan, kulga gulxan do'nmayin,
Go'iyu yuvmoqqa ust-boshim kirin, sobun kerak.

Vahmga taslim aql bor-yo'qni farqlab bilmagay,
Nokeraklar kecha o'rtab, bo'ldilar bul kun kerak.

To'kmasinlarmi yulib marjonlarin kipriklarim,
Oh, yoshurmoqqa nahot shunday go'zal mazmun kerak.

Tong bu — borliqning jahonda bir damidir bedaxl,
Bir nafas diydor uchun borliqqa bul gardun kerak.

Ehtiyoj insho etib ja'm qildi tarqoq so'zimiz,
Harfi nomavzunimiz, chun bo'lmog'i mavzun kerak.

Benafaslikka giriftor Bediling qabr ahlidek,
Chun o'lim zanjirdur, zanjir uchun majnun kerak.



* * *

Yoniq matlablarim bergay olovg'a dostonlarni,
Bo'yar qong'a murod-maqсадlarim barcha bayonlarni.

Asl manzilga yetmasdan, qolib ketding, bo'lib man-man,
Jaranglardan topib qirg'ay qaroqchi korvonlarni.

Shovullab turgan o'rmon sirlarinda, ayt, ne hasrat bor
Ki, qushlar ko'zyoshi girdobg'a berg'ay oshyonlarni.

Yurakdan gardlaring art, to tiriksan, intizom baxsh et,
Axir, fayzi bo'lak tartibga solmoqning do'konlarni.

Labing dilni olib, mendan miyiqqlar jon so'raydirlar,
Yomon o'rgatdi o'g'ring poraga bul posbonlarni.

Sen olgan har zaif damdan umr bo'yi so'nib keldi,
Mozorlarga sha'm etma vaqt yelinda ustixonlarni.

Yutib kelmoqda sen turgan qirg'oqni ajdaho toshqin,
Qayiqni sindiru, sog' ket, yo'qotding bu makonlarni.

Ko'zingning yoshlari yulduzlarin yanchib kuningni ko'r,
Tegirmon aylab aylantirdi ohing osmonlarni.

G'azab ahlin tiyib turg'il sehrlab sen odob birlan,
Ki, o'qlar qoshida ko'r ta'zim etgan bul kamonlarni.

Jahondir xomxayol oshxonasi, armonni yeb to'ydim,
Nechun tinglay sovuq tandirdan oqqan boshqa nonlarni.

Men ojiz sajdaman, aylab tavof, so'ng manglayim birlan
Naqsh qildim shamolga xoki birlan ostonlarni.

Qarab yor, tinglagay bir kun, yetar, bas, jim bo'l, ey Bedil,
Men oyna bag'riga jo ayladim faryod-fig'onlarni.

* * *

Toki chaman tomonidan bo'yi bahor yetib kelar,
O'zni netib yod etayin, nomai yor yetib kelar.

Ikki ko'zu bitta labin juft etadir qaddima yor,
To'rt beadab raqam bilan ming iftixor yetib kelar.

Shodligu g'am dog'larini masxara qilgali kulib,
Bag'rida dog', xanda qilib, u lolazor yetib kelar.

Ochdim aza, yo'qoldi yo'l dashti adam quchog'ida,
Tong, yoritish uchun yo'lim, siyanafigor yetib kelar.

Kuydi yurak sipand bo'lib, chiqdi nafas baland bo'lib,
Sen yo'nilib, so'ngra qo'lim senga, dutor yetib kelar.

Jim o'qigil bu ma'rifat kitobini, ayo, aziz,
Qilsang ovozingni baland, boshinga dor yetib kelar.

Tang bu tiriklik ichra xalq yupandi so'zu soz bilan,
Yo'q esa har nafasda bu dilga fishor¹ yetib kelar.

Shodligu baxtimizga qo'l yetmaga ko'p qiyin bizim,
Chiqsa agar xumordan u, tag'in xumor yetib kelar.

Dag'dag'a qilma qudratu husnu tarovatingni hech,
Tonggacha sha'm so'nar, axir, faxringa or yetib kelar.

Singan oyoq qachongacha haq talabin qilar ado,
Ikki ko'zim yuzingga, oh, topib mador yetib kelar.

Ohi hazini qaqratib qo'ysa azizlar labini,
Bering xabar, yosh to'kibon Bedili zor yetib kelar.

¹ Fishor — bosim (fizik istiloh).

* * *

Ko'zlaringga, tengsizim, bo'lsin fido mayxonalar,
Goh qurib, goh to'lg'usi imong bilan paymonalar.

Oshiq o'z qalbini yoqmoq payti chaqmoq oldi o't —
Sha'm alanga olgani payt kuydilar parvonalar.

Ishq-junun sahrosida esdi dovullar aylanib,
Sochlarin bir hilpiratsinlar debon devonalar.

Ishqimizning qadri yo'q dildan chiqib bo'lgach bayon,
Boy berib ganjin, huvillab qoldilar vayronalar.

Mehrimiz berdi olovga bor taroq do'konlarin,
Sochlarin qandoq tarar endi bizim jononalar?!


Sha'mga dil dardimni aytib turganim payt keldiyu,
Uyqu uxlab qoldi, tinglab tonggacha afsonalar.

Qahr qah-qahlab tishin qayrar hasadning betida,
Sabr etar tishsiz qilich jim-jit, bo'lib mardonalar.

Nomuvofiq bo'lsa ahli anjuman bo'lgay xarob,
Jam emaslikdan sochilgaylar boshog'dan donalar.

Sharmi bo'lsa, bir-birovga ko'z olaytirmasdi el,
Suq kirib, shatranj o'yin maydoni bo'ldi xonalar.

Toki bor imkoni, Bedil, qil zamon ahlini tark,
Tutmagay odamni do'st hech bu hayobegonalar.



* * *

Zor qanot qoqsamki, bexudlik ayon bo'lg'usidir,
Bu bilan isyon emas, holim bayon bo'lg'usidir.

Bir qadam ham behuda ketmas agar hush izlasak,
Yo'qsa, tosh, g'aflat bosib, bizdan nishon bo'lg'usidir.

Bo'l faqir sen xokisorlik birla, oxir bir kuni
Bir hovuch xokingga yel taxtiravon bo'lg'usidir.

Gar xudosizlarga qolsa ushbu ummonlar kuni,
Parchalangan barcha yelkan, kema qon bo'lg'usidir.

Vahmu tuhmat g'am balosi birla har ko'k barhayot,
Bolu parning ko'lkasi tog' deb gumon bo'lg'usidir.

Qanchalik hurkitmangiz, baxt qushlari mijjamdadir,
Ming qanot bir kiprigim ichra nihon bo'lg'usidir.

Gar ayon aylay desam ojizligim, ojiz tilim,
Ko'zlarim faryod chekar, bu ne fig'on bo'lg'usidir.

Avjlanib vahshatli suhbat bo'ldi har til bir olov,
Ahli korvon yoqqan o't ham korvon bo'lg'usidir.

Mangu bir rohat shudir, ja'm bo'lsa ummid-ixtiyor,
To'plasa qush parlarin gar, oshyon bo'lg'usidir.

Har nedan kechmakka, Bedil, arzigaydir haq yo'li,
Bir yuking bo'lsa bu yo'lda ming dovon bo'lg'usidir.



* * *

Ey fazlu kamoloti ayonlar va nihonlar,
Mani nafas mahv etadi, so'zni — zabonlar.

Tuzimakchi edim shoda qilib gavhari vasling,
Shart uzdi nafas torini yongan u fig'onlar.

Xok bo'ldi, biroq bo'lmadi hech mahrami diydor,
Ko'z ko'zqusiga to'ldi shu boiski to'zonlar.

Yohu deya to'kmakchi edim o'zni qadahga,
Lov yondi nafas, qaynadilar qalbdagi qonlar.

Sajdangni ko'rib shiddat ila to'xtagan o'qman,
Otgan edilar, holbuki qudratli kamonlar.

Har mo'y bo'lib til sening vasfingni o'qir shod,
Har harfing ila xattu savod chiqqan hamonlar.

Yo'qlik changining toshqinimiz, obi baqomas,
Suv loyqasimiz, bizni degish¹ olgani onlar.

Maydon uza ne tilni tilib yeldi qalam, ayt,
Ming yo'rtsa-da u, noqis erur barcha bayonlar.

Uchqun kabi osmonga uchib so'ndimu bildim,
Kenglikka samo zor, fursatga — zamonlar.

Yong'in nafasing, Bedil, uni sotsa bo'lurmi,
Hayratda qotib, taxta bo'lib qoldi do'konlar.



¹ Degish — kuchli suv oqimidan daryo o'ng qirg'og'ining muttasil o'pirilib turishi.

* * *

Yoniq dil gavhari yo qatra-qatra nob shabnamlar,
Yo ko'zyoshdek jahon sirri nihon, noyob shabnamlar.

Ki g'aflat zulmatin ogohlik nuriga jam qilmas,
Sahar bedor yonar milt-milt, yutib zardob shabnamlar.

Qayerga bormayin, ko'zyoshlarim menga vatan bo'ldi,
Jahonni qatralardan ayladi selob shabnamlar.

O'zingdan ketma dardingga bo'lib mag'rur, ko'zim yoshi,
Ki sutdek nurlarin qildi bu tun mahtob shabnamlar.

Ajabmas ko'zyoshim bo'lsa agar jononima manzur,
Ne yanglig', oh, charaqlar, ko'rsa gar oftob, shabnamlar.

Tizildi minglagan ko'z gavhari ruxsori oyimga,
Qatorlashgan kabi gulbarg uza shaffof shabnamlar.

Zulumot pardasin olg'ay sig'ib haddi, ulardan tong,
Meni dilxastani qilg'ay batar betob shabnamlar.

Yuzi gullar visolida ko'rinmas baxt nishoni hech,
Shu bois lolalar bag'ridadir xunob shabnamlar.

Zaiflik tavqi bo'ynimda, ki yuksaklikka daxlim yo'q,
Oyoq ostida ming yulduz kabi serob shabnamlar.



* * *

Sensiz tashlansa bog'ga, ko'zyoshli nigoh suvda,
Men bir oyina yanglig'... qolgan kabi bog' suvda.

Husningdan hijob aylab ko'zgu bo'lmasam bo'lmas,
Quyoshga boqib bo'lmas ul bo'lmasa, oh, suvda.

Inju-inju ter terlar bahor tongi chamanda,
Yutib barin bosh eggan gullar begunoh suvda.

Tabassum qilganingda o'g'rilar ko'rdi la'ling,
La'ling — Zuhro, qo'l yetmas, shundan jigar dog', suvda.

Ey omonlik istagan, oldingdadir ming ofat,
Sohilda o't lovullar, kemang-chi qirog' — suvda.

Olamning har ashyosi bir dilga do'nsam deydi,
Har qatra orzu aylar bir kun dur bo'lmog' suvda.

Dunyodir cheksiz ummon, durrin junbushda izlar,
Bilmaski dur o'zinda, bilmaski dur, oh, suvda.

Istarsan dahr ichinda lochin misoli parvoz,
Kech bu havasdan, g'ofil, sen bo'kkan bir zog' suvda.

Sharm ahlining faryodi kelmakda qulog'ingga,
Niqoblari yirtilgan pufakdir, andog', suvda.

Ruhni o'limdan o'zga poklantirguvchi yo'qdir,
Shundan yulduzlar milt-milt, shundandir saboh suvda.

Nadomat birla terlab bormoqdadirimiz oldga,
Misli suvdek goh yerda, misli to'lqin goh suvda.

G'aflat ahli beqaror, fe'linda hech sabot yo'q,
Misli sha'm tolasidek alangada, yog', suvda.

Bedil, seni o'ylamay ishqqa g'arq ikki dunyo,
Kim ham qayg'uran tuzni cho'kib borar chog' suvda.





* * *

Sharh etib mavj borlig'in, daryoda tug'yon har nafas,
Jam ruhim fosh, go'iy o'qo'ynimda rayhon har nafas.

Chiqa gar qanday dovon yo'lingda, shart o'tmak oshib,
Aylasin ertangni bu kun, mayli, payhon har nafas.

Matlabingga yetmaganlik dardidan sen to'kma yosh,
To'ksang ham hattoki ter, xijlatda, ul qon har nafas.

Ushbu borliq bir kitob, sen ayla band sherozasin,
Tongga boq, yo'qlikni jam aylaydi har on, har nafas.

Dard erur ishq, otashinda bir bo'lak iksir bor,
Sen bu o'tda, borlig'im, boshdan-oyoq yon har nafas.

Senga qurbon xoklar gar cheksam oh, to'zg'ib ketar,
Bir oyoq bossam fig'on tortguvchi ming jon har nafas.

O'z-o'zingdin qilmayin vahm, jur'at et, o'tgil kechib,
Sen o'zingga sen o'zingsan misli ummon har nafas.

Gullaridan parlarimga nusxa gar olmas esam,
Ustidan uchmoqqa qo'yimas ushbu bo'ston har nafas.

Bevatan majnun erurman, bo'lmisham sahro aro,
Ohularning ko'zi ichra zoru sarson har nafas.

Bor nazokat, bor sehr billur qadah ichra nihon,
Qo'y, xalal berma tamosholarga, mujgon, har nafas.

Do'ndirar o'z kulfatin tolega, Bedil, ahli dard.
Surma qilgum senga dildog'imni, jonon, har nafas.



* * *

Iki ko'z gavharingdan kom olurman,
Iki dunyoga juft bodom olurman.

Gadodirman g'arazsiz, shafqatingdan
Yalinmasdan tilib, in'om olurman.

Sening bazmingda uxlabman, bu ham baxt,
Oyoq qo'y boshima, ilhom olurman.

Bo'lib majnun mashrablarga ulfat,
Urarman toshga shisha, jom olurman.

Musaffolikda har qatra teringdan
Sahar shabnam kabi andom olurman.

Ayiq nafsinni bog'lab, ovlab anqo,
Oxir men xomxayol deb nom olurman.

Sadoqat va mehr maydoni ichra
Shahid bo'ldim, abad... orom olurman.

Ayonsan, hech qiyo boqmaydi olam,
Xavotir bundan har ayyom olurman.

Solib, Bedil, o'zimni bilmaganga,
Hama vasl istasa, payg'om olurman.





* * *

Haq debon dil makrin el borincha imkon to'ksalar,
Tomchidek gavhar uchun, mayliga, ummon to'ksalar.

Jilva aylar to'rt fasl gulshan, agar bulbullari
Tinmay har chah-chahda bir-bir qatradan qon to'ksalar.

To'ldirib tashlar tikanga intizorlik bog'ini
Yosh etib kipriklaring gar ahli hijron to'ksalar.

Lolalar qotil bo'lib tuhmatga qolmay deydilar,
Har bahorda sachratib qonimni har yon to'ksalar.

Nega ishq me'morlari ta'mir etar dil qasrini,
O'zlari qurgan zahot vayron-vayron to'ksalar.

Ahli ishq bo'lg'ay musaffo ishq o'ti-la, cho'g'larin
Gar etaklarga hayiqmasdan-ki bir on to'ksalar.

Ayb bo'lar ayb etsangiz andishasi yo'qlarni gar
O'zlari obro'sin aylab abri nayson, to'ksalar.

Sajdagohdir himmati ahli fanoning, bosh qo'ying,
Yerga tuproq aylab o'zni, har mahal jon to'ksalar.

Shabnamin bermas tekin ushbu chamanda ko'zlarim,
Sarf bo'lar minglab nigoh, bir durri g'altan to'ksalar.

Dard qushing uchdi vujudan, bosh-oyoq yong'in ko'rib
O't qo'yib misli qamishzorlarga giryon to'ksalar.

Qaltirar qo'l tiyg' tutishga qatl uchun, bergay madad
Qonlarimni pipirab har bitta mujgon, to'ksalar.

Faxr etish-chun qayda loyiq bosh, qo'yib ostoniga,
O'tganida terlarin gul yuzli jonon to'ksalar.

Faxr etarlar sajda aylab shundayin ostonaga
Bosh qo'yib manglay terin chin ahli inson to'ksalar.

Yo'qlik hamyonidan hech tushmas umr naqdi, dalil —
Yitmagay, uydan neni eltib biyobon, to'ksalar.

Chok-chok Bedilning har chokin qilib ming chok, ne tong,
Gulfurushlar subhidam xandon-xandon to'ksalar.





Chin kamolot ixtiyor qilmoqchiman,
Ya'ni yo'qlik oshkor qilmoqchiman.

Ko'p chigal borliq o'rish-arqoqlari,
Men nafas-la tor-tor qilmoqchiman.

Ham olib qancha sifr yo'qlikdan, oh,
Bir o'zimni, chun, hazor qilmoqchiman.

Hech kishi bermas javob, so'rsam savol,
Tog' aro faryodi zor qilmoqchiman.

Dard dog'idan bahor bo'lg'aymu deb
Lolazorga e'tibor qilmoqchiman.

O'tsa o'tsin, mayliga, gul fasli, yor,
Bir qadahdan ming bahor qilmoqchiman.

Topmaguncha dilda mushtoqlik kamol,
Men visolni intizor qilmoqchiman.

Farqi yo'q, do'zaxmi-jannat manzilim,
Yod Sizni, gul'uzor, qilmoqchiman.

Bir gunohim afv etishga arzimas,
Arzitay deb, qayta bor qilmoqchiman.

O'tdi yuz qat osmondan orzu,
Unga o'zni men duchor qilmoqchiman.


Bo'lmasa ibrat dalili davramiz,
Sha'm yoqib, sayri mozor qilmoqchiman.

O'z tanim tuprog'ini yo'qlikka xat
Bitgali men bir g'ubor qilmoqchiman.

Vasl yo'q, chun, ikki olamdan kechib,
Endi uzlatni qaror qilmoqchiman.

Osmon bir yuztuban bechoradir,
Men ne chora, men ne kor qilmoqchiman.

Yetdi vaqt, Bedil, o'zimdān men qochib,
Suhbatimdan endi or qilmoqchiman.



G'amlarimni oh, qilib ta'sir, ravshan aylagay,
Sha'm torin tunlari taqdir ravshan aylagay.

Tong shamolidan yonibdur bog' aro yuz ming charog',
Har yaroni shundayin shamshir ravshan aylagay.

Bu jahonning nazmu nasrin yoritar tong shu'lasi,
Soch qarosini oqartib piyr, ravshan aylagay.

Motam ahlin davrasi jim qaddin etgan halqadek
Sha'm chekib dod, ko'rsatib zanjir, ravshan aylagay.

Ahli ishq g'avg'o solib yoqqan baland gulxan bilan
Ko'zlarin o'rmon ichinda sher ravshan aylagay.

Misli to'lqin yo'qlig'imdan borlig'im bunyoddir,
Ma'nilar vayroniman, ta'mir ravshan aylagay.

Kechgil ovning matlabindan, chun umid sahrosini
Bil, chaqin, kezsini debon, naxjir¹, ravshan aylagay.

Chaqnashing, ey uchqunim, sog'liq-omonliq jilvasi,
Borlig'im, borliq tolib tadbir, ravshan aylagay.

Bul yaro — fonusda yo'q, Bedil, omonliq nuri hech,
Sha'm — boshog' o'qin etib taqrir, ravshan aylagay.

¹ Naxjir — qulon, kiyikning otga o'xshash bir xili.

* * *

Kibr ila mardlik g'ururin yuki barham bo'lg'usi,
Toki manmanlik ziyod, sharmu hayo kam bo'lg'usi.
Xom sut emgan, na iloj, el og'ziga tutmang elak,
Mulzam etmak istaganlar elni, mulzam bo'lg'usi.
O'tdi ayyom, etmagay or endi xalq taqliddan.
Sal qo'yib bersang-chi, har tosh Iso, Maryam bo'lg'usi.
Nish urar majnun xayol, ildiz yoyib nayrang qilar,
Tortsa bosh bug'doy agar jannatdan, odam bo'lg'usi.
Sha'm yonib kuymak bilan ham ravshanu ham dog'dir,
Dilda ham shodlik va g'am, to'y hamda motam bo'lg'usi.
Izlamang ishqni quruq gap — so'zdan hech, ogoh bo'ling,
Birga tug'yon qilsa juft dil, ikki olam bo'lg'usi.
Teng tarozudir adolat, ey faqir, qo'l urmag'il,
Hurmatingga og'sa bir yon, ne'mati kam bo'lg'usi.
Misli tasbih shodasiman, kechsa bir donam agar,
Boshqa donam o'tmagining navbati ham bo'lg'usi.
Fe'li poklar xislatin o'zgartar, aynitmas fano,
Paxta ham kuygach, jarohatlarga marham bo'lg'usi.
Ishq aro diydor hayosi bunchalar zalvorlidir,
Ko'zlar ochilgan zahoti, mijjalar xam bo'lg'usi.
Ko'p g'animat anglabon gul vaslini tong dastidan,
Barcha shabnam dod chekib, ko'z yosh kabi nam bo'lg'usi.
Haq-adolatdan kechib, nafs yo'liga kirgan kishi
Behuda ichgan qasam bir kun kelib sam' bo'lg'usi.
Tiymasang tilni, zamon maddohlarining madhidek,
Bir sovuq yel tarzida, Bedil, so'zing jam bo'lg'usi.

¹ Sa m — zahar.

* * *

Ishq ahli agar tasbihu zunnor, yozurlar,
Har dilni debon dona, giriftor, yozurlar.
Haq fahmini takror qilish shart emas aslo,
Purkabki olov safhaga, yakbor, yozurlar.
Kipriklar ila tahrir etib, bizga pinakda
Maktublarini, oh, necha dildor, yozurlar.
Chok-chok bu yurak sharhini keskir u qalamlar
Bil, zor yozurlar, ki ne miqdor, yozurlar.
Bilman, shoshilib do'stga ne eltgusi choparlar,
Ko'z gumidi maktub, nega diydor, yozurlar!
Ming mo'jizadan daftar ochar umri abadlar,
Yor, sarvi qadingdan tokay raftor, yozurlar.
Zulfingdan umid maktubidir qon bu yurakka
Xatlarni tugun birlaki, gulnor, yozurlar.
Chun, ajzga panoh qancha zaif qomati birla
Xok uzra necha harfni alifvor, yozurlar.
Sahfam-ku g'arib, unga sharaf naqshini ammo
Kim yozmadilar ham yana bisyor, yozurlar.
Peshtoqi parixonaga manglay bitigimni
Sir deb ko'chirib, buncha ulug'vor, yozurlar.
Faryodi tinib ahli qafas uchsa falakka
Minqorlar ila sharhi dilin zor, yozurlar.
Afv etguchi pokiza qalamlar qilibon sharm
Ne qilsam agar, oni nigunsor, yozurlar.
Dardimni bayon aylaguchi, ayt bu ne hujjat,
Qabrimga mening, deb, dili bemor, yozurlar.
Tosh ostida minnat cheka yotgum to qiyomat,
Ustimga agar soyai devor, yozurlar.
Tun misli peshonang qaro, Bedil, ki bu sirni
Bil, kun kabi ravshan deya, oshkor, yozurlar.

* * *

Oh, jilvasini aning niqob sotar,
Bir rohatga o'xshagan ming azob, sotar.

Ko'z-ko'zlama ko'lmak uzra pufagingni,
Kissamda dengiz bor mening, hubob, sotar.

Hadiksirab titrar shabnamlar milt-milt,
Bog', ularni qilib gulob, sotar.

Ko'zlarim goh g'aflat, goh hayratdan yumuq,
Baxt to'lasang, jahon iztirob, sotar.

Ming hunar birla to'qigan ipaklarimni
Olib u, bir qatra sharob, sotar.

Yonib-yonib turar g'amsevar bu yurak,
Ko'p tashna bo'ldi xaridoring, sotar.

Jigarlar dog'i qadrin ne yerdan bilursan,
Bor, do'koningdan qolma, ey kabob, sotar.

Maftun bo'lib erdim bir quyoshchehraga,
Meni yer qilib ul, oftob, sotar.

Baxtiga qaro rang singidi Bedilning,
Bo'yoqfurush unga sarob, sotar.



* * *

Junun, ayt, qaydasan, vayrona qayda,
Quruq cho'pman, bir otashxona, qayda.

Charaqlatding, ki, zorlarning charog'in,
Qani, kul bo'lg'uchi parvona, qayda.

Uyalding o'zgan, qo'rqding o'zingdan,
O'zingdan kech... keyin begona, qayda.

Quruq dovruc taratmish vahm — cho'pchak,
O'zing afsonasan, afsona, qayda.

Jahondir bir yumurtqa, mag'z — o'zinda,
Ani izlashga o'zga xona, qayda.

Qafas ko'ksimda bir qush bor, iloj ne,
Yurakdan suv tutarman, dona, qayda.

O'yingda manzilu, Bedil, yo'ling yo'q,
Xayol qil, Ka'bayu butxona, qayda.



* * *

Foniy bo'lsam-da baqo, shul yerdadir,
Baxtu kulfat mutlaqo, shul yerdadir.

O'z dilimni tark etib ketgum qayon,
Bor umid: bor muddao, shul yerdadir.

G'am matoimdir, do'konim sajdagoh,
Ketma sargardon, ziyo, shul yerdadir.

Bo'lma g'ofil yo'llaringning changidan,
Ko'zlarimga to'tiyo, shul yerdadir.

G'uncha dilni etma tark, eng xushchiroy,
Eng muattar oshno, shul yerdadir.

Pokdil, xurram yasha borliq aro,
Garchi husni bevafo, shul yerdadir.

Yo'q buningdek fazlu nuqson, izla ming,
Ming saodat, ming balo, shul yerdadir.

Tong yeli to'zg'itdi xok... sen behuda
Bo'lmagil mag'rur, havo, shul yerdadir.

Zorman, diydorga eltar korvon
Qo'ng'irog'idan sado, shul yerdadir.

Ketdi do'stlar, o'p oyog'i izlarin,
Assalomu alvido, shul yerdadir.

Yetgali vaslingga Bedil dod etar,
Dodiga yetgil, nido, shul yerdadir.

* * *

Ko'z yoshlarimni mijjalarim shitob, to'kar,
Hayo dardi yuzimga mening gulob, to'kar.

Umr o'tkinchidir, qolma bu saboqdan bexabar,
Har lahzada bir varag'ini bu kitob, to'kar.

Dog' bo'lgan dilning zorlaridan g'am yema,
Suvlarin nafasing bu oyinaga behisob, to'kar.

Jahon jilvalarin g'ubor bilgan bir gul
Qonimni g'uncha kabi, kiyib niqob, to'kar.

Chaman gulbunlari uyqu aralash boqib go'yo,
Xayolingma nigoh — gullarini, berib azob, to'kar.

Chaqnoq nigohu ko'zyosh ila bayon bo'ldi yongan dil,
Ummon yashin hamda yomg'irlari bilan iztirob, to'kar.

O'zdan ketmak ila navbahor bo'lur oshiq dili,
Ko'rinmay, tong nurlarini oftob, to'kar.

Omonliq mayini tama qilma falak shishasidan,
Fitna toshlarini yog'dirar, desang serob, to'kar.

Beqarorlig'imdan o'z borlig'im seliman o'zim,
Ko'z yosh ham o'zini o'zi ravonu purob, to'kar.

Pufakdek yorilarsan o'z nafasingdan o'zing, Bedil,
So'z aytmalik gunohingni sening, berib azob, to'kar.

* * *

Oyina kabi necha tabu tobdir dilimiz,
Chun dog'i junun shu'laniqobdir, dilimiz.
Ko'zgu kabi bir umr xayol bazmi ichinda
Hasrat ko'zida bir mija xobdir, dilimiz.
Bizmiz va nafas mavji firibgardiru botil.
Sarchashma¹ demangizki sarobdir, dilimiz.
Paymonamiz to'lgusi o'shal lahzaki shodmiz,
Bazmingda bir hamzarfi² hubobdir, dilimiz.
Otash qo'yu betobligimizni kuzatib tur,
Kuymakdin uza oxir ne bobdir, dilimiz.
La'ling chu jon oldi, ko'ngil ketdi ilikdan³,
Ya'niki savolingga javobdir, dilimiz.
Sarshor⁴ olov sog'arining jur'akashimiz⁵,
Suv olamida shabnamu sofdir, dilimiz.
Nedur bu nafas so'ngi — saranjomi nihoyat?
Bir umr tamomila hisobdir, dilimiz.
Behosil urinmak ila hasrat samarimiz,
Andoqki nafas kuydi kabobdir, dilimiz.
Daryoki hubob⁶ birla necha jilva sotardi,
Vasl oynasimiz, hijobdir⁷, dilimiz.
Yuz tosh o'lib oyina — ul yuz qatra guhardir,
Afsuski hamon xonaxarobdir dilimiz.
Afsonanigordir to nafas torida titroq,
Bedil, bu kamand domida xobdir, dilimiz.

¹ Sarchashma — buloqboshi; ² hamzarfi — hamtovoq; ³ ilik — qo'l;
⁴ sarshor — limmo-lim; ⁵ jur'akash — qultillatib ichuvchi; ⁶ hubob —
suv yuzidagi qo'ng'iroqchalar, pufakchalar (ko'pik); ⁷ hijob — parda, to'siq,
chimmat.

* * *

«Ul» demagimiz ham, menu ham senga zarurdir,
Andisha qilib yurma. U bul o'rtada yo'qdir.

Tanhezu¹ kadar² oynasi, ayt, nechuk o'y bu?
Qay yerda butun³ munfail⁴ o'lmishki, zuhurdir⁵.

Afsonalaring tutdi haqiqatni bilishdan,
G'aflat va jaholat asari — otashi Turdir.

Yorlar, meni majhulning⁶ taloshidan kulingiz,
Ul men ila, men — darbadar, oh, bu ne shuurdir?

Ijod chamani subhidami birla quvonmang,
Zero bu tabassum uyi hangomasi sho'rdir.

Yorlar dami sovuqligini necha yashirdik,
Dandonniki sovuq uradir, o'rtasi o'rdir.

Shaxsdan necha timsol ila sen topma tasalli,
Ranj chekmasa sayqalda agar, oyina ko'rdir.

Xomush esa kim — bosh ila barg anda salomat,
Har gah agar til bol yozadir, yonida mo'rdir⁷.

Ko'p kibr nechun? Necha bu tahqiq bu taqlid?
Bul hammasi hech hosili yo'q ishq g'ayurdir.

Bedil, senga yo'l topmadik hech kavnu makonda,
Oyina sarob erdiki, timsoling chuqurdir.

¹ Tanhez — poklik, soflik; ² kadar, kudurat — xiralik,
tiyralik; ³ butun — yashirin; ⁴ munfail — xijolat, sharmisor;
⁵ zuhur — oshkora; ⁶ majhul — e'tiborsiz; ⁷ mo'r — chumoli.



* * *

Qazo bosh xatiga ufqningki qaysi kun raqam urdi,
Dedim: ne manglayimga yozilibdurki, qalam urdi.

Olovdagi taqa nafasidan siz g'ofil o'lmangiz,
Qadamiga, ki shamning bosh to bazm ichra qadam urdi.

Nigohingga sening zulf singari qattiq tegib qaytdim,
Bu bog' favorasi g'alvirga misli bir alam urdi.

Bu shodlik sozi iqbol majlisida bo'ldi chilparchin,
Tanish jomni falak-da Jam boshiga chindanam urdi.

Ahli darvesh shohi bo'lgan bu xiyra bizning nigohkim,
Haqqoniy ko'z o'ngi paydosi — gardlarga hasham urdi.

Hech takalluflarga mastlar zahmatin bermagil, voiz,
Jom labi istamas demakniki, maydan qasam urdi.

Yuz shukrki, tong kabi hech qilmadik isrofchilik biz,
Garchi bizda ham nafas bor, lek oinaga kam urdi.

Jahonda bor ajib uyqu, ne hosildir lekin bundan?
Qildi shunday dil junun, to nafasniki adam urdi.

Faryod-ey, bu dilga bir topingani yo'l topolmasmiz,
Hama ko'r eshigida, boshini dayru haram urdi.

Somonidan hubobimning bo'libdi jiqqa ho'l iqbol,
To ko's shuhrat uchun yangrarki, bil, uyatda nam urdi.

Ne rohat deb damidan pirni kiprik bog'layin, yo Rab,
U devor go'shasi besoyadir, qiyshaydi — xam urdi.

Nadomatdan, Bedil, mujgonlaringdan o'qni yog'dirgil,
Etagingdan tutay deb istaganlar qo'lni ham urdi.



* * *

Amal nayrangi bir guli baqo bo'ldi,
Bahor umidlari chin muddao bo'ldi.

Emas bizga e'tibor mahrami u kas,
Oinamiz xayoli beriyo bo'ldi.

Hama joyda hayrat navo yondiradir,
Oinamiz va aksi bir navo bo'ldi.

Shodman, chunki mening shahid g'ariblardan
Zaxmning kulgani-ku, xunbaho bo'ldi.

Oyog'ing ostiga shundoq to'kkanim qon, —
Hayratlardan o'zi poymol xino bo'ldi.

U rangni men oshkoro izlagan edim,
G'unchani pardadek to'sgan hayo bo'ldi.

Bo'lmadi isboti tahqiqning dilim ham,
Oina o'z aksi bilan oshno bo'ldi.

Bo'lib jilvang mahrami gar yurolmadim,
Nigohing qultumi zaifnamo bo'ldi.

Faryod, bizning bismillomiz fayzi ila
Mavjdagi bor intilish noraso bo'ldi.

Ashkning gul sochishida qon isi mavjud,
Xoki bu tasbihimning Karbalo bo'ldi.

Bu havas sharhining har harfida bordur,
Nimaki menda yo'q, daxli bajo bo'ldi.

Dunyo murodining boshidan, ey Bedil,
Kishi topginki, degil: beaso bo'ldi.

* * *

Agarki dil mahvi muddao aylar,
Maqsudimizni-chi, dil davo aylar.

Dard tama'si yetsa maqsadlikka to,
Humolikka har chivin da'vo aylar.

Zulfi asrorim uning mahv etgani
Gul tomiri domi muddao aylar.

Gar vido etgum desa hirsu havas,
Gavharin dil tuguni ado aylar.

Vahm zanjirin kuzatsa gar havas,
Hama sahroyu tog'ni havo aylar.

Halokdir sarv misrasining rangi ham,
O'z qaddini ohim gar raso aylar.

Kasalmand ohimiz ehromi bugun
Havomiz gardini aso aylar.

Agar vosvos solar bo'lsa tugunin,
Osuda dil domlikni hatto, aylar.

Bedilimiz kamoli barq urar gar,
Oy gardishin yulduzga ato aylar.



RUBOIYLAR

1

Afv et xalqdan kelsa yaxshi-yu yomon,
Adovatdan qochib, rohat qil, inson!
Kibru hasad bermas kishiga orom,
Odamni mensimay quvildi shayton.

2

Yaxshilik, yomonlik mo'lu ko'l bunda,
Qilmishing holidan ogoh bo'l bunda.
Qo'ling olur ulkim, qo'lini olding,
Barchaning foydasi qo'lma-qo'l bunda.

3

Yuz shukr tilmadi haq siynamizni,
Oshkor etmay shubha — dil kinamizni.
Borliqdan uyalib suv bo'lmaguncha
Namoyon etmadi oina bizni.

4

Soch oqargach qo'ydim dilim g'ish-g'ishin,
Yerga otdim havo-havas tashvishin.
Sham ravnaq topmagay otganida tong,
Pilik tortar bunda alanga uchin.

5

O'z shuuringdan bo'l begona, Bedil,
Jaholat sozin chal, devona Bedil,
Dud ila g'ubordir bu dunyo bari,
Ko'z yum, sabil qolsin bu xona, Bedil.

6

Mansab, hasham emas, azobdir bunda,
Ayt, nima soflikka hisobdir bunda?
Eshak, ho'kiz tagin tozalasinar,
Mansabdan farroshlik savobdir bunda.

7

Oina ko'rganda o'zin beg'ubor,
Shodlikdan ming rangda bo'lur jilvakor.
Inson mijozida gul ochdi bilim,
Gullasin deb sahro bag'rida bahor.

8

Havas tarkin etmoq ko'p mahol bunda,
Erkinlik faqat bir ehtimol bunda.
Nimaga boqmayin dil bo'lur asir,
Ko'ngil uzmoq esa, bo'sh xayol bunda.

9

So'zlaringda bo'lsa yumshoqlik bo'yoq,
Yov ham qilur do'stlik ko'zgusin porloq,
Qo'pol gapdan fitna qo'pgan chog'ida,
Bo'yin tomiringdur bu jangda tayoq.

10

Bu aqlsizlarki, mastu beimon,
Sezgisiz, qattiq jon, xarsang toshsimon.
Chig'anoq quruqlik va manmanlikdan
Na mag'zu na po'st bor, quruq ustuxon.

11

Bedil, o'zni qancha sinab ko'rmadim,
Lek kamol da'vosi damin urmadim,
Yuz shukrki odob iqboli kulib,
Hech kimdan ortiqman deya yurmadim.

36

12

Bedil, hamma vaqt ham iztirob bunda,
Tinchlik — xayolu tush yo sarob bunda.
Harakatsiz bo'lmas hatto chang paydo,
Ildiz suvda, tuproq bir niqob bunda.

13

Ey aql javhari, bo'l dunyo siriga hamdam,
Makrparvoz zuhdga sen rindona bergil barham.
Olam soqolu salla masxarabozligidir,
Bu xijolatdan qutul, ko'nglingni uz, ey odam.

14

Bu bir dengiz, ishi bizlarni bo'g'moq,
Tig'u shamshiringga ishonma har choq.
Har to'lqin intiqom kamoni bunda,
Undagi har baliq o'q to'la sadoq.

15

Mantiqsiz afsona tutmish olamni,
Fahm etu o'ylama hech ko'pu kamni.
La'nat tavqin ilib shayton bo'yniga,
Negadir jannatdan quvmish Odamni.

16

Zuhur oinasi jilo topgandan beri faqat
Har maxluq bir-biriga intilar, bo'lar ulfat.
Hech kim nazar tashlamas o'zining ahvoliga,
Bulbul bo'ldi guldand mast, gulga havolash odat.

17

Tuban tabiatingdan chiq, ey bedor dil,
Lofning bezak pardasin aylama manzil.
Baxmal to'shak na hojat kelmasa uyqu,
Tun matosin to'quvchi korgohni tark qil.

37

Kim boylik fikriga asiru betob,
Tomchi may hididan xo'p mastu xarob.
Bedil, mol jamg'arimoq zahmatin chekma,
Dur terilgan bilan ip bo'lmas serob.

Har narsada ong-la asosu nisbat,
So'ngra fahm et nadur ma'niyu surat.
Odam ho'kiz emish, baliqqa mingan,
Baliq havodamish... Qani haqiqat?!

Bu xarobazorda istasang rohat,
Do'stga qo'shilib top dilga halovat.
Toki bir-biridan kipriklar judo
Uyqusiz ko'zlarda iltirob, zahmat.

Besh kunlik umring bu notinch olamdan —
Tinch o'tar sen o'zing qilgan malhamdan.
Mazhabu millatdan izlagil odob,
Yaxshi xulq izlagil har ilmu fandan.

Kiprikdan qon to'kib, lolazor topding,
Bulutdek yosh to'kib, chin bahor topding,
Dardsiz ko'ngil ochmoq maholdir, mahol,
Oyoq yarasida tikan — xor topding.

Bu eshak miyalar shodonlik sozin —
Tushunmay, ko'rsatar shohona nozin.
Nafrat nog'orasi kar qilmaguncha,
Fahm etmog'i mushkul tarab ovozin.

Qarilikda xoli bir go'sha top dilga, Bedil,
Daryo emdi loyqadi, qani chiq topib sohil.
Mana oppoq sochlarda kafan in'ikosi bor.
Yo'lda ko'zing yummasdan o'z manziling topa bil.

Olam — xarob zimiston, bu zulmatda har odam
G'ururi shu'lasida kuyadi misoli sham.
Besh kundan so'ng tal'ati safo nurin socholmas,
Tundagi yiltiroq qurt bundaylarning bari ham.

Ey, inson dil kabobi taftiga yopguvchi non,
Suv qilmasmi bu zulming xijolati shul zamon.
Bir yalam asal sening og'zingga tekkunicha,
Yuzlab xonalar vayron, halokatda minglab jon.

Goh suv g'amidan, goh bir donadan de,
Gohida aysh ila taronadan de.
O'lguncha shu gapdan qutulolmaysan,
Uyqu olguncha shu afsonadan de.

Ey xoja, hashaming zavoli yaqin,
Shu'lang asarining paymoli yaqin.
Qanchaga yetardi bir shamdek ziyong,
Ey, yiltiroq qurt, tong jamoli yaqin.

Yer tinmay tarqatar g'ubori ibrat,
Umr hangomasi kulfatdir, kulfat,
Orom talab etmoq bunda behuda,
Ohular ortida quyug chang qat-qat.

30

Dilning oinasi bor, boqmayin o'tdi,
Ko'z o'ngida bahor boqmayin o'tdi.
Bu tushunib bo'lmas dasht g'uboridan
Ko'plar o'zlari ham ko'rmayin ketdi.

31

Har ko'ngilda bordir umr taloshi,
Ko'ngildan ishorat tomchi ko'z yoshi.
Ko'klamda ildizsiz o'smas bir dona,
Bil, yaraning ham bor ildizi — boshi.

32

Mol-dunyo tashvishiga to'liq bu cho'l — olamdir,
Bu tashvishlardan ozod — shod yashagan odamdir.
Ko'ngilga tugun solmay o'tmas hech bir ma'raka,
Etikning torligidan oyoq qadoq, ko'z namdir.

33

Barcha istagingni bersa gar taqvo,
Quruq tok bargidan qaynardi sahbo.
Bo'sh xayoldan o'tsa kishi ro'zgori,
Qarg'a tuxumidan chiqardi anqo.

34

Shom kelgach, osmonga chiqdi alangam,
Dilim qon bo'ldi-yu, ko'zdan oqdi nam.
Erta qanday umid bilan yashaymiz,
Bugun o'tdi bizga bo'lgan va'da ham.

35

Mast-alastligimiz asosi karam,
Baland-pastligimiz asosi karam.
Borliq o'zgarishi derlar o'limni,
Yo'qlamasligimiz asosi karam.

40

36

Hayotni jon qiynog'i, qon yutmoq deb bil,
Hayot-mamot ayshidan qutulmoq mushkul.
Xalq ichra yashab undan ajralmoq xato,
Odamzod tirigida suhbatga qobil.

37

Himmat ahli ta'bidan Bedilda ham bor,
Saxiylik turli rangda bo'lur jilvakor.
Nodonlarga pandu muhtojga tanga,
Yoshga lutf, kattaga xizmati bisyor.

38

Bedil, tun qurtidek bilmasman tinim,
Ammo hech tarafga ochilmas yo'lim.
Ka'ba tavofidan kishilar xursand,
Bu soyadan ogoh emasdir hech kim.

39

Ey shayx, insof bersa vijdonga pardozi,
Nechun ko'zing to'yimas, qanoating oz.
Hech kim sendan kammam bu anjumanda,
Ko'zing mol-dunyoda, o'ttirish mumtoz.

40

Inson daftaridan varaq bu jahon,
Odam kabobining tutuni osmon.
Ikki jahon ungan urug'ni bilsak,
Kishi xayolidan yetishgan bir don.

41

Ketdik, bizdan qoldi g'amli iz boqiy,
Qoldi parpiramoq, u shaksiz boqiy,
Tanamiz tuproqda mahv o'lsa hamki,
Qattiq jondan qabr toshimiz boqiy.

41

42

Ashyo—nazarimiz olg'ivchi ko'zgu,
Nomlar zikri ertak tinglamoqdir bu.
Barchasi insondan qocirar uzoq,
Asli inson bo'lmoq o'zi bilmoq-ku.

43

Kishi tabiatin fosh etsaidrok,
Faqat yaxshilikka etar ihtirok.
Ilmdan bebahra qoladi a'bi
Badfe'lidan kechib bo'lmasa pok.

44

Bedil, qay mijozda bo'lmasa vafo,
Visol topganda ham topilmas hayo,
Qaydakim manzurdir d'istlik huquqi,
Jon nisor et, o'zga shen yo'q aslo.

45

Dili hasad to'la, ichi qoralalar
Doim tuhmat ila pokni qoralalar,
Ship burchiga oppoq paxta ilib ko'r,
Shamdondan barcha ishingunga o'ralar.

46

Bedil, yetmoqdadir so'giga safar,
Parvozga bemajol emdilolu par.
Qadamim hisoblab bora ko'z yoshim,
Har tomchimdan shamg tong yaqinlashar.

47

Parokandalikdir dunyog asbob,
Oromga hamsaboq bo'lmişdir simob.
Shu daryo mavjidan parshondirmiz,
Bunda xotirjamlik—gavhari noyob.

42

48

Mashhurliging nadur? Mastlik kulfati,
Vayronlik ne? Baland-pastlik illati.
Dilingni kuydirgan noyob orzular —
Aql bilan boqsang, hayot rag'batlari.

49

«Sen, mendan tashqari,—desa,—haqiqat»,
Bu so'zga ishonma, bari jaholat.
Xoh yerda qanot qoq, xoh osmonda uch,
Anqoni topursan ertakda faqat.

50

Bu dunyoda ko'pdan-ko'pdir jaholat,
Kim aqlu ilm desa, chekar nadomat.
Har tomonda faqat ayiqlar raqsi,
Ustara ber, olam jun bosgan g'oyat.

51

Bu dunyoda har dam yangilik havas,
Eskirib chiqadi har yangi nafas.
Shu suhbatdan qiziq dunyo bozori,
Aql qulog'in tut, olam gapdir, bas.

52

Ishrat tuzog'idir shisha kasofat,
Qul-quli yetkazar xabari ishrat,
Maxmurlik yulduzi har bir tomchisi,
Har mavji piyola manglayida xat.

53

Kuyuk dil tuguni ishqimga tumor,
O'rab dedim: «Buni yoringga yubor».
Shavqidan g'unchadek ochilib ketdi,
Shodlikdan qiniga sig'madi takror.

43

54

To'liqinmiz menu sen hayot bahrida,
Havas qaynab yotar uning nahrida.
Ko'pikdek fikr etsak, suv va havodan—
O'zga na don bor, na somon, qa'rida.

55

Betamiz bo'ladi dardi yo'q odam,
Undayga o'limdan o'zga ta'sir kam.
Soch va tirnoqlarga qarab ibrat ol:
Qon yo'q joyda yo'qdir his ham, tuyg'u ham.

56

Qay dilga tushmasa ishqdan bir qaynov
Umri kuyib o'tar, jabrga garov.
Ko'zadan ibrat ol, suvga chidolmas,
Avval kuydirmasa uni to olov.

57

Uzluksiz shodlik ham keltiradi g'am,
Haddidan ortiq bazm—misoli motam.
Har narsa me'yordan oshmasa yaxshi,
Boshdan oshsa o'tdan battarroq suv ham.

58

To charx bisotida sobitu sayyor,
Gapning markazida xomushlik darkor.
Urug'siz hech narsa ildiz otmaydi,
Ya'ni nuqtasiz sayr etmaydi pargor.

59

Zeru zabar qilmoq, falak nomasi,
Boy berilar oxir yer xazonasi.
Jisming ziynatiga bo'lma ko'p banda,
Uni yechib ot, ul g'aflat jomasi.

44

60

U dunyo deganing u dunyo emas,
Haq jamoli unda huvaydo emas.
Jannat ta'rifidan chiqar xulosa,
Qayda zaru gavhar—bu dunyodir, bas.

61

Bir olamdir kuyim sehru ohangi,
Tobora ochilur yangi va yangi.
Kalomim sayrida g'aflatda qolma,
Bahorman, yangi har nafasim rangi.

62

Zohid derki, «taqvo manbai dindir»,
Shayx ko'zgu tutib der «Sulukdan¹ qidir».
Bu johillarga zid bizning devona
Yalang'och bo'lib der: «Chin mardlik budir».

63

Kimki past-balandga qaragay hushyor,
Iblis mal'unligin tushunar bisyor.
Kim qibla bilmasa hazrat insonni
O'sha la'natlanib bo'lur sharmisor.

64

Sen rad etgan kichik bo'lak bilan ham
Hisoblashmay bo'lmas biriksa boham.
Bir tutam junni yel eltadi oson,
Birlashsa bo'ladi namat yo gilam.

65

Faryodki, hech kim yo'q biz bilan bul kun,
Xurramlikdan yo'qdir hatto bir uchqun.
Doim birga bo'lgan muvofiq do'stlar,
Borsa kelmas joyga ketdilar butun.

¹ Suluk — so'fiylar jamoasi.

45

Hayotdan olmasa ibrat u ko'z ko'r,
Asalda bo'lmasa shirinlik u sho'r.
O'zgarib turmagan libos kafandir,
O'zgarish bilmagan xona — qaro go'r.

O'zboshimchalikdan xurram bu dunyo
Erksiz aylanmoqqa bo'lmish muftalo.
Iso yo Mahdiyning qaytib kelmog'i
Tajribadan uzoq, quruq bir da'vo.

Bedil, quruq vaq-vaq bizga shon emas.
Amir, sulton madhi bizga jon emas.
So'zlarim tinglab ko'r, eng yaxshi onim
Do'stlar xizmatidan o'zga on emas.

Himmat o'lchovimas faqat pul-dirham,
Pul sochmoq har kimda bordir ko'pu kam.
Mumsikdan hech kishi bahra olmagan,
Hasrat-la jon bersa shu ham zo'r karam.

Toki ishq qissasi takrorga qobil.
Bu mato bozorin doim qiziq bil.
Majnun doim sochar boshiga tuproq,
Farhodning teshasi toshda muttasil.

Hayo tuxmin qo'ldan bersa gar odam,
G'ayrat binosining qaddi bo'lur xam.
Soqoldan lof ura ishonma unga,
Nomus qo'ldan ketgach, qolmas mardlik ham.

Bedil, befahmlik o'smish naqadar,
Ahmoqlik palosi yoyilmish magar.
Oshno-begonalar butun bir umr
Faqat «tarix» yo «saj» talab etishar.

Bu bazm telbalik, yo'q bunda idrok,
Bunda bilim sozi qilmas ishtirok.
«Men» yo «Biz»lariga tushunmoq bo'lib,
Qancha quloq osma, u bangu taryok.

Nodonlik ovining o'ljasi hasrat,
Nodonlik bahorin yomg'iri kulfat.
Soch yulib dodlamoq bilimsizlikdir,
Ogohlik ko'zgusi emas nadomat.

Ruxsoring chaqmog'i niqobga tushdi,
Ko'zlaring shu'lasi sharobga tushdi.
Zulfing qo'ng'irog'i yuzing to'sganda,
Go'yoki soyasi oftobga tushdi.

Bizlarga hayotning hosili — havas,
Semurg' ko'rinadi har pashsha — magas.
Boriga qanoat qilmay na chora,
Tekin havo bizga anjomi nafas.

Borlikda kulfatdan alomat bordir,
Ya'ni unda sozi nadomat bordir.
Haq-nohaq, soz-nosoz behishtu do'zax,
O'zing kim? Bilolsang, qiyomat bordir.

Dev-jin nayrangiga to'lmishdir jahon,
His va harakat-la qildik imtihon:
Qo'rquvdan tug'ilmish ajina, pari,
Vahimadan tarkib topmishdir inson.

Tahqiq yo'li juda nozik, sersaboq,
Tushunish qiyindir yaqin bo'lgan choq.
Tuproq ne? Bilmasang kechirish mumkin,
Xayol shamin tubi qorong'udir, boq.

O'z ma'no qissasin ochgan ul dona,
Ildiz yorib otdi yer ichra shona.
Lek tahqiqi biror joyga yetmadi,
Yetilsa ham o'zdan topmay nishona.

Qarilik harchandki yo'qlik ersa ham,
Hosili bo'ladi oq mo'y bir tutam.
Olov yonib o'tmas kul qoldirmayin,
Ko'piksiz bo'lurmi qaynab turgan g'am.

Ey, Bedil, maqsading ovlamoq ko'ngil,
Ammo dil oromi bo'lmaydi hosil.
Ko'zgu timsoliga tushganda yo'li,
Odam yuz o'girar, bu emas manzil.

Ko'rsatib hunaru bilim shararin,
Kimlar ko'z-ko'z qilar hashamatlarin.
Oxiri bir yonib so'ngan cho'g' kabi
Bosh tushar yostiqqa to'zg'itib parin.

Yo'qdan paydo bo'lmish maktabi olam,
Har narsa qo'zg'aydi hayrat damo-dam.
Qalam tilida-ku kotib dil rozi,
Zero barchasidan ogohdir odam.

Mirkam ikki dunyo ahli-la maosh,
Va hisobkim to'g'ri kelmay, ko'zda yosh.
Bugun shunday, erta bo'lsa imkonim
«Bedil!» deb, tuproqdan ko'targayman bosh.

Ey inson, qo'lingda havas to'la jom,
Vasvasadan tinmas, dil besaranjom.
Sen o'sha-o'shasan beshigingda ham
Tebratib turmasa, topmasding orom.

Bo'sh kalla o'ziga qo'yadi bino,
Yuz xil puch xayollar unga jo-bajo.
Dardsiz dil havasdan topolmas chora,
Shisha bo'shab qolsa bodasi havo.

Boyligin orttirmoq bo'lib ohu voh —
Qilgan boy, bilsaydi tinchlik yo'lin, oh.
Sham shodligi boshda qalpog'idandir,
Bilmaski jonining yovi shu kuloh.

Poyonsiz bilim-ku senda mujassam,
Anqodan buyukroq oddiy pashshang ham.
Jahon tarkiboti birlikka ega,
Bu birlik shubhasiz, nafasingda jam.

90

Xalqda harakatdan o'zga narsa bormi? Yo'q.
Dunyodan qo'l yuvsan, foyda unga yormi? Yo'q.
Xayol oynasin yuz ming jilvasi bordir,
Ulardan bittasi unga vafodormi? Yo'q.

91

Bedil, ishoratning ko'p tomoni bor,
Unda juda ko'pdir eshigu devor.
Xoh «u» degil, xoh «sen», yoki «biz» deb yoz,
Haq ma'nosin ochar iborang bisyor.

92

Sendan yuz o'girmoq, qaydadir, jonon,
Sendan ko'z uzmoqlik qayda biror on.
«Meni yod etmaysan», dedingmi? Hayhot,
Hayotim sen bilan, unutay qachon?

93

Boylik orttirmoqqa hirs qilur g'avg'o,
O'z kuch-quvvatiga ega har siymo.
Shayx bo'lur saltanat kuchi bo'lmasa,
Kuch yetmagan joyda zolimlik paydo.

94

Nimaga ehtiyoj ta'bda bor ekan,
Gul ochsa, hamrohi bo'ladi tikan.
Non yemak quroli bo'lgan tishlaring
Tushar oson, chiqar qiyinlik bilan.

95

Ilm ko'z-ko'z qilmaslik kamoli o'zga,
Lab ochmay so'zlamoq maqoli o'zga.
Yasanchoqlik, kibru noz olamida
Oina tutmaslik jamoli o'zga.

50

96

Bedil, har bir ochiq ko'zga mo'y yo'ldosh,
To'g'ri peshonada bordir egri qosh.
To'lin oyga boqsang hilolga moyil,
Tizzasiz emasdir sen ko'rgan har bosh.

97

Bul kunda azizlar davlat konidan
Saroy qurar, mag'rur davlat shonidan,
Ko'zing ochib boqsang peshonasiga,
Ajinlari timsol baxt narvonidan.

98

Har ildiz ortida shan chamanzordir,
Har qanotga yuksak uchmoqlik yordir.
Vahmdan yangi oy misoli ozma,
Eshiklar kalidi cho'ntakda bordir.

99

Yaxshilik qilsang o'z diling baxtga yor,
Yomonlik ko'rguzsang ko'ngilda g'ubor.
Hali qiyomat kun kelgani yo'q-ku,
Yaxshilik qilaver, hisob ne darkor.

100

Tokay so'roqlaysan, ul yor qani deb,
Yuzlari niqobli dildor qani deb.
Kipriklar to'smasa ko'zing o'ngini,
Oftob xonasida devor qani deb.

101

Bedil, aziz bo'lsa osudalik dam,
O'zgaga yomonlik o'zingga sitam.
Toptalgan dil ko'rding, har yon sayr etib
Oyoq osting qadoq, asta bos qadam.

51

102

Yaxshi-yomon degan so'zlardan, qarang,
Oxir haqiqat ham bo'lmishdir berang.
Qulog'ing ding qilib hayrat sirin top,
Anqo xalq og'zida par to'kib, garang.

103

Hech telbalik kelmadi devonaga mos,
Hech bir aql tadbiri farzonaga mos.
Ko'zlar tuproqqa botdi umr g'uboridan,
Biror kishi kelmadi bu xonaga mos.

104

G'uborim yo'qlikka yaqin bo'lsa ham,
Juda tordir bilim va aql ko'cham,
Soch oqim nur berdi pilikka, ammo
Xiradir yo'limni yoritguvchi sham.

105

Shisha qul-qulida ibrat muhayyo,
Gul xandasida bor noladan imo.
Bu chamanda paydo har tus va har rang
Qadam andozasi, oyoqdan sado.

106

Baxmalu mo'ynalar istasang, Bedil,
Qanoat soyasin orombaxsh bilgil.
Tubanlar oldida to'kma obro'ying,
Hirs bo'lsa tashnalik, hayoni suv bil.

107

Davrim odamlarin nafasleri sard¹,
Qo'pollikda g'ayrat ko'rsatar bedard.
Bu pastlar to'dasin e'tiqodidan
Bildimki, tubanlik ko'rsatar nomard.

¹Sard — sovuq.

108

Qayda haqu nohaq ajratilmaydi,
Kishilar ta'bida soflik bo'lmaydi.
Bir pastga pastligin aysalar dedi:
«Har kirnga bu davlat nasib qilmaydi».

109

Afsus, ayshu ishrat zamonam o'tdi,
Bosib changu g'urbat, g'am-alam o'tdi.
Yo'l-yo'l oq sochimdan ravshan bo'ldiki,
Yo'q unarim yuz yo'ldan yeb barham, o'tdi.

110

Qilmish-qidirmishdan kimki boxabar,
Zaiflarga zulm qilmas, alhazar.
Keskir bir boltaga aylanur shisha,
Birdan o'tda erib ketsa u magar.

111

Bedil, do'st-dushmanni qilsang imtihon,
Ta'bi oimasin ayla namoyon.
Berahmlik bo'lur zolim xilvatda,
Yalang'och tig'dir po'st tashlagan ilon.

112

Qarilik g'orati ayladi shiddat,
Tanda tob qolmadi, ko'ngilda toqat.
Bizga hasrat bo'ldi do'stlar diydori,
Bizni ko'rmaq esa do'stlarga ibrat.

113

Har bino xarobi o'z obodligidir,
Dil navmedligi g'amdan ozodligidir.
Sening qo'ling ichra naqsh solgan cho'g'lar,
O'zga oy shu'lasin bunyodligidir.

114

So'zdir aqyonuslar bekaronasi¹,
So'zdir ma'no degan gavhar xonasi.
Oliy nazm mehnatu chidam istaydi,
So'zning ham bor baland, past pog'onasi.

115

Faqirlikda po'sting yetsa suyakka,
Sir boy berma do'stu dushman yurakka.
Ehtiyojning bilsin faqat shul kishi,
Hojating chiqara olsa u yakka.

116

Ey g'ofil zohid, hech zikringda yo'q haq,
So'zlaring, qo'shig'ing ma'nosiz mutlaq.
Bema'ni zikringga mos tushsa tasbeh,
«Hay-hay» deganing ham ma'nosi taq-taq.

117

Borlig'imdan asar—nafasi sardim,
Ko'ray desang, ko'zgu dildagi dardim.
Meni so'rog'lasang yodinga tashna,
Umrimdan qolgani bir hovuch gardim.

118

Shahidlaring xoki ko'z yoshidan nam,
Isiriq dudida bul sadodir jam:
«Ishq da'vosi oson emas, ey g'ofil,
Hanuz kuymoqdamiz o'lgan bo'lsak ham».

119

Martabaning bo'lsa jonga orosi,
Har tabiatning bor ibrat ziyosi.
Hushyor bo'l, ochko'zlar tabiatida
Bordir ko'z ilg'amas Shaddod binosi.

¹ Bekaronasi — cheksiz-chegarasiz.

120

Bu dunyoda qanday naqshki jilvagar,
Tasavvur gulzori, behishti nazar.
O'zimizdan barcha yaxshi-yomonlik,
Ko'zguda ko'rganing o'zingdan axtar.

121

Kim topolsa muhtoj bo'lmaslik yo'lin,
Fuqaro-yu shohga cho'zmagay qo'lin.
Har fursat g'animat ekanin bilar
Kimki qanoatga to'ldirsa ko'nglin.

122

Hirs ahli vasvasadan tiyolsa qadam,
Ochko'zlik shu ondayoq topadi barham.
Ya'ni tama' qo'lin tortgani zamon,
Iltimosdan yumilar uning labi ham.

123

O'z vasfida olim guftori qiziq,
O'z ishqida majnun ash'ori qiziq.
Bu dashtning qumlari to'zg'ib bitguncha,
Lofu hangomaning bozori qiziq.

124

Tanho bekaslikni ko'zlagan odam
Jamlagan narsasi faqat dardu g'am.
Bizning xonamizda sening yuzingsiz
Tutab kuyar, ammo nur sochmagay sham.

125

Bu bog'da o'smishdir ming tur gul, tikan,
Ming hayfki tagiga yeta olmaysan.
Din, dunyo ishidan eshitganlaring
Yaxshi-yomonliging ta'rifi ekan.

126

Qisqarmoqlik bo'lgach hayot o'smog'i,
Na hojat noz ila bezak bermog'i.
Bu bazmda shamdek o'ltirsa hamki,
Turmoqqa hassadir boshdan-oyog'i.

127

Yana nigohimiz misoli chaman,
Yor vasli yuz ko'klam—navro'zcha ekan,
Bul kuni kulbamiz quyosh xonasi,
Ko'zimizdan borliq chirog'i ravshan.

128

Istak qo'li doim talabda bebok,
Uni qisqartmoqqa qistaydi idrok.
Har gal yengdan qo'ling chiqargan chog'ing,
Har bitta barmog'ing etar yoqang chok.

129

Faqir xonangda barq urmasa himmat,
Har qayda hamrohing xorlik, haqorat.
Shohga yaqinlikda iftixoring zo'r,
O'z hazratlariga yo'q-ku hech hurmat.

130

Osmon bo'lsang yerga egilmoq yaxshi,
Tuproq bo'lsang ko'kka intilmoq yaxshi.
Notavon, bechora bo'lmag'il zinhor,
G'ayratda, himmatda bo'l porloq, yaxshi.

131

Ramz gavharin pardasiz Bedil termas hech qachon,
Bahor chechaklariday yig'ib, etmish u pinhon.
Ra'no gulin ming rangda ocha olgan bo'lsa ham,
Tushunganlardan birin ayta olmadi hamon.

56

132

Fitrat afsungari ko'p g'ayrat etdi,
Xomlar ishonchiga nima naf yetdi?
Yuz shukrki Iso, Mahdiy qissasi
Imonining sustligin ko'tarib ketdi.

133

Qayda muruvvatdan suv ichsa odam,
Vafodan boshqasin mevasi alam.
Faqirlikni bilma notavonlik deb,
Lab qurib qolsa, til unga berar nam.

134

Ildiz uzsang, urug' xayoli vatan,
Ildiz paydo bo'lur yana urug'dan.
Yangilanish eski osoridandir,
Yangi ravnaqiga eskisi maskan.

135

Ko'k pargorida bosh-oyoq bajo—har ikkisi bir,
Shohlarning toji—hassoyi gado—har ikkisi bir,
Pastlik-balandlik farqin qilmog'ing bexabarlikdan,
Oyoqda xalxolmi¹, bo'yinda tavq yo—har ikkisi bir.

136

Kecha chamanim kuyi urdi boshimga,
Nargis kuyi ma'qul keldi qoshimga.
Zar og'iz ko'm-ko'k nay nimalar dermish:
Bilolmay ketibman kelmay hushimga.

137

Roz olamida har kim borar ilm yo'lidan,
Vazminligi guvohdir uning ilmi mo'lidan.
Suvdan chiqqan har ko'za bunga misol bo'ladi,
Hajmiga loyiq olar og'irlik suv qo'lidan.

¹Xalxol — raqqosa oyog'iga taqiladigan kumush yoki oltin halqa.

57

138

Yuz shevadir men yozgan ash'or,
Yozmadim uni men bir kunda, yakbor¹.
Tavrot emaski uning hammasi,
Tushsa osmondan bir yo'la tayyor.

139

Mardlar «u yo'q, bu yo'q» demaslar aslo,
Orzu ko'p g'amida qilishmas g'avg'o.
Mard bo'lsang xoli bo'l bo'sh fol boqishdan,
Folga ishonolmas mard aqli raso.

140

Ta'bingda bo'lsa gar shodlikdan asar,
Xulqing yaxshilashga yengingni shimar.
Sayqaltoshning o'zi tekis bo'lmasa,
Qitolmas oynani tekis, jilvagar.

141

Hurlik korxonasi asli bu dunyo,
Bunda past-balandni ajratmoq xato.
Bilsang agar boy kim, gado kim bunda,
Hech kimga beodob bo'lmaysan aslo.

142

Sakrab bo'lmas bo'lsa oyoqda tikan,
G'am ketmasa aysh ham yetishmas ekan.
Ta'b erkinligini istaydi olam,
Nodon oyog'ida mol-dunyo kishan.

143

Qay she'rd a yirtilsa pardayi unvon,
Maktub ramzi bo'lur yalang'och-uryon.
Xayolga ne kelsa yopiq qolmagay,
Sir bo'lmas, bo'lmasa dilingda nihon.

¹ Yakbor — birdaniga.

144

Ey mastlar, quvnoqlik sha'mi o'chmishdir,
Qaro kechada tong yoddan ko'chmishdir.
Qahva ichib, shodlik ketidan yig'lang,
Kayf motamida may qaro kechmishdir.

145

Goh Ka'bada qilding tavba-istig'for,
Gohi butxonada bo'lding otashkor.
Hech narsaga kuyding, o'zing ham hechsan,
La'natlansin bunday tasbehu zunnor.

146

Vafoli, mast-alast kishidek taqdir,
Yumshoq tabiatni ko'rsatib bir-bir,
Zohidlarga bog'lab zohid soqolni,
Rindlar piyolasin rindga bermishdir.

147

Ey vaf o axloqin asl javhari,
Jang emas, sulh bo'lsin aqling sarvari.
Dilingda birovga qo'zg'alsa nafrat,
Ranging o'chmay, o'gir yuzing, ket nari.

148

Xoja hirsin g'alayoni doimiy bir hol,
Xotirjamlik undan yiroq, tinchimas xayol.
Kimning agar hirs-havasga ko'zi to'ymaydi,
Uning gado kosasini to'ldirmoq mahol.

149

Bu hayot gulxanin dudi senu biz,
Kuymak, qovrilmoqdir ishimiz, esiz.
Osudalik gumon qilmangiz bunda,
Dilda olov, ammo sovuq ohimiz.

150

Shoh saroyidan obro' topmaydi odam,
Unda tubanliklarning hisobi yo'q ham.
Izzat desang qanoat burchagida bo'l,
Pastlarga tobelikka arzimas olam.

151

Pastda ko'k ekinzor, ustida osmon,
Har ko'kat bahori o'zgardir ayon.
— Nega ko'zing yumuq? — desam bug'doyga,
— Jim, ko'zim o'ngida, — dedi, — tegirmon.

152

Bu dasht qorong'idir, Bedil, sarbasar,
Har kim har yon ketdi, qaytmadi digar¹.
Men, sen ham ketamiz, o'zgalar kelur,
Ko'plar o'tdilaru, yana ko'p o'tar.

153

Do'stlar havas-la nafas oldilar bekor,
Ne mehnatu zahmatga bo'ldilar duchor.
Na yo'qlik bag'rin, na borliq osmonin
Topolmay bekor yashab, o'ldilar bekor.

154

Edik na dinga, na dunyoga muhtoj,
Na bugun, na erta — fardoga muhtoj.
Bahri mutlaq issiq mavj urdi shundan,
Bo'ldik o'zimizdek a'loga muhtoj.

155

Olma yod shaxmatdan, ey shoh, taxtga minmoq san'atim,
Bo'lma mag'rur sen ko'rib shaxmat sipohi savlatin.
Kimki muhtojlarga odob birla boqsa, shoh erur,
Bul o'yindan «shah» deganda ol hayiqmoq ibratin.

¹ Digar — boshqa, yana.

156

Ey taxtu baxt xayolidan tutgan limmo-lim qadah,
G'ururdan to'ldirma hech xunga betinim qadah.
Bunda kayf bermaydigan mayga faqat bo'l taslim,
Yerga peshona urib, ko'targil taslim qadah.

157

Bizdan na ishq, na havas qolajak,
Ohimiz to'lgan bu qafas qolajak.
Fikrimda abadlik, lek nafasim der:
«Umr karvonidan jaras¹ qolajak».

158

Zohid tabiati sovuq misli yax,
Uni isitolmas hattoki do'zax.
Shaklga kirmagan ona qornida,
Issiqda ham qotar tuxumdek, ablah.

159

Sabrimiz g'orati ul sho'xi mahtob,
Tanholikda bizni ayladi kabob.
Ko'z qorachig'imiz oyog'in naqshi,
Qadamin gardidan ko'zimiz oftob.

160

Bedil, ishga kishilar bo'lsalar yaqin,
Soyadek oyog'ingda bo'lur sarnigun².
Sening so'zlaringni fahm etolsalar,
O'zlari bo'larlar ma'no-yu mazmun.

161

Bu jahon iqboli hasham istaydi,
Na fazlu, na ta'lim, chidam istaydi.
Ho'kiz va eshakdan olingiz saboq,
Hatto ular shox ham, dum ham istaydi.

¹ Jaras — qo'ng'iroq ovozi; ² sarnigun — teskari.

162

Ko'plar gerdayib o'z holidan, o'ynar,
Mavj urgan ko'pik xayolidan o'ynar.
Hayajonsiz emas bahor gul gashti,
Tovus ham shodlanib bolidan¹, o'ynar.

163

Bu hayot maydonida bardoshli inson o'zga,
Havas otiga minib, qiluvchi javlon o'zga.
Tekshirib bil ma'nisin, bo'lgil taqliddan uzoq,
Soqolliklar o'zga-yu odami mardon o'zga.

164

Bu dashtda intilish karvonlari bor,
Yo'lovchi shiddatin nishonlari bor.
Kamolga bir yo'la yetib bo'lmaydi,
To'lin oy yo'lida narvonlari bor.

165

Nechog'lik bo'lmasin inson kamoli,
Ko'kda Iso, yerda Ilyos misoli.
Xayol halqasidan hech kim chiqolmas,
Bari sirlangan tos ichra chumoli.

166

Ko'piksiz, mavjsiz bu hayot ummoni,
Har tomonda qaynar ko'ngil to'foni,
Falakning avjidan yer qa'rigacha
Kuydirib qaynaydi insonning qoni.

167

Ming qatla to'liqinni mahv etar to'fon,
To bo'lguncha dona, bir dur namoyon.
Odam umri bo'yi havas ketida,
Toki odob olib bo'lguncha inson.

¹ Bolidan — qanotidan.

168

To fazlu hunar-la bezanmay inson,
Biron baxt eshigi ochilmish qachon?
Javhar bilan temir bo'ladi po'lat,
Ilmsiz o'z jinsidan chiqmog'i gumon.

169

Do'stlar gar meni sendan judo ko'rishar,
Lekin u bexabarlar xato ko'rishar.
Soya uzoq tushsa ham o'z egasidan,
Oyog'in ostida jo-bajo ko'rishar.

170

Molu hol yo'lingga ekilgan tikan,
Undan qutulib tur osonlik bilan.
Etakka yopishib yig'ilib qolsa,
Terib tashlamoqlik ko'p zahmat ekan.

171

Umrim olib ketgach yo'qlik karvoni,
Omon qo'ydi dunyo janjal-taloni.
Sham kabi qidirsam tinchlik kovagin
Qadamim tagida ekan nishoni.

172

Yo'lbars ila sherni yenggan mard kishi,
Bo'yin egib tursa, bu hayo ishi.
Tayoq urmoq bo'lsa agarda mardlik,
O'tardi savag'ich cho'pin savashi.

173

Do'stlik tushunchadan qolmadi asar,
Vafodan nishon yo'q, riyo jo'sh urar.
To yaxshilik haqqin qilmay muqarrar,
Ifodaga qashshoq har she'riy asar.

174

Bu chamanga kimning tushibdi yo'li,
Bordir bu bahordan orzular mo'li.
Ma'yus dil bilan ham shodmen yodingdan,
Siniq ko'zguning ham bor o'ngu so'li.

175

Qaysi boshda boylik g'ururi ayon,
Fazlu kamol zavqi kamdir begumon.
Bunday aqlsizlar ma'ni anglamas,
Zar chiziqni ko'rar varaqlab «Qur'on».

176

Shoshmoq, inkor etmoq xudnamoga xos.
To'g'rilik, sog'lomlik benidoga xos.
Jahon talab etgan olam xabari,
Paxta tiqqan quloq bedavoga xos.

177

Qarilik gullaydi misoli bahor,
Bezakka boydir bu fasli intizor.
Ketmak payida bo'l soqol oqargach,
Bu paxta tagida uchquni ham bor.

178

Qabri toshdan bo'lur boy bo'lsa nobud,
Mozorin qilishar siymu zarga but.
Faqirlikda o'lsa donish egasi,
Oddiy bir taxtadan yasashar tobut.

179

Karam dasturxonni yoyilgan nafas,
Baxillik dilingdan yiroq bo'lsa bas.
Ta'bingda bor esa insof javhari,
Dimog'ingda bo'lsin hasadmas, havas.

64

180

Har ishda o'ziga yarasha ko'shish —
Bo'lsa poyoniga yetadi har ish.
G'urur haddan oshsa his-tuyg'u qolmas,
Tirnoq o'ssa qiyin tugunni yechish.

181

Bu dardisarlarki, g'arazga bobo,
Jinnilik javharin qilishar ifsho.
Badhazm luqmadek marazdir bular,
Qochib qutulmasang, topmassan davo.

182

Mumsik boy oldida o'lim naqd bo'ldi,
Zaridan bir tabib qisimi to'ldi.
Tillosi sarf bo'lib ketganidan boy
Sihat topgan choqda qaytadan o'ldi.

183

Qayda qilcha zidlik ko'rsa gar mardum,
Shunda bo'lur olam do'stlik ipi gum.
Bir tomchi sirkadan achiydi bari,
Agarda toza sut bo'lsa ham yuz xum.

184

Bu dunyo zahmatga arzimas bir ish,
U dunyo — asossiz xayolga yumush.
Bu ikki ma'nosiz so'z tahririga
Siyoh bo'lmasmikin qorong'i bir tush.

185

Qanchalar Simoku¹ samak² bo'ladi,
Yo ul yoqda mulki malak bo'ladi.
Har qachon o'zingga nazar tashlasang,
Joying doim zeri falak bo'ladi.

¹ S i m o k u — Asad burjidagi yulduzning nomi; ² s a m a k — baliq.

186

Zohid yeru suvga bo'lmoqchi hokim,
Gah tahorat nozi, gohi tabassum.
Sallasin pechi-yu soqoldan o'zga
Birar narsasi yo'q, bu eshakka dum.

187

Deydilar yangi soz va shodlik boham,
Tun ketsa, tong otsa, kelsa safid dam,
Bizga yiroq bunday nozik xayolot,
Sen kelsang, shu zamon biz uchun bayram.

188

Har neki tingladim—sening bayoning,
Har nimaki ko'rdim—sening nishoning.
Qayda boshim urib, qildim sajdalar,
Ko'zim ochib ko'rsam, sening ostoning.

189

Tokay visolingdan o'zga bo'lur shod,
Raqib vayronasi sen birla obod.
Mushtoqing jigari «oh»dan qog'ozdek
Yonmasin, yo'l qo'yma, elitmasin bod.

190

Kechagi shoh dedi: «qirilsin soqol»,
Bunisi «qirmang» deb amr etdi darhol.
Zohiran nazar qil bular ishiga,
Yo bir tuk ko'paydi, yo topdi zavol.

191

Qasd ayla, hech kimni ranjitma fikran.
Kudurat urug'i bo'lmasin xirman.
Agar dushmaningni do'st qilolmasang,
Shunday qilki, do'sting bo'lmasin dushman.

192

Ish ko'ngildagidek, ey voh, bo'lmadi,
Dil qon bo'ldi, baxtdan ogoh bo'lmadi.
Tasbehdan cho'zilib yotar umr ishi,
Oyoq qabardi, yo'l ko'tah¹ bo'lmadi.

193

Qul bo'layin ul kishiga, bo'lmasa u gar nomard,
Sovutmasa hayo, odob hangomasin aylab sard².
O'zi xunob bo'lganda ham yopishmasa bировga,
O'zi gard-gard to'zganda ham yuqtirmasa dilga gard.

194

Har yurak tepishin bor o'z navosi,
Har boshning shu'lador bordir havosi.
Ne so'raysan nafas asirlaridan,
Har zanjir halqasin bor o'z sadosi.

195

Bu g'amgin nafasning ta'bi xo'p mavzun,
G'uncha to'la bahor bu dili purxun.
So'z parisin oson emas sehrlash,
Faqat kuygan nafas ko'rsatar afsun.

196

Kimki g'animat deb vatandan ko'char,
Boshqaga ham ko'ngil qo'yolmay o'tar.
Uchqun toshdan ajrab chiqqanidan so'ng,
Qancha ardoqlama, bari bir o'char.

197

Hez yonida mard ham nomard bo'ladi,
Behimmat, beg'ayrat, bedard bo'ladi.
Gar otash yuz yilcha shu'la sochsa ham,
Bir dam suvga botsa shul on o'ladi.

¹ Ko'tah — qisqa; ² sard — sovuq.

Bu do'stlar bir-biriga qulluq qilishar,
 Bir-biriga bosh egar ham bo'ysunishar.
 Bir nafas ajrasa bir-birlaridan —
 Kesilgan bo'g'indek xunuk kulishar.

199

Zabt etayin desang sen ilmu hunar,
 Insof, kamolni et o'zingga rahbar.
 Bedildek puxta she'r yozayin desang,
 Po'lat qalam bo'lsin, siyoh esa zar.

200

Yuz hayfki mullo shoshmoqqa moyil o'ldi,
 Olim bo'laman dedi-yu, johil o'ldi.
 Ya'ni bilim lofi orada qo'pgach,
 Ma'naviy ozuqa behosil o'ldi.

201

Qaydagi mavjuddir lutf ila karam,
 Ul kishi ta'biga iliqlikdir zam.
 Yaxshilik istamang sovuq kishidan:
 Muzlagan chechakning isi juda kam.

202

Xurramlikda qashshoq bizning bu kishvar,
 Rohati ham motam bilan barobar.
 Yangi chaqaloqqa ichirishar sut,
 Hayot havosida bor ekan zahar.

203

Go'zallar dunyoda qulf urgan bahor,
 Xoh xitoylik bo'lsin, chigil yo totor.
 Ammo farangining husnidan bildim:
 Bu do'zaxiyalarda o'zga jannat bor.

Bu biyobon ichra har tup chakalak,
 Majnunga ko'rinar Laylo uyidak.
 Ishq ahli qabriga ziyoratda bo'l,
 Besh kun oldin edi osmonu falak.

205

So'zing avji jununlikka tashlar kamand,
 Ko'p qizishib, kishilardan kulma harchand.
 Zinhor jim bo'l, siqim tuproq ko'kka uchsa,
 Chang bo'lsa ham chiqa olur juda baland.

206

Ko'z yoshim kipriklar besabot o'ynar,
 Ohim qoqib jigardan qo'sh qanot, o'ynar.
 Yoding bilan raqs tushadi dilim,
 Noming bilan tilim g'amga yot, o'ynar.

207

Qarilikdan hayot asosi barham,
 Bo'g'inlar qurqshadi, kiprik esa nam.
 Qosh uyulib tushdi ko'zlar ustiga,
 Eski uy peshtoqi bo'lganidek xam.

208

Shunday ramz borkim, dog' bor oyda ham,
 Bundan ibrat olur haqiqiy odam.
 Oyog'i ostida qora soya bor,
 Hatto u falakka bo'lsa hamki sham.

209

Tokay firibi changu nay g'amin yeysan,
 Yo ishvayi bahoru day¹ g'amin yeysan,
 Qomat xam bo'ldi-yu, ayshdan darak yo'q,
 Qadah to'nkarilgan, may g'amin yeysan.

¹ Day — qish.

210

Hirs yukini qachongacha ko'tarar inson,
Ehtiyojdan forig' bo'lsa, sof bo'lsa vijdon,
Jahdu jadal, himmat, karam ketmas edi hayf,
Hirs gardini bosib o'tsa, supursa oson.

211

Bu kurash olami tajribasida
Har narsani yechar himmat aslida.
Bunda inson jahdi qo'shilmas har on,
Qo'shilsa osmonni ko'r yer ostida.

212

Haqiqatni to'ssa shubha, afsona,
Ko'nglimiz band etar dayru butxona.
Haqiqatni sezgach chekinar ular,
Kunduzi kelarni shamga parvona?!

213

Javhari qudrat bor til-zaboningda,
Haqiqat, sadoqat bor bayoningda.
Ming hayfdir xatolar manbai bo'lsang,
Jabroil parvozi oshyoningda.

214

Kim uyqu, ovqatga bo'larkan banda,
Mardlikda sustkashu faqir, sharmanda.
Nafsin yengmoq uchun sabot kerakdir.
Qilich kesmas dasta bo'lmasa anda.

215

Tabiatningdan g'urur ko'tarsa gar bosh,
Sof ko'ngilda ham bo'lgay nadomat yo'ldosh.
G'urur ofatidan sog' qolmoq qiyin,
Avval o'zin kuydirar alanga avbosh.

70

216

Fitna qo'zg'atadi kina, adovat,
Oqillardan chiqsa battar qabohat.
Eng ravshan chiroqdan ko'tarilgan dud —
Boshqa hamma duddan qoradir albat.

217

Yuz tugun, yuz yechim bo'lmishdir boham,
Toki o'z rangiga kirguncha olam.
Diltang bo'lmang, ko'kda hilol misoli
Kaliti osig'liq har eshikning ham.

218

Bukun butun olam suxanvar bo'ldi,
She'riyat fahmi ham mushkultar bo'ldi.
She'riyat rivojdan qolsa ne ajab,
Shoirilar tovushidan quloq kar bo'ldi.

219

Fitratingdan judo bo'lmasin hayo,
Oyoq ostingga boq, bo'lma beparvo.
Bunda yalang'ochdir yaxshi-yu, yomon
Ko'zgu bo'lma, shuni istaydi ibo.

220

Qaysar ta'biga rang berolmay hayron,
Tiliga zo'r berar aqlsiz inson.
Yog'i tamom bo'lgan chiroq piligin
Ko'tarilib turgan singari har on.

221

Past kishiga yordam berma, arzimas,
Tarbiyaga loyiq emasdir nokas.
Faqat adovatga xizmat qilsa tig',
Qilma unga sayqal bermoqni havas.

71

222

Inson tanasini aylab imtihon,
Qaygakim qarama tugun namoyon.
Qazo shuncha bo'g'in-tugun solgankim,
O'lmay qutulmoqqa qolmabdi imkon.

223

Ranjimni ko'zlashar bir to'da bekor,
Umr bo'yi ranjda bu dili bemor.
Sendan yiroq deya bu oshiqi zor
Bedilga berishar tinimsiz ozor.

224

Falak gardanimizga ortgan yukni boq,
Himmatimiz ko'tarar, ammo toqat toq.
Sham shu'lasi boshidan tushar oyoqqa,
Ishi xoh nur sochmoqlik, xoh bo'lsin yonmoq.

225

Umrimga nadomat bo'ldi hamohang,
Yuz bilim, yuz junun menga ko'ndalang.
Umr bo'yi nolam yirtar nafasim,
Kim hayot libosin tikmish buncha tang.

226

Neki go'zallikka egadir jahon
Hinduston diyori bariga makon.
Qoracha jononlar bari marg'ubmas,
Lek Laylo vatani shaksiz Hinduston.

227

Istak dimog'iga bahs olmishdir yo'l,
Haqiqiy boylikdan, dedi, ogoh bo'l.
Qo'l qovushtirgandim talab sharmidan,
Har ikki dunyodan birdan yuvdim qo'l.

72

228

Xalqqa ibrat sozi sozlanmadi, oh,
Yaxshi-yu yomondan bo'lmadi ogoh.
Har joyda so'qirlar yig'ini ekan,
Surma bo'ldik, ravshan bo'lmadi nigoh.

229

Bu dunyoda ne-ne fitna surdilar,
Nafs uchun har qanday yo'lga yurdilar,
Odob nima bilmay bir-birin so'kib,
Mazhab binosiga asos qurdilar.

230

Qachon axloq sharmandalik keltirar yalang,
Unda hayo qofiyasin holi bo'lur tang.
Suv ham ko'rsa havoning sovuqligini,
Nafasini tortib ichga bo'lar muz-xarsang.

231

Yor keldi, afsun-la oldi hushimni,
Hayronlikdan bilmay qoldim ishimni.
Yorga har mo'yimning arzi bor edi,
Oyog'iga unsiz urdim boshimni.

232

Qachon dilim ilmu fanga yor emas edi,
Qing'ir-qiyshiq yurmak menga or emas edi.
Ikki jahon ogahligi soldi dilg'a g'ash,
Qanotim yo'q ekan—qafas tor emas edi.

233

Kimki nokaslarga qaram bo'ladi,
Nomard oldida ham mulzam bo'ladi.
Agar sher kuchukka bo'ysunar ekan,
Obro'si mushukdan ham kam bo'ladi.

73

234

Aybdor o'z aybin qilganda izhor,
Uyatsiz kulgisin boshlar nobakor.
Kishilar aybiga kamroq ko'z yumib,
Ko'proq og'zin ochar bunday sharmisor.

235

Seni pastga urgan hirsing emasmi,
Folingni bad ko'rgan hirsing emasmi?
Shoh, amir eshigida itoat bilan
Qo'ling qovushtirgan hirsing emasmi?!

236

Qaysi kaltabinki, xalqidan judo,
Amal deb bo'lgandi dalqidan¹ judo.
Oyog'i ostida ne bor ko'rmagan —
Havoyi bu boshdan bo'ldi tan judo.

237

Ey, terakning bargi kabi titrab turgan chol,
Ham toqatdan o'zga umid topmog'ing mahol.
Umr vidosi nomusini yelga uchirma,
El eshigin supurmasin bu oppoq soqol.

238

Baland martabaga minsa past kishi,
Falak aql bermas, pastlik qilmishi.
Oyoqda qabarchiq ular kallasi,
Ko'pchib chiqsa fasod yig'moqdir ishi.

239

Yor suhbatini tun, gul sayri sahar istaydi,
Har soz o'zga taronayi dilbar istaydi.
Qarisam-da ajralolmam la'li lablardan,
Tishsizligim oq sut birla shakar istaydi.

¹ Dalqidan — darveshlarning jun kiyimi.

240

Menga boqib kimning ko'zi bo'lmas nam,
Holimga, afsuski, kimlar yemas g'am?
Do'zaxga tushsam gar, mendan uyalib,
Kavsardan ortiqroq terlar olov ham.

241

Qayda iqbol agar ofatga yondosh,
Avval aqlsizlar dilin bosar g'ash.
Davlat chiqisholmas nokaslar bilan,
Xoru xasga tushsa yondirar otash.

242

Uyat-ku, qalbingdan ketmasa da'vo,
Boshingdan chiqmasa g'urur va savdo.
Nam tuproqni shamol qo'zg'ata olmas,
Hayo ahli bo'lmas amalga shaydo.

243

Kimningki rahbari bo'libdi hayo,
Uni mahv etolmas ofat va balo.
Oyog'in ostiga boqqan ko'zlarga
Bu havas dashtida chang tushmas aslo.

244

Dil binosini umr taboh¹ qiladi,
Bizlarni na gado, na shoh qiladi.
Olgan nafasimiz qo'ldan kelgancha,
Xat tortib varaqni siyoh qiladi.

245

Bedil, orom havasi berdi ko'p ozor,
O'zni tiyaverish qildi ko'p bezor.
Dilga farog'at ham keltirar kulfat,
Umr ipi chuvalib bo'ldi tugundor.

¹ Taboh — buzuq, vayron.

246

Yopilmadi hirsning hayosiz labi,
Bedil, yo'qolmadi uning talabi.
Orqa-o'ngi ko'milib ketsa ham donga,
Og'zi hech yopilmas tegirmon kabi.

247

Do'stlar, ibrat gulin eting etaklarga jam,
Har motamda yig'layvermang, bo'ling xotirjam.
Men yorimdan olisdaman, o'lim mana shu,
Gar ko'zingiz bo'lsa menga tutingiz motam.

248

El aro odobdan afsona qoldi,
Na xeshni bilish, na begona qoldi.
Shaxmat donasidek bir-birin qirish,
Oxiri na bir g'isht, na xona qoldi.

249

Agar ishq tabibi topolsa darmon,
Quruq taskin kerak emas begumon,
Har kuyganga bordir o'zin tuzlig'i,
Issiq kul to'zg'isa cho'g' chiqar oson.

250

Do'stlar, na yoru, na ag'yorg'a yig'lang,
Na vafot etgan, na bemorga yig'lang.
Ulfatlardan ayrildim, mening dardim zo'r,
Barchani qo'yingu, men zorga yig'lang.

251

Ko'zlarim yig'larmi biror odamdan,
Yo dilim qurshagan qayg'u-alamdan.
Sham kabi har nafas ko'z yosh to'kaman,
Yig'larman o'zimga tutgan motamdan.

252

Do'stlikdir ittifoq bo'lib yig'ilish,
Bir-birdan ajralmay soyadek yurish.
Bu vafo bazmida unday do'stdan kech,
Keyin kelib, oldin ketsa misli tish.

253

Har bir ramz sen bilan menda, ey inson,
Nozik fahmlarga bu sirlar ayon.
Yoqub dimog'idek nigoh paydo qil,
Yusuf o'z ko'ylagi bo'yida nihon.

254

Eshak keriladi, to'qimi zarrin,
Aslida na odob bor unda, na din.
Sulton amalidan kerilgan odam
Kamolga yetkazar o'z qabohatin.

255

Kelganida erta qiyomat zamon,
Osiylarga rahmat yog'ilur chandon.
Bedil hazil-huzil yozgan bo'lsa-da
Malaklarga tasbeh bo'lur u hamon.

256

Chaman shavqi uydan chiqordi bir kun,
Gulda sehr ko'rdim, lolada afsun.
Nargis jigarimga o't tashlab, qildi
Ko'zimni bahoru, o'zimni majnun.

257

Bog'man, yuz xil rangu bo' ko'rsataman,
Dengizman, yuz nahru suv ko'rsataman.
Ey sir izlaguvchi, meni unutm!
Oxir undan ham belgu ko'rsataman.

258

Dengiz mavji qatra oddiy suv aksar,
Durga qo'shildi-yu bo'ldi u gavhar.
So'z asli shamolu shoir nazmida
Mavzun bo'lgach o'ldi Saddi Iskandar.

259

Bukun o'zgarishga uchradi zamon,
Hatto ayollarda mardlik namoyon.
Shunday ketaversa bola emizmoq
Erkak zotiga ham bo'ladi oson.

260

Bu qavmni falak sulton der ekan,
Huzurida suring yumshoqroq suvan.
Muso qo'rqmasa ham hech Fir'avndan,
Haq so'zin yetkazar xo'p odob bilan.

261

Dashtu rog' havasi qiynamish bul kun,
Yo bog' savdosiga dil bo'lmish tutqun.
Bog'u rog'da parokanda dilingni
Jamlasang topursan farog'at mulkin.

262

Gado libosida keldingiz, ammo
Asil makoningiz yuksak ul samo.
Mehribonlik qiling bir-biringizga,
Osmon edingiz-ku, bo'lmang zeri po.

263

Shayxu zohid haddan ortiq ko'p bo'ldi,
Kamolot varog'i riyoga to'ldi.
Zuhdu taqvo edi insonlik faxri,
Nodonlar dastidan sharm ila so'ldi.

78

264

Bedil, bu urinish to abad nima,
Bu havasda ayt-chi xubu bad¹ nima?
Qidirib-qidirib ketdilar ko'plar,
Hech kimga ma'lummas ki maqsad nima?

265

Bu qavmki, bo'lmish madrasaga jam,
Bilasanmi qaydan bo'lmish mukarram.
Egar-to'qim lozim eshaklar uchun,
Shularni topmasdan bo'lmishlar odam.

266

Agar qiyomatga yetolsa yo'lim,
Ko'rardim jannatning gullarin so'lim.
Do'zax otashining butun yolqini
Arzirdi bir bora chekmakka chilim.

267

Mardum aro kibru hasad ko'p ekan,
Bilmoq kerak barin kim hadya etgan.
Shayton murda edi, e'tiqod ahli
Sham yoqib mozorin etdilar ravshan.

268

Ibrat bog'i jismi uzra ertalab
Ochilmishdi motam gullari yuzlab.
Ammo bu tabassum yo yoqa yirtish—
Ekanin so'rashga hech kim ochmas lab.

269

Boshimga tosh tegdi, oyog'imga xor,
Yurak xun bo'ldi-yu, lablarimda zor.
Hayhot, qayga boray, nimalar qilay?
Sendan uzoqda men oxir bo'ldim xor.

¹ Xubu bad — yaxshi-yomon.

79

270

Ishimiz ibрати rahnamo qachon?
Dil nechun behuda urinar har yon?
Yuring, qayga eltar nafas mazhabi,
Bu silsila qayda topajak poyon?

271

Samimiy so'zlamog bo'ldi Boy birpas,
Darveshliksiz kam-ko'st hech to'liq bo'lmas.
Qorin to'lalikdan kelur kekirik,
Me'da bo'shaganda bir tekis nafas.

272

Nafas xun bo'ldi-yu, labda yo'q faryod,
Murodga yetmadi bu dili noshod.
Umr mavhum o'tdi faromushlikda,
Hatto o'zimizni qilolmay kushod.

273

Bedil ruboiyotin san'ati bordir,
Haqu nohaq jahonning surati bordir.
Ba'zan qasru hurlarga bo'lur oina,
Ba'zan kishan, zanjirda holati bordir.

274

Na yomonlik ko'rding may, rubobdan, Bedil,
Tavba nechun istading mehrobdan, Bedil.
Rahmatimdan yumibsan umid ko'zini,
Qo'rqibsan-da, gunohu azobdan, Bedil.

275

Baland-pastlar qo'shilib qolsalar agar,
Past tabiati g'olib kelar har safar.
Toza suv tindirolmas loyqa suvni hech,
Loyqa suv tiniqni zumda loyqatar.

80

276

Ko'p o'yin ko'rgazar bu charx binosi,
Alvon-alvon izdir chamanorosi.
Goh yoshlik, yigitlik, gohi qarilik...
Umr o'taru bordir xo'p tamoshosi.

277

Ba'zilar kelishar deb ilmu hunar,
Ba'zilar kelishar istab simu zar.
Xayol qasri ichra havas narvonin
Qay poyasidalar, shuncha olishar.

278

Ba'zilar xayolda tolibi jannat,
Bukun halok etar ertangi ishrat.
Tabiatlarida tamiz bo'limgach,
Bejo xayollarga asir, beuyat.

279

Baski dilim sening xayolingga band,
G'am qanoti solmish soyasin harchand.
O'lgach, to'zg'ib ketsa hamki kipriklar,
Sendan umid uzmas chang bo'lsa garchand.

280

Borliqning tahlili naqd nazar bo'lur,
Shubha vayronu haq muqarrar bo'lur.
Ali bunday qildi, Bubakr bunday...
Bular din, afsona, ertaklar bo'lur.

281

Dunyo ibratidan dilda g'am bunyod,
Koshki bo'lolsak bu hasratdan ozod.
O'ldik hech quloqqa yetmay ohimiz.
Faryod, bu bedavo g'ashlikdan faryod.

81

282

Bir insonman, dilim tinmas tepishdan,
Qondagi orzu deb tinmam chopishdan.
Sham kabi bir joyda turganimda ham,
Yo'lim ipi aniq menga ko'p ishdan.

283

Gar satru so'z bilan kitob xush kelur,
Hariflar desa: «gul», «sharob», xush kelur.
Bodasiz ne foyda faromushlikdan,
Afsona uyquda savob, xush kelur.

284

Saxiylik lofini urar badavlat,
Shayx rahnamolikni qilar qiroat.
Bu bog' ichra bizlar besamar gulmiz,
Bizdan talab aylar xushbo'ylik faqat.

285

Ibrat ko'zi birla ko'rib zeboni,
Xunuk nuqson, kamol, lafzu ma'noni,
G'am asiri ko'rib mardu dononi,
«Mal'un» deb ketishdi ushbu dunyoni.

286

Bilki, tuzalmoqchi bo'lsa ham olchoq,
Makruhligi asti bo'lmagay adoq.
G'usul, tahoratdan unga ne foyda,
It ho'l bo'lsa tani yana iflosroq.

287

Bedilning bo'lsa ham ko'z yoshi ravon
Har qadamiga dil-jigari qurbon.
Alam moyasidir har bir judolik,
Vido ohangini jon saqlagay, jon.

82

288

Seningsiz Bedilning nadomati bor,
Yolg'iz bo'lsa hamki qanoati bor.
Unday hosildan hech yuborma, yo Rab,
Donasida zarra gar minnati bor.

289

Kamol ahli ketdi, qarddon yig'lar,
Yod etib fayzlarin bul zamon yig'lar.
Suxandonlar ketdi, ammo so'zlarin
Mag'zin chaqib qalam qora qon yig'lar.

290

Qay dil sezar ojiz toqat navosin,
Qay hush bosar ertak-ibrat havosin.
Kimga yetar poymol qumursqa dodi,
Muruvvat qo'lidan topar davosin.

291

Ba'zilar benishon yurtdan jar soldi,
«Qayga?» «Qachon?» «Men...» «Sen...» deb,
shoshih qoldi.
Oxiri bildiki, ketar yo'qlikka,
Uyatdan kafanga berkinib oldi.

292

Alam kabi bosmishlar oq sochlar boshda,
O'lim seli boshimdan oshgudek qoshda.
Ey nodon, issiq jonga umid bog'lama,
Taft bo'larmi kuldek qor bosgan otashda.

293

Fazlingdan o'zingga naf tegmasa agar,
Tirishganing bilan hech qilmagay asar.
Ko'zlaring och kattaroq, har tomon ibrat,
Ildizdan chiqadi-ku har qanday samar.

83

294

Ne keltirar bo'lsa senga xijolat,
Hech narsa qoldirma gar o'lim qismat.
Agar pok, mard bo'lsang bola-chaqangga
Mol-dunyo qoldirma, qoldirgil ismat.

295

Bunda tikansiz gul topilmas zinhor,
Ishrat xayolidan chekma ko'p ozor.
Mashaqqatsiz bo'lmas mardum oromi,
Bu ganj muhrida, bil af'i ilon bor.

296

Bu ichi qarolar barisi bir tan,
O'ldilar naf ko'rmay dildagi nurdan.
Kafan ichra yotar go'yo qurbondek,
Lekin farqi yo'q kul bosgan ko'mirdan.

297

Bir xil bo'lur imdod, haqning zuhuri
Turlicha tushunar odam shuuri.
Yoqitu billurda rang iste'dodi,
Quyosh chashmasidan barisin nuri.

298

Kimning dili topsa oromdan xabar,
Kishi suhbatidan aylagay hazar.
Nafas tinmay ko'ngil rohati dushvor,
Ip o'tsin deb ko'ksin teshdirdi gavhar.

299

Bedil sirlil she'rin o'qi, yaxshi boq,
«Bekorchi nukta ko'p juda yiltiroq»,
Deb meni ayblama, oliy bir vujud
Insonda ham bordir hissiz mo'y, tirnoq.

84

300

Inson yaralganda lab, kiprik paydo —
Qilib, so'z, ko'z yo'lin yopibdi qazo.
Zaruratsiz ochma ko'zni yo labni,
Bunisi dil vahmi, u boshga balo.

301

Har kim o'z rizqini terishga tayyor,
Itga it, xarga xar bo'lmas xizmatkor.
Bu uyat ish faqat odamlarga xos,
Bor imkondan qilmish shuni ixtiyor.

302

O'z loyidan oxir bo'lsalar mulzam,
Raqib da'vosidan o'zga qalqon kam.
Harifi qanoti ostiga boshin
Yashirar jangda lat yegan xo'roz ham.

303

Zohid, jannat, rizvon savdosini qo'y,
Kufr ta'nasin, imon da'vosini qo'y.
Xalqqa ehson ayla, xudo nazarda,
Majhul toat — shayton g'avg'osini qo'y.

304

Boshga tashvish tushib qilsa betoqat,
Qabr ahlini borib ayla ziyorat.
Seningdek sertashvish edi ular ham,
Oxir tuproq bo'ldi, tashvish ne hojat.

305

Senga orom, benishonlik bo'lsa manzur,
Faqirlarga oshnolikdan topgil huzur.
Dimog'ingda shuhrat zavqi bo'lsa paydo,
Shohu amir oshnoligi bo'lgay zarur.

85

306

Xalq ichinda sen zolimlik nomin olma,
Ojizlarga zulm ko'rsatib, jonin olma.
Ochligingdan o'lganda ham zinhor, zinhor,
Chumolining og'zidagi donin olma.

307

Ey ohim, dilimdan uchdingmi oxir,
V-ey nolam, ko'ngildan ko'chdingmi oxir?!
Ko'zim xonasida topolmay tinim,
Ko'z yoshim, tuproqqa tushdingmi oxir?!

308

Sertashvish bu olamda jahd ayla takror,
Ta'bingda qo'pollikdan qolmasin osor.
Bir-ikki tosh bo'lsa ham oyoq ostida,
Toydinar tekis yo'ldan, unutmaz zinhor.

309

Judo bo'lgan do'stlar topishib takror,
Qonli ko'z yoshlarin tiysa ham yak bor,
Ammo sirli do'stlik vafo mazmuni
Hijron damlari, deb yig'lashadi zor.

310

Hasad gar bilinmay ketmish nogahon,
Baribir kishilar ta'bida pinhon.
Tuproq ostida ham qaynab yotadi:
Mo'ylar bo'lib ilon, suyaklar chayon.

311

Izzat desang, pastni yo'ldosh etmagin.
Joy tanla ulug'vor soyasi tagin.
Durga yetolmassan ariq suvidan,
Ey qatra, mahkam tut daryo etagin.

86

312

Bedil, kimning aqli nimaga qodir,
Faqat shuncha ibrat oladi oxir.
G'ofil dili jahon g'amidan xoli,
Uy qorong'i bo'lsa, ko'rga baribir.

313

Dunyo ishlaridan bo'lolsang ogoh,
Ranjima goh izzat, xo'rlik ko'rsang goh.
Dunyo ishi xuddi pargor chizig'i,
Oyoq bosh bo'laru bosh—oyoq, evoh!

314

Bir tabib yoniga kelib bir inson,
Demish: «Qornim qur-qur qiladi chunon.
Hazm bo'lmaydi hech yegan ovqatim».
Dedi: «Hazm qilib, so'ng ye-da, nodon».

315

Ko'z yoshim ham ketdi ojizlik sari,
Hech joyga yetmadi tomchilar bari.
Ipdan nari yo'l yo'q tasbeh donaga,
Ashkim chiqolmadi kiprikdan nari.

316

Bukun viqor ahli behayo, badkor,
Ta'biga qolmadi nomusdan osor.
Shaxmat taxtasidek har taraf boqsang,
Yuz xona bor, bari bedaru devor.

317

O'zgaruvchan olam, bunda ko'p nayrang,
Shavkatingdan bilma baxtingni bashang.
Bunda pastu baland tafovuti yo'q,
Oyoq ostidan chiqib, boshga qo'nar chang.

87

318

Qildim ko'p imtihon, qarz ola ko'rma,
Bersalar senga jon, qarz ola ko'rma.
Qarz adosi mahol, ochdan o'lsang o'l,
Odamlardan bir non qarz ola ko'rma.

319

Bedil, sol shikasta sozingga quloq,
Hamda bekas diling tomirin ushlab boq;
Bunda yiqilganlar bisyoru bisyor,
O'zingga rahm ayla, qo'ling tut har choq.

320

Voiz, afsun bilan dilga berma tob,
Toza mayga bekor qo'shma namakob.
Mijozim tuzalmas sovuq damingdan,
Issiq shishaga sen urma sovuq ob.

321

Afsus, jahon o'zi moyasiz bul kun,
Karam poydevori poyasiz bul kun.
Himmat ham pastlikka qarab sozlangan,
Barchaning devori soyasiz bul kun.

322

Oxir mahv bo'lurmiz, olam fusunsoz,
Oq sochlarda qolmas ra'noligu noz.
Otash ibratgohi kul emasmi, kul,
Qanot singach yerga ko'milur parvoz.

323

Ey qasr ahli, kulba ahlidan kulma,
Baxting yosh, chollarni masxara qilma.
Fir'avn nima ko'rdi oxir Musodan,
Ey boy, yo'qsullarni notavon bilma.

88

324

O'chmishdir madrasa chirog'i bul kun,
Qaynar bema'nilik bulog'i bul kun.
Behislik eshigin qoqmoqda mullo,
Ko'p baland nodonlik dumog'i bul kun.

325

Dilim chaman ichra xurramdir bul kun.
Jannat aksi ko'zga malhamdir bul kun.
Bizning koshonaga dildor keladur,
Bayram, qara, qanday bayramdir bul kun.

326

Tokaygacha bu hirs o'tida yonmoq,
Joning tahlikada, sen molga inoq.
Piligu xashakning haqiqatin ko'r,
Ikkov ham og'ochsiz yonolmas uzoq.

327

Men ketdim, davrada davron jom hanuz,
Boshlarda havo-yu havas xom hanuz.
Quloqda tosh tekkan shisham jarangi,
O'tgan hayotimdan bo'sh payg'om hanuz.

328

Notavon g'ubormen misoli nafas,
Faqat lofga bormen misoli nafas.
Badu nek zahmati yag'rinimda yuk,
Sitamdan abgormen misoli nafas.

329

Ishqu havas vodiysining tunida, Bedil,
Har kimsaning shan maqsadi biror-bir manzil.
Ma'zur tuting, mening yo'lim so'z yo'li bo'ldi,
Umrim undan yaxshiroqqa bo'lmadi moyil.

89

330

Kishi to tamizdan ajralmasa gar,
Tillo-kumush kayfi unga beasar.
Odamzod hamma vaqt qo'yganda xino,
Behis tirnoqlarga yaxshiroq yuqar.

331

Osmon xuddi nayrangbozning qo'lida qafas,
Faqat g'ofil qilur undan to'g'rilik havas.
Afsun ila to'liq naqshi — pargor chizig'i,
Qay bo'lagin olib boqma egrilikdur, bas.

332

Bu noz olamidur, bunda har bir kas
Boshqani tushunmas, o'zni bilsa bas.
Anqo ma'nisiga yetmaydi chibin,
Anqo ham pashshaga hech yaqinlashmas.

333

Bayram kelib, bahor gul ochdi qat-qat,
Ishqu havas bilan qaynar tabiat.
Qay tarafga ko'zim ochib boqmayin,
Aylanishar sening boshingdan faqat.

334

Ey aqlim qo'li, so'z deb balo yozma,
Haqiqatsiz biror-bir navo yozma.
Agar haqshunoslik bo'lsa ta'bingda,
Yorqin quyosh nomin qop-qaro yozma.

335

Ey jaholat bandasi, turmushi g'aflat,
Kamolotdan ko'p uzoq va noqis fitrat.
Bir umr boqiylikdan bema'ni bahsing,
Nasabnomangni endi qilma qiroat.

90

336

Mayda tashvishdan kech, bo'lsang barkamol,
Aql salladamas, bu fikrdan qol.
Odamlikdan bir mo'y bo'lsa kifoyat,
Ayiqdek bosh-oyoq bo'lmagil soqol.

337

E'tibor olamida shohmi yo darvesh,
Ishlari ehtiyotlik devorin qurish.
Tadbirsizlar doimo ofatga nishon,
Toshga bosh urar kimda bo'lmasa es-hush.

338

Sirlar olamida darvesh, badavlat,
Qidirmoqchi bo'ldi qayda haqiqat,
Necha vaqt yolqindek qanot qoqdi-yu,
Kul bo'lib nafasi o'chdi oqibat.

339

O'zing-chun may xumidek qayna hamisha,
O'zgalarga xomushlik aylagil pasha.
Zarar ko'rmayin desang badu nek so'zdan,
Quloqda tiqinli bo'l misoli shisha.

340

Meni dog' ayladi borliq dard g'ashi,
Umr issiq-sovug'in ayqash-uyqashi.
Subhi azal chekdim tang dildan bir oh,
Hanuz o'chmas o'shal ohim otashi.

341

Ey hayot mazmunini izlagan odam,
Har bir kitob satrin dilga aylama malham.
Bedil «Ruboiyot»in sayr et, topursan
Dardu ibrat, tasavvuf, umr tadqiqin ham.

91

342

Hind markazida to xatti Multon,
Ham Iroqdan tortib to Yazdu Koshon,
Qay bir shaharniki, ko'rib o'tmadim,
Avval ko'z ko'rgani—qaro go'riston.

343

Shohmi, darveshmi bu jahon ahbobi,
Har birin orzusi—ko'ngil sarobi.
Iskandar istadi obi hayot, lek
Topgani oina va chashma obi.

344

Shohu darvesh to'liq bu zeri osmon,
Bir yoqda boyligu faqirlik bir yon.
Qanchalik balandga ko'tarilmasin,
U qasrda bo'lmas ikkita narvon.

345

Yuz shukrki, turli dinu turlicha millat—
Odamlari uchraganda ko'rsatdim hurmat.
Soya kabi har tarafga bo'lsam—da ravon,
Yo'l ozig'im kishilarga bo'ldi muhabbat.

346

Ul nusxaki, boshdan-oyoq purma'no,
Har xatda nuqtalar birligi paydo.
Ko'pchilik birlashib azim xalq bo'lur,
Dengizda sanoqsiz tomchi muhayyo.

347

O'z bilimsizligin bilsin, deb Olloh,
Yuz hunarga diling ayladi hamroh.
Igna kabi yuz xil kiyimdan o'tsang,
Yalang'ochligingdan bo'lursan ogoh.

92

348

Ey aql, jahlg'a sen bob bo'lmagil,
Mol-dunyo yig'ishga asbob bo'lmagil.
Ildizing bulutdan serob chog'ida,
Suv markaziga intil, hubob bo'lmagil.

349

Zolim ustidagi shohi, baxmali
Berkita olmaydi ta'bi dag'alini.
Sinovdan juda ko'p o'tganki shamshir
Usta qo'lin kesar sayqal mahali.

350

Surgalmoq bo'larkan qay ishga yo'ldosh,
Tartibga solajak sabr ila bardosh.
Bino qurish fikri gul ochar ekan,
Me'mor qalbin bosar avvalgi zil tosh.

351

Shohlikdan, boylikdan aylama so'roq,
Dunyo mashmashasi qalbida buloq.
To boshdan kulohin uchirmasa yel,
Shamdek otash ichra ul boshdan-oyoq.

352

Bedil, vahshatnok dil sochmoqda sharar,
Sarguzashtim aysam dengizga agar,
Baliqlar tanasi cho'g'dek qizigay,
Tangasi o't tushgan qog'ozdek yonar.

353

Ey olam holidan bexabar odam,
Baland martabangdan kerilma har dam.
Boshing uzra soya solgan bu devor,
Ertaga toptalib topadi barham.

93

354

Aql mushti ichra kalit bor, biroq
O'z mushkullarin u yechmoqdin yiroq.
Hayronlik yengadi bunda tadbirni,
O'z barmoq tugunin yecholmas tirnoq.

355

Ba'zilar bu dunyoda o'zidan masrur,
Ta'bi havasidan rozi-yu mag'rur.
Bekor ko'tarmadik biz ham boshimiz,
Faxrimiz moyasi bizdan uzoqdur.

356

To charx aylanmoqqa bermasa barham,
Ta'siri to'xtalib qolmag'ay bir dam.
Jim yotgan toshlar ham aylanur la'lga,
Doim ishdadur tinch ko'ringan tosh ham.

357

Birovga bir narsa aylasang ehson,
Nomini tilingga olmagil oson.
Ul narsaning nomin tilingga olsang,
In'omingni qaytib olgandan yomon.

358

Bedil, bandalikda o'yna basma-bas,
Kishilarga qayish to so'nggi nafas.
Tabiatingda bu ojizlik bilan,
Xudo bo'lolmaysan, Odam bo'lsang bas.

359

Bedil, gum bo'lganmen paydoliq'imdan,
Kuyganman jununu shaydoliq'imdan,
Demakim oh-nolam yaktoliq'imdan.
Yig'laydurman hamon tanholiq'imdan.

94

360

Yaxshi kiyim-boshing qilma pisanda,
Bo'lma faqat tomoq, qoringa banda.
Senga o'qtalmasin barcha barmog'i,
Zulm-ku bu shuhrat, bo'lma sharmanda.

361

Mard kasbu koriga bo'lsa axloq yor,
Qindan tig' chiqarmoq uning uchun or.
Tabassum bilan ish topsa saranjom,
Tirishtira ko'rma peshonang zinhor.

362

Chang ko'targan-chun yer bosilib yotar,
Uyat, gar dimog'ing osmonga yetar.
Ta'bing qabul etmas xayolda borin,
Bu puch xayolda na halvo, na shakar.

363

Kimdagi dag'al fe'l bo'lmish namoyon,
Bilimdon bo'lsa ham, nafratga nishon.
Olamni zabt etar go'zallik, bilsang,
Axloqiy husndir, shuni de har on.

364

Umring to'la haryon g'araz nayrangi.
Yaxshi, yomoni ham shu g'araz jangi.
«Kufri din» degan so'z ma'nosin chaqsang,
Barcha sozin kuyi g'araz ohangi.

365

Bedil, bu ne harflaru ne nuqta izi,
Mutlaq ma'ni bo'lmasa, chirik ildizi.
«U-bu» deb o'ylayverish diling tirnaydi,
Xatosiz bo'lmas ekan hech varaq yuzi.

95

366

Xumor tonggi sharob ne'matidan shod,
Zohid tayammumu tahoratdan shod.
Ba'zilar izlanish zavqidan xursand.
Bedil orzulari g'oratidan shod.

367

Bedil, qara, qanchalik kuygan bu jon misli sham,
Kuymak shavqida qanot qoqdim har yon misli sham.
Bunda o'zimni ko'rib, tinmay yosh oqizmoqqa
Ustixon ichra ko'zim bo'lmish pinhon misli sham.

368

Kim bo'lsa hasadchi, yuragi qaro,
Ko'rmas yaxshilarga yaxshilik ravo.
Humo holini tang ko'rmoq qasdida
Qarg'a ustixonni ko'mar xok aro.

369

Dayru Ka'ba qayda deb bunda halok
Ba'zilar jonidan kechishar bebok.
Har kim paydo qildi chidam boyligin,
Boshin toshga urib, oxir bo'ldi xok.

370

Bedil, imkon bog'idan istama rohat,
Sarvu suman oyog'i loydan omonat.
Ham lolasi qo'lida xun to'la qadah,
Ham g'unchasi bag'rida alami qat-qat.

371

Ul badmast sanamning ishqida ko'ngil,
G'amin ko'tarolmay bo'ldi-ku chil-chil.
Bir umr o'ltirdik vafo bazmida,
Uning qo'lida jom, biznikida dil.

96

372

Yangi oyni tomdan qilay istiqbol,
Deb tomga chiqdi ul bahori iqbol.
Husni tobonidan sharmanda bo'lib,
Quyosh botib ketdi, xam bo'ldi hilol.

373

Dunyo ayshin maloli bordur bag'rida,
Sho'xlikning bir ishkoli bordur bag'rida,
Bo'lma g'ofil xino rang haqiqatidan,
Bul otashning zo'g'oli¹ bordur bag'rida.

374

Mansab, boylik g'amiga to'lib-toshsa dil,
Faqir notavonlarga xizmatda bo'lgil.
Senga qimmat bo'lgan u durri yatim
Qum ila bir yotar, kezib boq sohil.

375

Umr o'tgan joyimiz Ka'ba, butxona,
Ba'zan obod shahar, ba'zan vayrona.
Jinnilik tugaydi ki prik yumilgach,
Axir ming gajakka urdik bir shona.

376

Goh kumush-tillo deb, iltijo ovoz,
Gohi gul, sharob deb, havasga pardoz.
Tuproqdan chiqib, to tuproq bo'lguncha
Tuproqda yuz nayrang qilamiz og'oz.

377

Maktabda yuz saboq biz goho ko'rdik,
Ham yaxshi-yomonu band zebo ko'rdik.
Oxir hayrat qildi savodni ravshan,
«Oina» yozdik-da, tamosho ko'rdik.

¹Zo'g'oli — ko'mir.

378

Mayparastlar siriga mahram bo'lganim zamon,
Kufri din zanjiridan ozod bo'ldim men oson.
Idish rangin oluvchi maydek bo'ldim yalang'och,
Hamsuhbatlarga moyil, mayli yaxshimi, yomon.

379

Havas ham ba'zida attangdan chiqmas,
Barcha oina ham chang, zangdan chiqmas.
Har dil ishq kayfidan xabar berolmas,
Bunday shu'la hecham xarsangdan chiqmas.

380

Gullab turgan bog' ham yer xazon g'amin,
Sham nur socha tortar kuymoq alamin.
E'tibor gulshani ofatsiz emas,
Bedil, yasha ko'rmay hech o'lim damin.

381

Garchi aql bilan ming mahfil ravshan,
Komil savod topmoq ko'p mushkul, ravshan.
Ishq yolqini agar bo'lsa manqalda,
Ming ko'zni qiladir bitta dil ravshan.

382

Qo'lingdan chiqsa ham ne'matu matlab,
Xasisdek dod solma, saxovat tilab.
Bu qavmda kumushu zar bo'la turib,
Dod, hasrat ila jon bermog'i ajab.

383

Tokay bu olam yo ilohi g'ami,
Qachongacha oqu qora alami.
Qay rangda bo'lsa ham xushvaqt bo'l bul kun,
Ey borliq-yo'qlikning gumroh odami.

98

384

Tokay chopish, ey sho'ri qiyomat, o'tir,
Qachon tinasan, bir dam et rohat, o'tir,
Oyog'ingga sanchilgan tikan deydiki:
«Ey behuda harakat, bir soat o'tir».

385

Tokay parishonlik suradi kalom,
Havas darsimizga javob notamom.
Donish lofi g'aflat oromin buzdi,
Safsata uyqumiz ayladi harom.

386

Xulosasiz mendan aslo so'z ochma,
Shikoyat tumorim o'zgaga yechma.
Nomim ko'tarilsin yodingdan, mayli,
Yod etib, bosh og'riq urug'in sochma.

387

Ey tezpishar meva, bir dam eskirma,
Yangilanish o'zi karam, eskirma.
Yashnab turgan bog'san, tikanzor emas,
Ey sen, yangi ma'no, hec ham eskirma.

388

Sozdan ovoz chiqmas tegmasa mizrob,
Ishga dur tegilmas berilmasa tob.
Fonus yo sham bo'lmoq emasdur oson,
Qonga aylanmayin yoqut bo'lmas ob.

389

Daryo suvi boshi asli jo'yi' dil,
Sahro g'uborining joyi kuyi dil.
Bu to'ngan qon qachon hushga kiradi,
Hatto Bedildan ham kelur bo'yi dil.

¹Jo'y — ariqcha.

99

390

Har o'rmonning bo'lsa o'z arsloni,
O'z nahangi makon etsa daryoni.
Taslim bo'lgan boshda qilich o'ynatma,
Egilgan kamoning bor tir-parroni.

391

To kishi la'l kabi dilxun bo'lmagay,
Vafo mulkida narxi afzun bo'lmagay.
Tabiatda har tosh yoqut bo'lolmas,
Har qatra suv durri maknun bo'lmagay.

392

Badavlatdan umid qilmagil oson,
Kattalikdan o'zga libosi gumdon.
Bulardan himoya orzusi puchdir,
Soya bermas tomi ko'k o'par ayvon.

393

O'zgalar haqida yomon so'z so'zlash,
Hasad jilovini tutmoqni ko'zlash.
Og'zingga tosh sening, ey otashzabon,
Benavo uyiga tashlama otash.

394

Insho havas qilma, ayo puch odam,
Goh mirzo bo'lsang, goh sultoni a'zam.
Bir zumlik umringda qolma uyatga,
Erta ne bo'lursan, shu bo'l bugun ham.

395

Sababsiz firoqdasen, visol kun aksar,
Ma'no kayfidan yiroq, qo'lingda sog'ar.
Ham quyosh haqiqatu ham xok zarrasi,
Ma'zur tutaylik ko'zing ko'r bo'lsa agar.

100

396

Jununim soziyu uchqur hay'atim¹,
Oshufta ayladi olti jihatim.
Otash ko'rgan mo'ydan qilsin qalamini
Rassom agar chizmoq bo'lsa suratim.

397

Ey ashkim, do'st ko'chasiga topa bil yo'l,
Ey ko'z, nigoh tashlasang-chi, hasrating mo'l.
Alif qomat esga tushsa, siynam ohi,
Sen ham tikka chiqib ko'kka, alifdek bo'l.

398

Kecha yo'lda ko'rdim ko'zgu parchasi farang,
Ishq dardida chil-chil oyni aksu, attang.
Uning navo pardasidan chiqadir ovoz,
«Ey xudbinlar, men tomonga bir bora qarang!»

399

Mard bo'lsang, vahima yo'lini quvma,
Ko'zgudagi gulning isini tuyma.
Bunda qancha ertak jam bo'lib yotur,
Ko'rinmagan suvga qo'lingni yuvma.

400

Bu mukofot mulkin past-balandi bor,
Tajriba qilmishlar donolar bisyor.
Derlar qudrat chog'ing hech kimga zulm —
Qilma, zaiflikda ko'rmaysan ozor.

401

Qo'ldan ketganinki qaytarmoq oson —
Emas ekan, chekma do'st minnatini, jon.
Adolat chidami kamayganda ham
Zinhor qabul etma birovdan ehson.

¹ Hay'atim — kishi folini munajjimlar aytib beradigan yulduzlar turkumi.

101

402

Bedil, olamda bor yaxshi, yomon deb,
Millatu mazhabdan tilga berma zeb.
To qiyomat ma'lum bo'lib turadi
Tuxming shunda o'sib, topganing tartib.

403

Ojizni ezmoqqa zolimi irkit
Qonli libos kiyar bir qonxo'r taxlit.
Tosh yurakka dahshat bo'lsin shioring,
Qizigan temirni temir-la irg'it.

404

Turar joying Soviy va yoki Ganja,
Tavakkaldan berma o'zingga ranja.
Pand yema, sababsiz bo'lmagay hech ish,
Tirnoqsiz bir tugun yecholmas panja.

405

Ey xoja, taskin top dil bo'lsa noshod,
O'z or-nomusingdan so'ragil imdod.
Xodimingdan o'tgan bo'lsa xatolik,
Sobiq xizmatlarin yod aylagil, yod.

406

Bedil, yovga kamtar, benishon bo'lma,
O'q-nayza bo'lmasang ham, kamon bo'lma.
Ojizlarni toptash bu olam ishi,
Bu maydonda zinhor notavon bo'lma!

407

Shayx bo'lsang hech kimga sen hukm qilma,
Odob sarrishtasin aslo gum qilma.
Xalq huzuriga bor to'g'ri va halol,
Ters borma, soqolni misli dum qilma.

102

408

Ey, tog'sabot, lof so'z, beimon bo'lma,
Xotirjam qil ko'ngling, parishon bo'lma.
Aqling yetganicha bilib olaver,
Fahming nuqsonidan pushaymon bo'lma.

409

Ishqing imtihoni afsundir, afsun,
Telbalik g'uborin taratar Majnun.
Kulda o't yallig'i sezilmas, ammo,
Suv ursang undan ham chiqadir tutun.

410

Borliqning bunyodi bemador nafas,
Hayot ko'rinsa-da e'tibor nafas.
Sahar shabodasin shamolga yozsang,
Bu kitobga ham ip hamda tor nafas.

411

Tokay qizitayin bozori hasrat,
Tokay afsona-yu ozori hasrat?!
Koshkiydi bu g'amdan suv bo'lolsam, suv,
Poyingga to'kilsa ne bori hasrat.

412

Hamkorlik topmadi falak, osmondan,
Libos kiyolmadim amnu omondan.
Ey don, sen rozi bo'l, qutulolmaysan —
Un bo'lib yanchilmay bul tegirmondan.

413

Majnun ishqda kuymish avvalida ham,
Sozi kuyar nola-nag'ma qilgan dam.
Ishq lofini urib yashamoq xato,
Qanot kuysa, uchish kuyadir boham.

103

414

Oyoqlaring naqshi ikki ko'zimiz,
Kelishingga mushtiq bunda o'zimiz.
Ko'zimizdan ketding misoli nigoh,
Ammo bo'shamadi sendan ko'zimiz.

415

Ishq yo'liga kirsa oqilu majnun,
Butxona, machitda chalishar qonun'.
U dunyoda pinhon ishq va ulug'lik,
Bunda hatto toshdan chiqarar uchqun.

416

Ezilgan har tuproq sirlar makoni,
To'zg'ib tushgan har pat uchish bayoni.
Bog' qizil, sarig'in inkor etmagil,
Har bargu har ko'kat rangu noz koni.

417

G'azabdan ogohlik o'tmasdir senda,
Adovatdan rostlik butmasdir senda.
Qilmishing o'zingga keltirar balo,
So'zingdan xunuklik ketmasdir senda.

418

Orif zahmat tortib yurmas qarasang:
«Bu ne jilvasozu, unda qanday rang?»
Har daraxt mevasi, har gul rangi bor,
Hayot nimaligin agarda bilsang.

419

Moldorlarga qara, fikrlari xom,
Kibru g'ururlari o'zlariga dom.
Bunday toshbag'irlar uzuk ko'ziga
Manglay ajiniday yozdiribdi nom.

! Qonun — cholg'u asbobi.

420

Mumsik nonu suvin tergaydi tejab,
Ammo oshiyoni buzilar ajab.
Ko'zlarin yog' bosib, yumilsa mayli,
To'ymaydi to'plagan moliga qarab.

421

May kosasi emas, chashmi fattoning,
May sening nigohing, obi hayvoning.
Mayxona eshigu, devoru xumi —
Ki priging soyasi, qora mujgoning.

422

Zohid mayxonadan istab haqiqat,
Tasbihdan ham kechdi, qoldi may faqat.
Soqolu yolu dum, sallani demas,
Oxir inson bo'ldi bu eshaksifat.

423

Bul kun nasimi dildorim kelur,
Bo'yi guli ko'p intizorim kelur,
Vaqtida olayin jilvasidan rang,
Ko'zgudek ko'rsatay, bahorim kelur.

424

Bedil, bunda shoir-suxandon ko'pdir,
Biz kamu begona noshoyon ko'pdir.
Bizdan eshitgilu, bizdan ibrat ol,
Maddohlik g'ururi ming chandon ko'pdir.

425

Vahm majlisida yo'qdir ma'nosi,
Kimning ko'nglida gar ilm da'vosi.
Mast devona urdi ko'zasin toshga,
Boshda ham qolmadi sharob savdosi.

426

So'z lutfin tuyolmas har qanday quloq,
Dilimdan o'tkazay sezsin yor shu choq.
Bulbuldek nolam bir gulga atalgan,
Ammo uni tinglar bog' boshdan-oyoq.

427

Ittifoq bo'lsa bir-biriga yo'ldosh,
Adashmay borishar mag'rur tutib bosh.
Qayda ittifoqlik topadir zavol,
Tep-tekis yo'lda ham paydo bo'lur tosh.

428

Himmat kamarini bog'lasa faqir,
Yuz aybu nafs itin bog'lagay zanjir.
Manmanlik eshigin berkitar ehson,
Baxil tabiati bo'ladi dilgir.

429

Muhabbat o'rnini bossa gar shahvat,
Havasga aylansa gar ishqiy suhbat,
Ming hayfdir xashakka intilsa otash,
Jahon boyligidan ne olur himmat.

430

To so'z qolipiga tushguncha mazmun,
Uni o'ylayverib diling bo'lur xun.
Dilga tugun solar yuzlab saktalik
To nola misrasi bo'lguncha mavzun.

431

Inson xayolidan yig'lamaydimi?!
Yuksak kamolidan yig'lamaydimi?!
Gardun bir dam ko'rsa o'zin tuproqda,
Ayting, bu holidan yig'lamaydimi?!

106

432

Bunda haqiqatdan nishon ko'rmaysan,
Ishqda havas, shavqni oson ko'rmaysan.
Tuproq oyna emas, qancha nur sochma,
Soya ko'rasenu inson ko'rmaysan.

433

Bedilning na kulfat, na ranji bordir,
Xursandlik ta'bida gul, changi bordir.
Erta sahar barbod etsalar xokin,
Husni hangomasin nimrangi bordir.

434

Kim o'z maqtovida ochar ekan lab,
Ko'zlarim ko'rsatar bizga surmalab.
Bukun oyog'imiz ostidagi qum
Kecha og'izlarda xo'p chaynalgan gap.

435

Mazax, vaqillashdan toq bo'lsin yurak,
Har so'zing arzanda bo'lmog'i kerak.
Odob bisotimas masxarabozlik,
Har gal og'zing ochsang kulgi bo'lajak.

436

Fuqarodan xabar olmas boy olchoq,
Kibridan ko'ziga ko'rinmas oyoq.
G'ururdan shunchalar ko'tarar boshin,
Hademay bo'ynidan ham ketar uzoq.

437

Kishilar yumganmi ko'ngil ko'zini,
Kipriklar ochig'u tuymas o'zini.
Ko'p haq gap aytildi, Bedil ham aytdi,
Lek tushunmadilar uning so'zini.

107

438

So'z aytmoqqa og'zin ochsa gar yor,
Masih nafasida ajoyib bo'y bor.
Qalampir munchoqdir yo mushki Xo'tan,
Yo atir ufurmish rayhonu gulzor.

439

Mozorim uyatli, beparvo o'tma,
Nechuk halok bo'ldim, benavo o'tma.
Xijolatdan terlab o'tdi bor umrim,
Mard bo'lsang xokimdan mosuvo o'tma.

440

Zavqsiz, lazzatsizdir toatlarimiz,
Kekirdak qayg'usi rag'batlarimiz.
Kech — yemak qistog'i, kunduz — ochu lanj —
Shudir ro'za kuni himmatlarimiz.

441

Zohid kekkayishdan shunchalar qotgan,
Do'zax ham eritish evin yo'qotgan.
Chaynalgan chala go'sht, tuxum singari,
O'tga tushganda ham muzlagan, qotgan.



DOSTON

KOMDE VA MUDAN

Mohir kuychi, jozibali zo'r changda
Qo'shiq kuylar o'zgacha bir ohangda:
Hind elida bo'lgan edi bir podshoh,
Gul uzukli, kiygan chamandek kuloh;
Bazmu shavqdan mulki haddan oshgandi,
Gulshan kabi gurkurab u, toshgandi;
Bahorday keng quloch yozib hashamat,
Dabdabaga yuz tutgandi saltanat;
Kayfu safo, bo'lib davri, ayyomi,
Oyu yildek aylanardi may jomi;
Uning kuni — nozaninlar visoli,
Oqshomidir qorasochlar misoli.
Saroyida yashar edi dilnavoz,
Komde nomli bir raqqosa sarvinoz.
Sho'xligiga yuz qiyomat bir g'ubor,
Gul husniga o'xshamaydi yuz bahor.
Raqs etganda jilva bilan u barno,
Majnun girdin tovus aylanar go'yo.
Jom mayidek yengil ko'char davrada,
Piyoladay aylanardi o'rtada.
Jom chizig'i rashkdan qonday yonardi,
May shu'lasini bir yalt etib, so'nardi.
Raqsqa tushib, qosh chimirib etsa noz,
Chang toriga berkinardi kuy — ovoz;
Barmog'i-la gar ishora etsa u,
Cholg'u kuyi erib, bo'lar edi suv;
U jazm etib gar boshlasa raqs — o'yin
Hamma joyda qo'zg'ardi fitna — quyun;
Sarvinozning shahlo ko'zin boqishi,

Jon olg'uvchi — olamga o't yoqishi;
O'ynab boshin egganida beliga,
Dil to'liqini aylanar oh seliga...
Sho'x yuzlari terlaganda yaraqlab,
Go'yo yuzlab yulduz chiqar charaqlab;
Qo'shiqlari uchsa agar har yonga,
So'ngan umr qaytar edi jahonga.
Xulosa, u, go'zallikda hur edi,
Ikki olam ko'rsa maftun bo'lurdi!
Usiz podshoh bazmi huzur topmasdi,
Usiz yuz ming chiroq-la nur topmasdi.
Xuddi shunday boshqa uzoq vatanda,
Bor edi bir Mudan otlik sozanda.
Nash'u namo chashmasi u, zavqqa yor,
Fazlu hunar topgan undan iftixor.
Mashq-u sozda ilmi edi barkamol,
Oyda dog' bor, lek sozida yo'q zavol;
Avjga chiqsa dilni maftun etardi,
Yeru ko'kni ostin-ustun etardi...
Qayerdagi u kuylasa har qachon,
Tirik o'lib, tirilardi o'lik jon.
Soz-san'atda shunday mohir bo'lsa ham,
Yashar edi Komde deya dam-badam.
Hunar ahli suhbatida har safar
Eshitardi Komde haqida xabar,
Kuylab darak pardasining navosin
Noxun yig'lar tordan topmay davosin.
Gapu so'zning libosida jilvalar,
Quloq ko'rar, ammo hayron diydalar;
Ne eshitsa u sho'x haqida har bor,
Hushdan ketib qolar edi san'atkor.
Dil tortardi u yurtga har zahoti,
Uchay desa lek yo'q edi qanoti.
Uchgan kabi xuddi ohang-kuy tordan,
Yo'lga chiqar, darak izlab dildordan,
Devonalik qismat bo'ldi boshiga,
Darbadarlik chorlab keldi qoshiga;
Ko'z yoshiday tinimsizu darbadar,

Dil o'tidan quloch ochib, yo'l kezar.
Hushin olgan u shaharga yetguncha,
Tortmadi u yo'lda azob ozmuncha...

* * *

Bazmu shodlik qalamkashi bu zamon,
Qalam nayin sozlab etdi u bayon.
Yetganida Mudan o'shal vatanga,
Mujda keldi bahordan bog' — chamanga.
Avjga kirsar toki sozin jarangi,
Quloq kuyin berdi oyoq ohangi...
Tong ortidan yoyilganday xuddi nur,
Hamma joyda edi har doim mashhur.
Qayergaki yetsa agar navbahor,
U yer bo'lar sep kiyinib, chamanzor.
U diyordan g'am ketkazdi qadami,
Kutdi uni har tomonga zavq dami.
Komde Mudan kelishini bilgan on,
Qanot yozib, qayta urdi shod javlon.
Lekin shohning ruxsatisiz ketolmas,
Iloji yo'q, yor vasliga yetolmas.
Ilmu fanning ustodlari nihoyat
U kuychidan yetkazdilar bashorat,
Shoh bazmiga u kuychini istashdi,
Yuz ohang-la so'zlab shohni qistashdi:
«Jannat yanglig' ajib, uzoq gulshandan
Joy so'roqlab bu ishratgoh chamandan,
Uchib kelib bunda qo'nibdir bulbul.
Zavqu shavq-la sizdan so'rabdi qabul;
O'yin-kulgi ahli undan shod bo'lg'ay,
Shodlik uyi u bilan obod bo'lg'ay;
Har yon uchsa fusunkorning ovozi,
Boshlanardi falak charxin parvozi,
Navosidan soz kuylari qolar tang,
Zuhra yulduz childirmasi ham garang...
Eshitilsa taronasi har qachon

Sur¹ surmadek erir undan begumon,
 Kuyiga har parda bo'lg'ay mahliyo,
 Har soz avji tuyulardi past go'yo...
 Gar Komdega kimki kelsa teng-harif,
 Shu misra-la tugari edi bu radif...
 Oh kim bu tab' fikr bayon etolmas,
 Bu o'xshatish tavsifiga yetolmas».
 Uni maqtab, oshirdilar shuhratin,
 Qo'zg'atdilar ko'rishga shoh rag'batin...
 Qisqa bo'ldi shu choq kutish fursati,
 Tig'iz kelib bo'lmadi vaqt muhlati:
 Gul bazmining izmi bilan biryo'la,
 Har quloqqa keltirdi u g'ulg'ula...
 Hashamatli shoh farmoni tarqaldi,
 Kuy qo'shilib sharob bilan chayqaldi,
 Bo'ldi bazmning asboblari muhayyo,
 Avjga kirdi ayshu ishrat, kayf-safo.
 Bazm boshlig'i neki bo'lsa, yasatdi,
 Dasturxonni qadahlar-la, bezatdi,
 Bexudlikka go'yo makondir Halab...²
 O'sha joyga keldi u shishatalab,
 Yuz soz bo'ldi bir zavq-orom qurboni,
 Yuz mayxona bo'ldi bir jom qurboni,
 Xirmon bo'ldi to'planib gul xillari,
 Chamanzorga adashdi rang yo'llari.
 Sham, chiroqdan porlab yonar hamma yoq,
 Quyosh yuzin tutdi go'yo parda — dog'...
 Nurga cho'mdi zamon zulmati shu dam,
 Ravshanlikka shunday burkandi olam...
 Kelishdi bazm soqiylari, shod mardum,
 Qo'llarda may, labda hayo, tabassum.
 Sozandalar noxunlarin chertganda,
 To'lqin ko'char qitiqlanib har tanda.
 O'g'irlardi hushni shisha qulquli,
 Quloqni kar etar changning kuy — yo'li,

¹ Sur — shoxdan ishlangan karnay; ² Halab shahri qadim zamonlarda shisha idishlar yasashda mashhur bo'lgan. Bu misrada shu fikr ko'zda tutiladi.

Bazmu sharob avji oshdi shu qadar
 Kayfu safo keldi ko'kka baravar.
 Behushlar sharm pardasini yirtidilar,
 Soyalar kun jomini berkitdilar...
 May ranglari qadahlarda mavj urdi,
 Kayf nash'asi boshni chulg'ab, ko'pirdi...
 Kayfu safo sustlik ko'rsatsa bir dam,
 Shisha xati uni ushlardi mahkam.
 May — ichkilik qaynab toshdi haddidan,
 Falak xumi to'lqin otdi qalbidan.
 Bir olam may qadahlarda qalqidi.
 Nay xatlari chaq nab, kunday balqidi...
 Soz ohangi may mavji-la jo'sh urib
 Ip tobiday singib ketdi qo'shilib.

* * *

Bazm — yig'inga berganida shoh farmon,
 Hamma ko'rdi havas ko'zgunin shu on,
 San'atkorlar aytmas zavqdan o'zgani,
 Soqiylarning shodlik edi suzgani.
 Har tarafda mayxo'rlikning mavjidan,
 Ishrat dami oshdi haddu avjidan.
 Keldi Komde va Mudanga shul zamon
 Mahoratni ko'rsatishga qulay on,
 Toki bunday bazm-suhbatda begumon
 Zavqu shavqqa dillar to'lsin bu zamon.
 Hush oluvchi ikki kuychidan shu choq,
 Quloqlar ko'z bo'ldi, ko'z esa quloq.
 Hush oluvchi bu nag'malar ne deyur?
 Va san'atda qanday sehr keltirur?
 Kayf etguvchi ilk piyola sharob-may
 Mudanga shavq ato etdi bir talay.
 Mana, changga minglab fitna va g'avgo
 Olib keldi jon olg'uvchi kuy, navo.
 Ochilmagan pargor kabi oyoqlar
 Chirmashib, so'ng bir-birini quchoqlar,
 Qo'l qo'ltiqqa o'g'irlatdi o'zini,
 Ko'rsatdi bir alif nayday yuzini;

Yig'in qurgan shoh yaqini — pastroqqa
 Hurmat bilan Mudan turdi oyoqqa.
 Na labidan uchar qo'shiq jarangi,
 Na qalbidan ko'char nafas ohangi...
 Turib qoldi churq etmasdan u xiyol,
 Shamday qotib, xomush edi va behol.
 Nafas zabtin tutib o'zda bu ahvol
 Chuvalardi parda kabi o'y-xayol.
 Lek kishiga bundan bahra yo'q edi,
 Xomushlikning nedur istak, umidi.
 Haddan oshib bu o'y, unga qolmay tob,
 Chekar edi olam undan iztirob.
 Bo'g'ilgandi yig'ilganlar nafasi,
 Parchalandi orzularin hammasi.
 Sabr kosasi to'lib, vahshatdir afzun,
 Intizorlik toqati bo'ldi majnun,
 Boshdan oyoq «huv» ohiga o'raldi,
 Dil tutuni chilvir sochdek buraldi.
 Har tuk o'rni nayanbondek¹ ochildi,
 Kuylar yangrab, ming tovlanib sochildi.
 Soz chalarda butun a'zo badani,
 Yangi olam edi har kuy-aytgani:
 Yon-biqini kuylab bo'ldi arg'unun²;
 Tizzalarin vaziyati chang yo'sun;
 Sochin etdi chang torlari shu chog'i;
 Ud³ ovozin tarqatdi bosh chanog'i,
 Har bo'g'ini ajib bir sas bo'lgandi,
 Nafas sehri soz toriga ulandi...
 Bo'ldi jodu labdan uchgan har kulgu
 Yuz childirma halqasiga ro'baro'.
 Ketdi ko'zdan bezovtalik g'avg'osi,
 Chalingandi foram tanbur navosi...
 Ne paytgacha urdi shunday mavj tug'yon,
 Har tarafdan ko'zlar boqmoqda hayron...
 Tinglab shu'la sochgan u jodu kuyni
 Bazm lovillab eritardi har o'yni.

¹ Nayanbon — nay va charmdan ishlangan va ko'p teshikli cholg'u turi; ² arg'unun — cholg'u asbobi, organ; ³ ud — cholg'u asbobi, arfa.

Yig'ilganlar hushi to'zg'ib, ucha'di,
 Hol o'zgarib, joyidan rang ko'chardi.
 Har kim bunda o'zidan old yugurdi,
 Gar o'ziga kelsa erib — jim turdi...
 Rang ketsa-da, gardi tahsin etardi,
 Bexudlikka zavq-ofarin deyardi.
 Garchi yig'in qizib haddan oshgandi,
 Komde esa hayronlikda toshgandi.
 Shahlo ko'zin piri piragan har nozi
 Edi boshdan aylantirgan niyozi,
 Marhaboli qoshi o'ynab, bo'lib xam
 Boshdan-oyoq sajda qilardi shu dam.
 Shoh bo'yniga taqilgandi bir inju,
 Edi daryo gavharlariga obro'...
 U gavharni o'z bo'ynidan olib shoh
 Taqdi uning gardaniga u nogoh...
 Qayerdagi jilo bersa san'ati,
 Ketar edi hamkor ta'bin toqati...
 Bu qiyomat holni ko'rib oqibat,
 Komdega shavq hujum qildi nihoyat,
 Chehrasida g'uncha yashnab, ochildi,
 Dunyo qadar sevinch undan sochildi.
 Olamga dov solib, charaqlab ketdi,
 Noz o'ti yashindek yaraqlab ketdi.
 Belini qilichdek bukib nogahon,
 Yuzlab shaydolarin etdi u qurbon.
 Mast ko'zlari qoshin ishorasidan,
 Ohularni chorlar dasht siynasidan,
 Lablarida g'uncha bo'ldi tabassum.
 Tongda yaproq yozgan guldek u so'lim.
 Rangli qo'lin o'ynab ko'rsatsa agar,
 Xinoga rang kirar undan muqarrar,
 Goho suvdek oqib ravon bo'lardi,
 Goh charx urib falaksimon bo'lardi,
 Bora-bora bazmu sozi barq urdi,
 Davraga o't ketib, otash yugurdi;
 Chiqqanida avjga o'yin javloni,
 Tuyulardi go'yo yo'q ustuxoni.
 Aqlu orom ketib, yiroq bo'lardi,

Oyoq etak, etak oyoq bo'lardi...
Mash'al edi, uning shu'lasini shu on
Jilva berib parpirardi har tomon;
Turli-tuman ishvalari soz edi,
Har kimga bir o'zgacha raqs, noz edi;
Ishva bilan qo'l siltasa u agar,
Har kim sezar go'yo bo'ynida chambar;
Zavq sho'xligi avjga chiqqach, hamono,
Bo'lar edi borlig'i noz, dilrabo.
Yorqin edi yig'in o'ynasimon,
Undan boshqa bo'lmas edi namoyon,
Davra qurgan hamma, yaqinu yiroq
Bo'lgan edi uning asiri shu choq...
Lek yig'inni ostin-ustin qilgandi,
Aql jomini to'ldirib xun qilgandi,
Hamma edi ul sehridan bexabar,
Nimalarga eltib, nima keltirar?..
Mudan o'zin unutib qo'shiq kuylar,
Olovdagi taqa kabi lovillar.
Sehrli kuy podshohga ko'p yoqqandi,
Bezaklarin Mudanga u taqqandi,
Boshu oyoq farqin bilolmay Mudan,
Komde oyog'iga irg'itdi birdan:
«Ol, bu iftixorim, g'ururim naqshi —
Oyog'ingga bezak bo'lgani yaxshi!
Sen-chun boshni qo'lga olib turibman,
Lek taqdimga arzimasi deb turibman».
Bu qilmishdan shohning rangi o'zgardi,
Lutf shabnami uchqun bo'lib to'zardi,
G'azab teri laxcha o'tday qizardi.
Bazm buzilib, unda olov kezardi...
Shoh kekkayib, g'urur, dimog'-la shu on,
Berdi uni quvish haqida farmon:
«Buyuk davlat shohin bazmida bunday,
Kim oyog'in bejo qo'yar o'ylamay?
Bazm-o'yinni mensimasi har kishi,
Boshi ketar, tig'ga loyiq qilmishi!
Shoh in'omin u bilmadi, oqibat —
Boshi dorga loyiq, — lekin marhamat —

Bo'lsin unga, tezda eldan haydalsin!
Yurtimizda nom-nishoni qolmasin!
Bu beadab telba kuychi, darbadar,
Oyog'ini sekin qo'ysa, u agar, —
Soqchi tig'-la yo'l ko'rsatsin, u mahal —
Oyog'idan boshi chopsin tez, avval.
Kimki uni yoqlab, bo'lsa shafqatda,
O'z boshini o'ylab ko'rsin albatta!
Unga birov afsuslanib, bossa yon,
Nafasidan ayriladi begumon!»
Arzga jur'at etmay tillar lol edi,
Bo'y egishdan boshqa gap mahol edi...
Bazmu shodlik sozi barham etildi,
Hamma uchun qochishga dam yetildi.
Bir to'p soqchi yetib kelishdi shu on,
Jabrga tayyor, yo'qdir shafqatdan nishon,
Hurmat jomin to'ntarishib ketdilar,
So'ng Mudanni sudrab, olib ketdilar.
Zamon bazmu kuylaridan yakbora
Boshi uzra sindirildi nog'ora.
U bisotdan uni so'ngan sham yo'sin
Qurshab oldi zulmat uni xuddi tun.
Yashnab kelib bunday so'lib ketmoqlik,
Or-nomusdan yerga kirib ketmoqlik.
Sudrar edi soqchi uni beomon.
Chang zulfiday xokka bulg'ab har tomon.
Komde bo'lsa har tarafga «Mudan» deb,
Yosh oqizib, kelar ortda sudralib.
Ko'cha-ko'ylar ko'ksin ochib, berdi yo'l,
Sevganiga yetib oldi shunda ul.
U zolimlar oyog'iga to'kdi yosh,
Qora sochin yozib, yerga qo'ydi bosh:
«Jahon ayshi erur davru jomingiz!
Necha zamon bo'lsin zavqu komingiz!
So'nggi nafas izmidadir najotim,
Shu bir kecha qolgan mening hayotim.
Sahargacha yonboshimda qoldiring!
Tongda haydab men bilan yo'l oldiring!
Mening xatom soldi uni bu kuyga,

Muhabbatim otash yoqdi ko'ngliga!
 Mening nozim olib aqlu hushini,
 O'zi bilmay qoldi qilgan ishini.
 Agar nafas urilmasa chiroqqa,
 Qaydan axir burkanar u dud-dog'ga?
 Husn ayblidir, ammo muhabbat ozod,
 Shirin husni bo'lmish baloyi Farhod!
 Yashnatmasa olovini shamchiroq,
 Parvonani kuydiradi kim shu choq?
 Gunoh mendan, uning boshida sitam,
 Ko'z yosh to'ksa, kiprik bo'lar jiqqanam.
 Muhlat berib, aylang menga iltifot!
 Shafqat qilib, bir dam bering siz najot!
 Tunning umri qisqa, axir ko'p emas,
 Tong nafasi lab ochguncha ko'p o'tmas.
 Bu — g'am yurtin g'arib sargardonidir.
 Bu — ibrat cho'lining gard, to'zonidir.
 Yomonlikdan agar qilsangiz hazar,
 Bu g'aribdan qo'l olg'aysiz muqarrar...»
 Uqubatdan asrash uchun shu soat,
 Oltin berib ko'ndirdi u nihoyat.
 Iltimosin aytdi solib kuyga u,
 Muhlat olib, so'ng keltirdi uyga u.
 Sham yondi-yu, lekin nuri bo'lmadi,
 Aniqrog'i, uning qo'ri bo'lmadi...
 Sahargacha yonsa-da bu ikki sham.
 Dil kuyardi, shu'lasini yo'q bo'lsa ham;
 Tushganda ham yuzlariga har nigoh,
 Quyilardi ko'zdan hasratli yosh, oh.
 Qanot qoqsa so'z qotishga gar nafas,
 Varaqlardi rangsiz varaqni birpas...
 Ko'z mehrida so'nib borardi nigoh,
 Surma esa qora baxtdan bir guvoh;
 Ko'targuncha nola tashvish niqobin,
 Dil tutuni ketkazardi lab tobin;
 Diydor ko'rib yurak bo'ldi choku chok,
 Tun bo'yi yosh oqdi, ko'z bo'ldi buloq;
 G'am yurtida visol qanot qoqardi,
 Yuz qayg'uli shomga botib oqardi.

Diydor dami og'ir tuyuldi bu dam
 Hech kimsaga bunday tuyulmas motam...
 Komde vafo qanoti-la uchardi,
 Dilga yangi otash yoqib quchardi,
 U bechora, ojizlikdan chekib oh,
 Xasta tildan faryod ko'tardi nogoh:
 «Ey, ayyom g'aribi, sitamkash bukun!
 Shodlik tongin o'rnin oldi qora tun!
 G'ariblikda kuyib, kulfat chekarsen!
 Tanholik dog'ida yolg'iz ketarsen!
 Meni deb vatandan topding judolik,
 Falokat keltirdi bu oshnolik!
 Etagingni mahkam tutmog'im kerak,
 Bu dunyodan sen deb o'tmog'im kerak!
 Vafodorman ishq-sevgingga, yor, ishon,
 Lek qo'rqaman sensiz bo'lmay deb qurbon,
 Podshoh meni yana izlab qolg'usi,
 Boshimga u yangi g'avg'o solg'usi.
 Bu istakka qo'yar bo'lsam men qadam,
 Seni qurbon etgan bo'lurman u dam.
 Borlig'imdan chekar xijolat nafas,
 Vafo qoni uchun tovon to'lanmas...
 Halok bo'lsam, diydor ko'rish qayda bor?
 Tirik qolsam, hayot tilsim, jafakor!
 Umidsizlik dog'i dil qonim erur,
 O'lik men yo tirik gumonim erur!
 Na senga noz etish uchun bor imkon,
 Na menga bor yolvorishga vaqt-zamon...
 Lekin ketib bardosh umidi changdan¹
 G'ubor bo'lib uchardi bu ohangdan.
 Oh qaylarga tushsa yo'ling, safaring,
 Nari ketmas, yorim, dildan nazaring!
 Gul vasli-la yetar bo'lsang murodga!
 Baxtim rangin unutmay ol sen yodga!
 Agar essa chaman, gulzorga shamol,
 Xushnud bo'lib, shunda meni esga ol!
 «Bundan oldin meni shunday, ey dildor

¹ Chang — bu yerda changal, ya'ni qo'l ma'nosida.

Qurbonim bor deya eslagin har bor». Jo'shqin ariq suvin topolsang agar, Yo buloqqa yetib, bo'lsang bahravar, Ahvolimni ko'rib turarsan unda. «Ko'z yoshim aks etar u suv — to'iqinda!» Nima bilan shod aylasang dilingni, Yod etarsan bag'ri xun sevgilingni! Tutgan edim etagingning gardini, Etak qoqib, oshirding dil dardini. Vujudim qarorin olding sen mutloq! Endi men qayda-yu, etaging tutmoq? Ko'zgum eding, namli ko'zdan ketarsan, Ko'zqusizman, kimga nigoh etarman? Gulimdan rang ketdi, bu ne bog' ekan? Yerga may to'kildi, bu ne dog' ekan? Jon qalbida sensan, biroq jon sen-la! Dilda senu, lekin dil hamon sen-la! Dilsiz, jonsiz qanday yashay jahonda? O'z holimga yig'lagayman har onda!.. Koshki rangdan qanot bog'lab ucholsam, Xushxabar-la gulshaningni qucholsam. Lekin bag'rim qon bo'ldi-yu, yo'q sozim, Rang ketdi-yu, ortda qoldi parvozim. Kimdan so'ray, bir xabarkim, muhabbat Dil karvonin qayga eltar shu soat? Qo'l-qanotsiz men kabi notavonga, Xayolda ham shafqat etsang bu jonga: Sabo essa menga yo'llasang salom Darak topib, olsin deyman dil orom... Tirikchilik garchi azobi jondir, Sendan darak izlash menga darmondir...» G'am sham'idan so'z otashi sochildi, Shu sababdan dard qopqasi ochildi... Mudan tinglab bu dam mungli navoni, Sindirdi dil shishasini shu oni. Kabob etdi bag'rin Komde otashi, Simob etdi uning xasta qarashi. Ko'z yoshi-la dil qo'rini ochardi, Ko'zida yosh, lekin shu'la sochardi.

Tug'yon urib dilig'a u mushavvash, Ta'sir etib, yondi misoli otash: «Vasling erur ofatimning chaqmog'i! Jon qiynog'i dodu faryodim dog'i! Garchi holim xarob, garchi kuyarmen, Harna bo'lsa dilda ishqing tuiyarmen. Hamma joyda xayolimda sen faqat, To tirikman, seni derman men faqat. Sensiz tosh bolishim, yo'limda tikon, Qora kunlar borligi menga ayon. Cho'lda tunlar yo'l topolmay bir o'zim, Zulmat ichra so'ngay mening yulduzim. Charog'im yo'q, dard-dog'imdan so'ramal! Qalbdagi dog'ing, charog'imdan so'ramal!.. Bu keng cho'lda sanab har bir qadamni Izlagayman baxtim kulgan u damni. Bundan boshqa armonim yo'q jahonda, Ko'zim har dam termulib sen tomonda... Xijolatdan bo'ldim devonasimon, Suv edim-ku, lekin jo'shib bo'ldim qon. Xijolatlik arzi-holim bor senga, So'zim qaynab, etgay dil izhor senga: Diling niyoz arzidandir beniyoz! Sabrim eltib, qachongacha bunday noz! Sabr bilan har kim dilga bersa qo'l, Sevinch oyinasin ko'rgay albat ul. Qo'ldan ketsa murod surati agar, Beqarorlik keltiradir muqarrar. Sabri bilan kishi maqsadga yetar Chunki u sabr tashvishlardan or etar. Sabr joyida hovliqishga yo'l bo'lmas, U — visoldir, u har kimga qo'l kelmas. Sabr yo'lini taskin yo'li degaylar, Murod-maqsadga u bilan yetgaylar!.. Sabr azobin chekib, qiynalib behol Javob berdi, keyin keltirdi misol: «Mag'rur bu tojdorlar ishratga botib, Taltayishib, ko'kka kulohin otib, Xuddi shamdek puchxayol dimog'idan

Xabarsizlar bir kun so'nish chog'idan.
Gerdayish-la qancha mashg'ul bo'lsa ham,
Hayo tortib, boshlarini etmas xam.
Bu gerdayish tuban, behayollikdir.
Ezgulikdan xoli bir rasvolikdir.
Ular ne istasa bo'lurmi bajo?
Dil iqboli yo bo'lurmi muhayyo?
Iqbol nima? — Ko'rish demak yiroqni,
Ko'kni tutib, hovuchlamoq tuproqni...
Qo'lga olib fisqu fujur bozoring,
Bilmas xalqdan chetlab, oxiri borin.
To bo'lmasa ular kuni qorong'u,
Ko'z oldiga qaramaslar, odat shu.
Shamchiroqni yetmaguncha to sahar,
Yoqmoq bo'lib, undan olmaslar xabar...
Hasham dimog'idan boshingda balo,
Nog'ora-tug' xayolidan qil hayo!
Ko'tarmasin qancha g'avg'o nog'orang,
Bo'sh havodan bo'lak unda yo'q jarang...
Bo'sh narsadan ojizlarga shu yo'sin
Baland kelib, do'q urishlik hayf bo'lsin!..
Hashamatli ayshu ishratli diyor,
Badbo'y jundan to'lgan unga bod-g'ubor.
Tug', hashami baravardir tuproqqa!
Qo'lansa dum tukkan popik — bayroqqa!
Ne bilan farq etar podshohu gado,
Gado og'ir, shoh yengiltak doimo...
Ulug' erur garchi shohlar dargohi,
Undan yuksak gadolarning kulohi...
Himmat kamarini bog'lagan hamon,
Chumoli yengadi sherni begumon...
Mardlar chindan bel bog'lasa har mahal,
Baxti kulib, topgay orzusi amal.
Qat'iy bo'lsa mardning ahdu jur'ati,
Ko'kni yerga tutashtirar g'ayrati.
Himmat ori ozu ko'p degan xayol,
G'ayrat bo'lsa himmat kelur bemalol.
Kim ko'rsatsa azmu g'ayrat jahonda,
U kishining ko'ngli qolmas armonda.

Mening ham bir yolvorishim bo'lg'usi,
Shirakayfman, ko'zga yoshim to'lg'usi:
Ko'p vaqtdirki, eshitganman bir xabar
Shavqim qulog'ida ohangga o'xshar.
Ko'pni ko'rgan donishmandlardan bir kun
Bir hikoya ayon bo'ldi men uchun.
Eshitganman, uzoq shimol tomonda,
Bormish fayzli bir daraxt biyobonda,
Tubiy-yu¹ Sidradan² emish asl-zoti
Kishi lol bo'larmish ko'rgan zahoti,
Orzu ipi emish ildiz, poyasi,
Dil komin berarmish uning soyasi...
Yetsa uning gar etagi chinorga,
Umid guli yashnab, yetgay bahorga,
Tol shoxini o'z bag'riga olgan dam
Bukilmaydi meva yuki ortsa ham.
Soyasida har kim topsa joy — qaror,
Quyosh kabi baxti bo'lur barqaror.
Har kim yetsa unga hushsiz, bedarmon,
Aql, madori betakalluf topgay jon...
Izlasam, men o'sha daraxtga yetsam,
Shoyad soyasidan men baxtga yetsam.
Uning himmatiga menman intizor,
Baxt yo'lida shunday g'ayrat, ahdim bor.
Unga yeta olsam jahon komimdir,
Hamma joyda sevinch qadah-jomimdir,
Agarda men bu maqsadga yetmasam,
Oh singari barbod bo'larman u dam».
So'ng chiqardi qo'ynidan bir ajib gul,
Sehrrangu bahor yanglig' edi ul:
«Bu tilsim nafasim sanoqchisidir,
Amonat umrimning xabarchisidir.
Eltma unga nozu ne'matli ko'klam!
Elchi, xabar yo'llatmoqqa tashvish ham!
Goh-gohi sen iqbol da'vati bilan
Xayol bog'in ko'ru gulzorin aylan!
Meni izla har bir g'amli holatdan,

¹ Tubiy — jannatdagi afsonaviy daraxt nomi; ² Sidra — osmondagi afsonaviy daraxt nomi.

Anglab olgin ochiq-oydin shu xatdan!
Shu ajib gul yashnab ko'rinsa doim,
Sog'-salomat, bexatardir hayotim.
Agar uning rangi bo'lsa za'faron,
Bilgin u vaqt mendan yo'qdir nom-nishon!¹
Vaqtu muhlat shamchirog'i o'chardi,
Pand, nasihat dildan tilga ko'chardi.
Jo'nash to'zonidan berdi u xabar,
Qo'ng'iroq der yaqinlashdi tong — sahar,
Dilni yoqqan vaslu huzur karvoni,
Maqsad sari yo'l boshladi shu oni,
Boshdan-oyoq vidolashuv so'zidan,
So'nggi nigoh uchar edi ko'zidan.
Dil chokining parchalarin orqalab,
Tongdek vido quchardi yuz qaytalab,
Umid daraxtini tugib xayolga,
Tavakkal deb tongda yurdi shimolga.

* * *

G'amli hijron kuychisining hamrohi,
Ishq yo'lida bo'ldi mungli kuy-ohi,
Sitam dashtin jafokash tuprog'i u,
G'am vodiysin karvon qo'ng'irog'i u.
Hukmin unga ravo qildi tabiat,
Tortdi Komde vasli o'rniga furqat!¹...
Qo'ng'iroqda iztirobli yuz ohang,
Faryod chekib karvon borardi arang.
Yurgan sari ko'p tortardi azob-oh,
Alam bilan ortga tashlardi nigoh...
Oyoqlari qavardi-yu, bo'ldi qon,
Shimar edi uni cho'llarda tikon.
Taftu tobi qolmay, azob tortardi,
Jigar-bag'ri kuyib, qalbin o'rtardi,
Toki umid niholiga yetguncha,
Xas — tikonga urdi ko'ksini qancha.
Tomiriga etak chokin tikdi u,

¹ Furqat — ayriliq, hijron.

Soyasini makon etdi — shu orzu.
Tortib qancha hazin nola, qayg'ular,
Qalbga quvonch istar edi orzular...
Kelib yuz dasht azobiga ro'baro',
Majnun kabi parishon hol bo'ldi u,
Bexudlikdir uning kuylagan sozi,
Kuy qonunin parchaladi ovozi.
Kuylamoqchi bo'lib ochsa labini,
Komde dardi chulg'ar edi qalbini.
Shox bargini qimirlatardi shamol,
Azob chekib, oh tortardi, bemajol.
«Chaqqon bo'lma sen bu qadar, ey sanam!
Kafting nozli, muncha serzavq doyra ham!»
Biror ohu hurkib qolganda bu dam,
Yuragida olovlanardi alam:
«Nega cho'chib, yonmoqdasan, ne qismat?
Cho'lda hech kim yo'qdir, qaydan bu dahshat?»
... Bemor kabi qo'l-oyog'in otardi,
Bexudlikdan g'o'ldirab, so'z qotardi:
«Bu joyingdan qo'zg'olmagin, ey Mudan!
Komde o'ynar, bahra olgin sen undan!»
Devonadek uning tili g'o'ldirar,
O'z-o'zicha ajib suhbatlar qurar,
Boshqa-boshqa so'z aytardi har safar,
To'qir edi u poyma-poy misralar.
So'zi bo'ldi goh g'alati, bema'ni:
«Komde, keldim, ayt, xohlaysan nimani?!
Men unchalik sendan judo emasman,
«Buyon kelgin», xijolatin chekmasman!»
Gohi derdi: «Yetib borgay salomim,
Mendan senga yetgay xabar-payomim.
Men ketganman, lekin sen deb yonaman,
Uzoqdaman, lekin yor yoningdaman».
Gohi derdi: «Qo'shma dardni dardimga,
Tikonmidig, qadalan qalbinga?
Tokay ozor yetar halovatimga?
Yo'l qo'yilar tokay halokatimga?»
Gohi derdi: «Raqsdan qoldingmi, hayhot,
Men xastaga etmading bir iltifot!

Dil talpinib, orzu halok etildi,
Xasta jonga o'lim payti yetildi».
Gohi derdi: «Qani, qo'shiq boshlagin!
Parishonman, kelib dilni xushlagin!
Toqat kelsa — barham yegay intizor,
Yaxshiroqdir undan ko'ra bir g'ubor».
Gohi derdi: «Nega yurakni tilding?
Jismimga o't yoqib, qiyomat qilding!»
Dil dardiga ikki bu xonaxarob
Topolmasdi muruvvatli yo'l, hisob.
Gohi derdi: «Oshna emas senga dil
Bu makonim senga bo'lolmas manzil.
Sen mabodo kelganmiding ketish-chun,
Kelib, menga hamroh bo'lding ne uchun?!»
Gohi derdi: «Kelgin, birga kuyaylik!
Zulmatdamiz, chiroqqa o't qo'yaylik!
Davr zulmati cho'chitmasin muncha ham!
Yoritaylik olov bo'lib uyni ham».
Gohi derdi: «Qayda mehru qayda kin?
Bir soatcha menga yaqin kelmagin!
Quyosh bo'ylab rang oladi ko'lanka,
Qil dosh bermas, unga tushsa alanga».
Gohi derdi: «Kelu juda tezroq kel!
Ketib sabrim, ko'nglim senga ilhaq, kel!
Sahar chog'in gardi, xushnud fursati
Endi boshqa kelmas, o'tdi muhlati».
Gohi derdi: «Mendan xabar so'rama!
Bedimog'man, boshqa safar so'rama!
Men u qadar behush bo'lmay yurarmen,
Ovoz kelsa darhol hozir bo'larmen».
Gohi derdi: «Ko'zing muncha termular?
Surma bo'ldim, yo'lingdagi gard ular!
Noz sepiga bino qo'yma muncha ham!
Xabardor bo'l, fursat g'animat bu dam!»
Gohi derdi: «Tabassuming ne uchun?
Nafasimdir labim uzra misli xun!
U oy qaysi rangda tutgan erdi jom?
U sahardan kimning kuni bo'ldi shom?...»
Gohi derdi: «Yonboshimdan nari tur!

To'kma g'amdan sen qonimni, shu bo'lur!
Muhabbatim katta bir ofat bo'ldi,
Bu ishq emas, balki qiyomat bo'ldi...»
Gohi derdi: «Ko'z oldimda turma sen!
Xalal berma, dil ovinam sinmasin!
Chiroy emas, bunda o'zing, sen faqat,
Nechun senga kerak bo'ldi bu xilvat?»
Gohi «xubu» gohi esa «yo'q» derdi,
Nima desa bari ul «Komde!» erdi.
Xoh u savol, xoh u javob qilsa gar,
«Komde, Komde!» deyar edi har safar...
Xullas shuki, yo'lda oshiqi bedil
Daraxt soyasida topdi joy — manzil.
Dilozor shavq bo'ldi unga tarjimon,
Ma'shuqasin nomi tilida har on.
Cho'ziq kamand yoyilib har tomonga
Dom kuchini ko'rsatardi har yonga.
Sahro bo'ylab barcha qushu hayvonot
Tillarida ovoz qoldi lolu mot.
Mungli sozin takrorlashib, etdi yod,
«Komde» deya bari chekardi faryod.
Yuz til bo'ldi bir saboqning qurboni,
Bir hikoya bo'ldi, «Qushlar dostoni»¹.
U jafokash nomin etib dilga jo
Ming ohangda chug'urlashar doimo.
Qariyb bir yil shu yo'sunda bir bahor
O'tib ketdi bir faslga intizor.
O'tdi umri uyqusizu betaom,
Tobi aynib, holdan ketdi batamom.
Biror tomoq totmay labi qurishdi,
Och-nahorlik qalbi bilan urishdi.
Toqat rangi so'nib, hech tob qolmadi,
Til lol bo'lib, haddu hisob qolmadi.
Nola edi qalbdan chiqqan har nafas,
Esnash tongin qalbdan ufurar nafas.

¹ «Qushlar dostoni» — «Mantiq ut-tayr» qushlar tilidan yozilgan kitob bo'lib, sharq mumtoz shoiri Farididdin Attorning mashhur asaridir.

Zaiflikka o'rnin berdi kuch-mador,
Judo bo'ldi u ko'makdan ham nochor.
Na bor edi labda nafas qudrati,
Na tirnoqda boshni qashish holati.
Labga kelsa gar bir nafas, tunu kun
Yo'l kezardi xuddi tongdek u butun...
Hayotidan garchi umid qolmadi,
Ishq hayoti edi, o'lim olmadi...

* * *

Bu ahvoldan aytuvchi u hikoyat
Bir yildan so'ng bunday dedi nihoyat,
O'tib ketdi umidsizlik zamoni,
Tun o'rniga kuldi quyosh jahoni:
Ittifoqo bir shoh chiqib shikorga
Uning yo'li tushdi shunday diyorga.
Biyobonda ko'rdi qayg'u, to'polon,
Zo'r edi yuz qiyomatdan u tug'yon.
Har tomondan g'am g'ubori yog'ilar,
Tanqislikdan yurak o'ynab, bo'g'ilar.
Dimog'iga urilgan har shabada
Keltirardi dilga bahordan bahra.
U sahroda ko'ringan har lola, gul,
Yurak chokin qizil qoni edi ul.
Tarovatdan to'lqin urgan o't shu dam,
Kiprigiga olmish ko'z yoshi — shabnam...
Mast uyqudan uyg'onmasdan o't-o'lan,
Tuproq yalab, oh chekar yer bag'ridan.
Umidsizlik torlaridan bunda soz,
Tortishuvdan tarqatardi mung-ovoz.
Changu g'ubor to'zg'ib, qalqib turardi,
Dil talpinib, telbalanib urardi...
Shoh yetganda qushlar bazmi tomonga,
«Komde» kuyi tarqalardi har yonga,
To'ti, zog'dan tortib pashshaga qadar
Bir tovushni takrorlardi baravar.
Komde deya chug'urlagan bu ohang

Shoh tashvishin etagiga urdi chang.
Bu nag'mani tinglab bo'ldi beqaror,
Talpinardi dilda hasrat, g'am, ozor,
Safardagi odamlarga qarab shoh,
Yonib qalbi, dedi bo'lingiz ogoh:
«Bu mungli kuy har yurakni yig'latar,
Dardli dildan chiqqan ohni eslatar.
Har tomonda «Komde» — nomi ne navo?
Bilish kerak bu ne navo, ne balo?»
Tabiati xira bo'lib shoh turdi,
Voqeani tekshirishga buyurdi.
Haq — adolat otin etdirib javlon,
Har tomonni qidirtirdi shoh shu on.
Maqsad izlab u har tomonga ketdi,
Bora-bora u daraxtga ham yetdi.
Ko'rdi yerdan chiqqan ildizdek, daraxt —
Ostida bir yotgan odamni shu vaqt.
Faryod chekib tilka-pora badani,
Devonadek tanimas hech narsani,
Tuz totmayin, madori yo'q, qotishgan,
Qorni borib orqasiga yopishgan.
Tani qurib, unda yo'qdir husnu rang,
Bo'yni turar quruq tomirday arang.
O'lik, ammo nafas qalqir tomoqda,
Tirik edi, lekin boshi tuproqda.
Issiqligi olovlanar nafasda,
Talpinardi patsiz qushdek qafasda.
Otdan tushib bordi uning qoshiga,
Keldi go'yo suv qoq ariq boshiga.
Holsizligin ehtiyotlab, ataylab,
So'ng ko'tardi boshin yerdan avaylab.
Unga ko'mak, tadbir izlab qayg'urdi,
Ustu boshin tozalashga buyurdi.
Yordam uchun maslahatlashdi podshoh,
Sharbat tutdi, bemor topsin deb shifo.
Tomir qurir edi, suvga qondirdi,
Sham o'chardi, uni qayta yondirdi.
Nafasi nam olib, labin qimtidu,

Harakatga kelib, asta intildi.
Ovozigina nafas ochdi to og'ush,
«Komde» deya yana boshdan ketdi hush.
Yuragida to'lgan ohin takrorlab,
O'shal nomni aytdi-yu, so'ng yopdi lab.
Takror etgan faryodini o'ylab shoh,
Bo'ldi uning mavhum siridan ogoh:
«Firoq dog'idan u kuygan, bag'ri qon,
Yordan o'zga unga ko'rinmas jahon.
Komde deya bunda qushlar chug'urlar,
Uning sevgi maktabida o'qurlar.
Ohu nola chekib naqadar sozi,
Bor qushlarga tanish bo'lmish ovozi.
Qancha umr kerakkim dil chekib oh,
Jonvorlarni o'ziga qilsa hamroh».
Ul g'aribga chora izlab shoh o'zi,
Shafqat istab, bunday bo'ldi so'ng so'zi:
«Shamol yo'liga, ey duch kelgan chiroq!
Ayt-chi, kimdan tushdi bunday g'avg'o-dog'?
Ahvolingdan bo'lay ogoh, xabardor!
Ayt-chi, qanday holga bo'lgansan duchor?
Fazilatning himoyatli qo'li bor,
Ojizlarga ta'sir qilish yo'li bor».
Til chiqarib, so'zga kirib asta u,
Qimirlatdi labin, tili xasta u.
Xuddi tig'ga tortilganday qaltirab,
Aytmoq bo'ldi, lekin juftlolmadi lab.
U jafokash g'aribning hol, qismati,
Ta'sir etib, keldi shohning shafqati,
Himmat etib, ichdi ulug'vor qasam:
«Bu joydagi to'lmish olovli sitam,
To tirikman, kezib bunda yurtni men,
So'ndirgayman, yondirilgan o'tni men.
Eshitmasam bu g'aribning ohini,
Nima derlar saltanatning shohini!»
Yaxshi niyat bilan jazm etib shu dam,
G'ayrat kamarini bog'ladi mahkam.
Chopar bilan u shohga xat yubordi,

G'azab bilan qattiq talab yubordi.
Bir g'aribni qon qaqshatgan sitamgar —
Shohga shafqat bo'lmas, deb etsin xabar:
«Muruvvatni bilmas iflos bu taning!
Zulmu sitam sening turgan-bitganing!
Hayf emasmi bu vafodor bu yoqda
Zulming bilan to'zg'ib yotsa tuproqda.
Xususanki, yagonadir bu odam,
Ko'rgan emas uning tengini olam.
Bu sitamkash san'atini o'ylasang,
Tengi yo'qdir, unga aqling qolar tang,
Kimki uni eslab keltirsa yodga,
Hattoki jon bersa qolur uyatga.
Agar bo'lsa senda zarracha insof,
Haq-huquqin etar eding e'tirof.
Izzat, hurmat qadrin bilmay har kishi,
Tartibsizlik bo'lsa uning o'y, ishi.
Holi uzrin izlash kerak xulqidan,
Odob kelmas hushsizlarning qo'lidan.
Telbalik ham odobdir muhabbatda,
Lekin g'ururli ko'z bo'lur g'afolatda...
Shunday erur donishmandlar hikmati,
Qahrdan ustun turar shohlar shafqati.
Har kishining bo'lsa xohishi baxtda,
Bunday g'arib boshin silar albatta.
Faryodini qalbing sezganda agar,
Komde bilan qoldirarding muqarrar...
Bazm tuzuvchi bermay yo'l parvonaga,
Nursizlangan shamni eltdi xonaga,
Olov ketdi boy ektirgan paykalga,
Chunki boshoq bermadi kambag'alga,
Ayt-chi, qanday axir sensan Sulaymon!
Chumolidan ham so'raysan haqu don?
Bu boylikdan xursand bo'lsang mabodo,
Asosi yo'q, bari bo'lar tez ado,
Bundan keyin aybingni yuvsang agar,
Seni bu ish qasoslardan qutqarar.
Bilsang agar haqli Mudan da'vosi,

Dilim ezar uning chekkan jafosi.
Sen Komdeni bizga yuborsang agar,
Shod etarding bizni jahonlar qadar,
Agar bunga qarshi bo'lsang u zamon,
O'zingdan ko'r, qololmaysan tinch-omon!
Chopar ketdi, uning ketidan shu dam,
Odamlari bilan qo'zg'aldi shoh ham.

* * *

Chopar yetib xabar bergach u chog'i,
U zolimning ko'tarilib dimog'i,
Dedi: «Sen tez xavfli joydan jo'nab qol!
Safsatachi va'zxoningga yetib ol.
Jo'na tezroq, tilingga tig' yetmasdan
Va yelkangdan toki boshing ketmasdan!
Bu xil tahdid-la so'z ochib xotindan,
Sen yaxshilik kutma mardlar zotidan.
Tilga olmas mardlar qo'rqqoqlik otin,
Sharmandalik gar bersa har kim xotin.
Yelkamda to omonat bosh bor ekan.
Azmu g'ayrat bilan yonar dilu tan.
To qolguncha tanda so'nggi nafas — dam,
Komde yuzin ko'rmas hatto oyna ham.
Shohlar fe'li qat'iy, istamas tovon,
Qilmishidan ular bo'lmas pushaymon...
U nopokdan, u kim telba-yu majnun,
Yuragimda burqsib yotar o't-tutun.
Toj egasi o'lim kutgan kishiga,
Erk keltirsa, bu ehson qilmishiga.
Rahmu shafqat taqozosi edi bu,
Qilinmadi o'linga u ro'baro'.
Ayt-chi, bugun uni oqlab keldingmi?
Gunohini mendan yoqlab keldingmi?
Behudaga o'zni etarsen, nochor!
Shoh qo'shinin kuchin kamsitma zinhor!
Bu yo'l tuprog'ida singib yotar qon.
Jang boshlansa, bilgin, bo'lar beomon.
Sulh xohishi bo'lmasa sen tomonda
Tig'im o'tkir, meni ko'rgin maydonda».

* * *

Fitna-g'avg'o tongi charxlatdi tig'in,
Avjga keltirdi u falak gardishin,
Bu gardishdan tinchlik izi yo'qoldi
Yulduzlardan har yon yolqin tarqaldi.
Bu yolqindan quyosh bo'lib zim-ziyo,
Nayza taqdi zarrin qalpoqni go'yo.
Ikki shohning qaynab toshdi g'azabi,
Bo'ldi to'fon — qon selining sababi.
Sulh da'vatin ip-rishtasi uzildi,
Jangu jadal qaynab, tinchlik buzildi.
Olti yoqdan ko'tarildi to'polon,
Omon qolish yo'lin yo'qotdi har jon.
Imkoniyat joyi toru tang keldi,
Maydon aro kamon o'ynab, jang keldi.
Tig' damiga nafas qanot qoqardi,
O'q yo'liga tinchlik to'zg'ib, oqardi,
Jangu jadal jahdi tortdi zo'r na'ra,
Keldi ikki qiyomat kuch — ro'para.
Avjga chiqib karnay, nog'ora sasi,
Eshitilmas edi dunyo g'alvasi...
To's-to'polon ko'targanda to'p-qurol
Qiyomatning rangi o'chib, bo'ldi lol...
Gumbur-gumbur to'pdan yer ag'darildi,
Yurak emas, hatto tog'lar yorildi...
Tinchlik qochib, o'rnin bosib xavf, xijil,
Bo'ldi sog'lik yo'qlik gardiga manzil...
Temirchining bosqoniday o't purkab,
Falak ta'bi olov sochar lovillab.
Dovyuraklar u tor yo'ldan o'tsalar,
Ilklari xuddi o'qdek sochilar.
Og'ir gurzi zarbi qoshu qovoqni —
Eltib, unga qo'shdi oyoq-tirnoqni.
Ur-yiqitda mardlar jonini har gal,
Xamirdan qil tortganday olar ajal...
Qattiq jangda boshlarni tig' uzardi,
Qon selida bosh pufakdek suzardi.
Lablar o'ti bulut kabi quyular,
Kesilib qo'l, oyoq tog'dek uyular...

Oh iplari bo'ldi badandan judo
 To'quvchining mokisidek dil go'yo...
 Bolta pushti berib og'ir zarbalar
 Pahlavonlar ustuxonin maydalar.
 Uchar edi temir sovut parchasi,
 To'kilganday g'alvirdan suv barchasi,
 Ikki qilich kelganida duch, tutash,
 Yuz qiyomat ochar edi o't, otash.
 To'qnashganda har gal ikki zil qalqon,
 To'qqiz falak bosh berkitar shu zamon.
 Rustamsimon mardlar tortsa hayqiriq,
 Tang qolardi unga qarshi ko'p miltiq...
 Bir-biriga qo'yilib bosh betinim,
 Holdan ketib gurzilar ham qoldi jim...
 Nayza qirg'in maydonida to'kib qon,
 Undan bo'lak tik qolmadi hech bir jon...
 Uchar edi o'qlar qo'shin tomonga,
 Duch kelganni olar edi nishonga.
 Yuz ming jahdu jang-la oldinga qarab,
 Tashlanardi sherday har ikki taraf.
 Tanasidan judo bo'lgan har bir bosh,
 Tikka turib yov-la qilardi talosh...
 Libos ichra badandagi har a'zo,
 Og'iz ochgan go'yoki bir ajdaho...
 Tig'u qilich bo'ldi arralarsimon,
 Qon mavjida urar edi u javlon...
 Lola kabi jo'sh urardi har tomon
 Laxtalangan jigar hovuchlab qalqon...
 Olishuvdan bitdi quvvat, darmonlar,
 Nigohtardan yiroqlashdi mijgonlar...
 Yarim nafas olguncha bermay omon,
 Ajal yeli esib kelardi har on.
 Ammo shunday fojiali damda ham,
 Qasos o'ti so'nmas edi bir dam ham...
 Bir-birini chorlab, o'lim kutganlar
 To'ydi bari, birga qalashdi tanlar.
 O'lganlarga tutish uchun so'ng motam,
 Ikki yonda sog' qolmadi bitta ham.
 Hamma o'lim panohiga yugurdi,

Jang yerida tuproqqa yuz o'girdi.
 Qolmadi so'ng bu jangda azachi ham,
 Qora kiyib tutdi keyin qon motam.
 Qayerdagi bo'lsa zolim, badkirdor,
 Bir kuni u yengilib, so'ng bo'lar xor,
 Kam uchraydi ukim zolim davlati —
 Yoqasidan tutmas qazo ofati.
 U zolimning xoki bo'yaldi qonga,
 Mudan shohi yetdi g'alaba — shonga,
 G'ariblarga kimki ko'rsatsa yordam,
 Qora kundan qutilg'usi u har dam,
 Qayerdagi bo'lsa iqbol qo'rg'oni,
 Ojizlarga yordam uning narvoni...

* * *

Madh etilib vafo ahlin armoni,
 Shunday tugar ikki dilning dostoni.
 Qaynab-toshgan to'fon qaytdi izidan,
 Fitna-g'avg'o ketdi olam yuzidan.
 Baxt izlovchi shoh qozondi zo'r zafar,
 Omonlikdan berdi olamga xabar.
 Bu zafardan Mudan shunday shod, xurram,
 Bunchalik fayz bermas boqqa bahor ham.
 Sevinchidan uchib boshqa osmonga,
 Talpinardi qushday o'zga jahonga.
 Shuning kabi Komde ham shod, baxtiyor,
 Chaman bo'lib, yashnar misli gulbahor.
 Mudan yodgorligin siri bo'lgan gul,
 Jilvalanib bahor sari oldi yo'l.
 Har dam unga bir yaxshilik bildirar,
 Har bir nafas bir yangilik keltirar.
 Hujra etdi undan o'ziga gulshan,
 Ko'z xonasin etdi u bilan ravshan.
 Ertayu kech etdi uni ziyorat,
 Goh ko'rib, goh hidlab, olardi rohat.
 Uni quchoqlasa, gulgun bo'lardi,
 Unga boqsa agar, to'lqin urardi...

Podshoh istab muhabbatda imtihon,
 O'yga cho'mib, etdi fikrini bayon:
 «...Mudan qalbin yondirgan bu o't, firoq,
 Komde ko'nglidan u joy olmish nechog'?...
 Xotirida bormi yongan bu gado?
 Unutdimi yoki qilmay u vafo?»
 Fitnachi bir xodimni u tanladi,
 G'amli xabar eltishni tayinladi.
 U fitnachi sezdirmasdan gap-suxan,
 Sinash uchun desinki: o'ldi Mudan.
 Ishq jomini lim to'ldirib zaharga,
 Chopar ketdi sinov istab shaharga.
 Ko'chalarda to'zon bo'lib yelardi,
 Ohi bilan dilni tig'dek tilardi.
 Derdi: «Keldim ibrat biyobonidan,
 Keldim jangu to'fon, g'am jahonidan».
 Ikki podshoh qirg'inidan so'zlardi,
 Er-ayolga qissa aytib bo'zlardi.
 Uzoq-uzoqlardan ko'tarib fig'on,
 Oxir u ko'chada bo'ldi namoyon.
 Komde o'shal ohu faryod kuyidan
 Chiroq kabi balqib chiqdi uyidan...
 Shodligidan uy ko'rindi unga tor,
 Darak izlab, ahvol so'rar intizor:
 «Ey, hangoma aytgan bir oz tur, yana!
 So'zla uni, bo'ldi qanday afsona!
 Topgan bo'lsang biror xabar Mudandan,
 U mujdani bildir, yashirma mendan!
 Miskin dilim hasratida bo'ldi qon,
 Sevganimning holi qanday, et bayon?!»
 Chopar dildan oh tortib so'ng der: «Shoshma,
 Tinchlik dunyosiga sel bo'lib toshma!
 Men Mudandan xabardorman, so'rama!
 Bag'rimga o't qalab, undan so'rama!
 Aytmay desam, yurak-bag'rim kuyadi,
 Aytay desam, dard dilimni o'yadi.
 Bezovtaman, qanday chora axtaray?

Bardosh etib, yoki o'ylab, jim turay?
 U sitamkash og'ir jangda to'kib qon,
 Orzusiga yetolmay bo'ldi qurbon!
 Bu voqea bo'ldi bizga zo'r motam
 Aza tutdi unga podshohu hasham».
 Chopar dardli so'zin tugatmasdanoq,
 Komde rangi xuddi bo'zday bo'ldi oq.
 Kuygan qalbi yonib badtar o't oldi,
 Bexud bo'lib, uning hushi yo'qoldi.
 Qoni tanda sovub, to'nib borardi,
 Karaxt bo'lib qotib — so'nib borardi.
 Devonalik unga yuzin o'girdi,
 Tinchsizlanib hujrasiga yugurdi,
 Yetib o'shal gulga yumdi mujgonin,
 O'lim bilan bog'lab ahdu paymonin.
 Mahrum bo'ldi yor ko'ksining armoni,
 Motam tutib, ko'zin yopdi mujgoni.
 Tushmas edi ko'zi gul — sirdoshiga,
 Ne balolar keltirar u boshiga?..
 So'nggi nigoh hukmi bilan ko'z yumdi,
 Hasrat chekdi bexudligu u cho'mdi...
 Rohat bahorida ko'rdi shunday nur,
 Umr bo'yi ko'rmagandi bunday nur.
 Nafas ketib, qaytdi yo'qlikdan yana,
 Hid bo'ldi-yu, kezdi u gul aylana.
 Hayron edi, sehrgar ne yetkazdi,
 Ne ohang-la pardadan kuy ketkazdi?
 Aniq edi «chopar so'zi, so'rovi,
 Edi ishqim imtihoni, sinovi.
 Oh kim sevgi yo'lida ul bevafo,
 Eltmadi ishq uyidan g'ubor hatto.
 Yor o'limin bilib, tuproq bo'lmadi,
 Tandan jon ketdi-yu, halok bo'lmadi...»
 Boshin egib qo'ltig'iga xam bo'ldi,
 Xayolida vafo mujassam bo'ldi.
 Dedi: «Komde, kimki izlasa meni?
 Vafo istab, pok saqlagay sevgini!
 Senda orzu yashamoqlik bo'lsa ham,
 Mahshargacha ammo mening ko'zim nam.

Mudan uchun qurbonlikka ketarman,
Sen eshikda qol, men yakka ketarman».
O'ylab, fahmi bee'tibor qolmadi,
Ishqda o'zga holu mador qolmadi.
Komde endi etolmas tobu toqat,
Uning uchun qoldi faqat sadoqat.
Imtihonchi to o'rnidan turguncha,
Motam-aza uyda boshlandi shuncha...
Xulosakim, chopar o'ksib lol qoldi,
Sir bilolmay, parishon ahvol qoldi.
O'z behuda qilmishidan tortib g'am,
Xasta dili hasrat-la to'ldi shu dam.
Xabarkashlik og'ir gunoh keltirdi,
Sinov eltib, uyat va oh keltirdi.
Bir uyatki, ketmas uning hech dog'i,
Artar uni faqat o'lim tuprog'i.
Shoh qoshiga ming afsus-la yugurdi,
Yosh oqizib, yig'lab, yerga bosh urdi.
Uni tinglab hozir bo'lganlar shu on,
Labin tishlab, labda nafas bo'ldi qon.
Har bir kishi qayg'u-motam-la shu choq,
Sochar edi kaftlab boshiga tuproq...
Noumid ul Mudan hozir bo'lgandi,
Ming intizor bilan nozir bo'lgandi.
Yig'inaro bunday ahvol, g'am ko'rdi,
Tinglab ajablendi — nima ham ko'rdi.
Ma'yuslanish paydo bo'ldi yig'inda
Qut o'chmoqlik vido' bo'ldi yig'inda'.
Bu voqea yangi jafokor keltirdi,
Odamlarga yangi g'avg'o keltirdi.
Uyilgan kul to'dalarin shu'lasini
Qayta boshdan to'zgi'ib, burqsir nafasi.
Podshoh mulzam, qolmadi hech ixtiyor,
Boshdan-oyoq bo'lgan edi intizor.
Tinchsizlanib, to'fon urdi xayoli.
Ijirg'anib, so'z aytishga yo'q holi.
Qo'l ortini tishlay berib parishon,

¹ Ya'ni Mudan ham o'ldi.

Xuddi qassob kundasiday etdi qon.
Yoqasini yirtib, qildi ming pora,
Tirnay berib, etdi ko'ksini yara.
Bu fojia ibratidan qoshiga,
Mahshar kabi motam keldi boshiga.
Buyruq berdi: «Ulkim ikki vafodor,
Bir-biridan judo bo'lmasin zinhor!
Men sababchi bo'ldim bunday firoqqa,
Men bilan bir topshiringlar tuproqqa!
Talab etar mendan shuni adolat,
Men o'zimni chetlatishga yo'q hojat.
Tuproq osti bo'lsin joyim, tilagim,
Bo'lsin ular qo'lida bu etagim.
Xazon bo'ldi bu fe'limdan ikki yor.
Ajaj bir gap, men qotili jafokor.
Bu shahidlar mendan jafokor ko'rgandir,
Sinov tig'im bilan qurbon bo'lgandir...
Tiriklayin yotgum kerak tuproqqa,
Oqlay o'zim, toki tushmay qiynoqqa!
Bu xil sitam qonga baho so'ramas.
U qasosdan boshqa qazo so'ramas.
Gar o'zimdan o'ch olmasam, qiyomat
Kungacha sharm o'tidadir adolat.
Har holda men yurmay, o'lganim ma'qul,
Bundan boshqa ilojim yo'q, fikrim shul!»
Shoh ta'bidan paydo bo'lgan bu savdo.
Saroy uzra qo'zgotdi ko'p mojaro:
Har bir labdan ohu faryod uchardi,
Yuraklarga qayg'u-motam ko'chardi.
Shoh hukmidan bosh tortolmas hech kishi,
Qabul bo'lmay qolmas aslo har ishi.
Hukamolar bu ahvolni o'ylashdi,
Iloj izlab, fikrlarin so'ylashdi:
«Sen quyoshdek balqib yashnarsan bu on!
Bir mo'yingga fido bo'lgay yuz ming jon!
Muhtal bergin va tadbirga ixtiyor,
Qaltis yo'lga yana bo'lmaylik duchor!
Haqiqatni aytsak, ular o'lmagan,
Qon to'xtagan, lek hayoti so'lmagan.

Ozmi-ko'pmi kasalliklar bu mahal
 Yetkazmagan ular umriga xalal.
 Podshoh, siz agarda bersangiz farmon.
 Chorasini biz toparmiz — bu oson.
 G'ayratimiz sarflanib bu tadbirga,
 Agar chora topolmasak taqdirga,
 Shoh odami bo'lgan hamma bor odam,
 Tuproqaro yotsa maylidir u dam.
 Sen istasang agar halok bo'lmoqni,
 Maqbul ko'rar hamma o'lim, tuproqni».
 Shundan keyin berildi shoh farmoni,
 Umid bilan izlanar dard-darmoni;
 Do'stlik mehrin barcha hikmati bilan,
 A'zolarin biriktirdi jonu tan.
 Tayyorlandi ikki go'zalga hammom.
 Badanlari bu joyda oldi orom.
 Ular uchun, o'tmay bir necha soat,
 O'lim ketib, qaytdi hayot nihoyat.
 Dil issig'i bo'ldi nafas anhuri,
 Chechak otib, kuldi nafas bahori...
 Yana bog'da gul ko'rsatdi yuzini,
 Do'stlar ko'rdi birgalikda o'zini.

* * *

Bu jahonda kam uchraydi ikki yor
 Bunday qayta yashab, bo'lsa baxtiyor.
 Gul edimi yoki bahor bo'lishdi?
 Kim biladi, qanday oshkor bo'lishdi?
 Shu xil tasvir ila kuy tamom bo'ldi
 Va afsona bu o'rinda shod o'ldi.



MUNDARIJA

Debocha.....	3
G'azallar	
«Bo'libdir g'amga oshyon...» <i>E. Vohidov tarjimasi</i>	5
«Zahm o'ldi yana chashmi...» <i>E. Vohidov tarjimasi</i>	6
«Parishon xotirim deb...» <i>E. Vohidov tarjimasi</i>	7
«Ishq dog'i kabi...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	8
«Yod etib shavqingni...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	9
«To tug'ildim...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	10
«Yoniq matlablarim bergay...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	11
«Toki chaman tomonidan...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	12
«Ko'zlaringga, tengsizim...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	13
«Zor qanot qoqsamki...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	14
«Ey fazlu kamoloti...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	15
«Yoniq dil gavhari...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	16
«Sensiz tashlansa bog'ga...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	17
«Sharh etib mavj borlig'in...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	18
«Iki ko'z gavharingdan...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	19
«Haq debon dil makrin...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	20
«Chin kamolot ixtiyor qilmoqchiman...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	22
«G'amlarimni oh, qilib ta'sir...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	23
«Kibr ila mardlik g'ururini...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	24
«Ishq ahli agar...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	25
«Oh, jilvasini aning...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	26
«Junun, ayt, qaydasan...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	27
«Foniy bo'lsam-da baqo...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	28
«Ko'z yoshlarimni mijjalarim...» <i>M. Abdulhakim tarjimasi</i>	29

«Oyina kabi necha...» <i>A. Mahkam tarjimasi</i>	30
«Ul» demagimiz ham, menu...» <i>A. Mahkam tarjimasi</i>	31
«Qazo bosh xatiga...» <i>J. Subhon tarjimasi</i>	32
«Amal nayrangi bir...» <i>J. Subhon tarjimasi</i>	33
«Agarki dil mahvi...» <i>J. Subhon tarjimasi</i>	34

Ruboiylar

1 — 439-ruboiylar <i>Sh. Shomuhamedov tarjimalari</i>	35
440—441-ruboiylar <i>G'afur G'ulom tarjimalari</i>	108

Doston

Komde va Mudan. <i>Nazarmat tarjimasi</i>	109
---	-----

Adabiy-badiiy nashr

Mirzo Abdulqodir Bedil

SHAVQINGNI YOD ETIB

G'azallar, ruboiylar va doston

Nashr uchun mas'ullar: *Mizrob Bo'ronov, Nazira Jo'rayeva*

Muharrir *Hikoyat Mahmudova*

Musavvir *Anatoliy Bobrov*

Badiiy muharrir *Rustam Zufarov*

Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*

Kichik muharrir *Nazmi Fozilova*

Musahhah *Fotima Ortigova*

Kompyuterda sahifalovchi *Galina Otaskevich*

Bosishga 27.01.05-y. da ruxsat etildi. Bichimi 84×108^{1/32}.
Tayms garniturasi. Ofset bosma. 7,56 shartli bosma toboq.
8,5 nashr tobog'i. Jami 10000 nusxa. 21 raqamli buyurtma.
92—2004 raqamli shartnoma. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

700129. Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30./700128. Toshkent.

Usmon Yusupov ko'chasi, 86.

- B46 Bedil, Mirzo Abdulqodir.
Shavqingni yod etib : G'azallar, ruboiylar va doston/
Mirzo Abdulqodir Bedil;/To'plab, nashrga tayyorlovchi
Jonibek Subhon/. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-
matbaa ijodiy uyi, 2005. — 144 b.

Bedil — fors-tojik mumtoz she'riyatining zabardast vakili, ruhiyat g'azaliyotining o'xshashi yo'q namoyandasi, jamiyat va tabiat sir-sinoatlarini faylasufona tahlil va tadqiq etgan buyuk shoir bo'lib, g'azal ixlosmandlarining har bir yangi avlodi uni yangicha kashf etishi muqarrardir. Uning she'riy fikrlari, tashbehlari va sehirli tili o'z iforini hamisha ufurib turishiga aminmiz. Undan ilg'ab oladigan ma'nolarimiz ma'naviyatimiz sandig'iga qo'shilgan duru javohirlar kabitdir...

BBK84(0)9